

M.SH. NORBERDIYEVA, F.SH. XAYITOV, SH.M. GANIYEVA

KIMYO O'QITISH
METODIKASI



M.Sh. Norberdiyeva, F.Sh. Xayitov Sh.M. Ganiyeva

KIMYO O'QITISH METODIKASI

5110300-Kimyo o'qitish metodikasi yo'nalishlari uchun
o'quv qo'llanma



932381



UDK 53(07)

BBK 74.265.7

S 28

Mualliflar:

M.Sh. Norberdiyeva

Nizomiy nomidagi TDPU Kimyo va uni o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Toshkent davlat Yuridik universiteti huzuridagi akademik litsey o'qituvchisi

Sergeli tumani 104-umumta'lim

Taqrizchilar:

M.I. Ibodulloyeva

Nizomiy nomidagi TDPU Kimyo va uni o'qitish metodikasi kafedrasi dosenti, k.f.n.

D.O. Abdusamatova

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti "Kimyo" kafedrasi dotsenti, k.f.n.

O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2022 yil

19-iyuldaggi № 233 sonli buyrug'iiga asosan nashrga tavsya etildi

Annotasiya

O'quv qo'llanma pedagogika oliv o'quv yurtlari talabalari 5110300– Kimyo o'qitish metodikasi mutaxassisliklari uchun mo'ljallangan.

Ushbu o'quv qo'llanmada kimyo fanini o'qitish uslublari va vazifalari, shuningdek, umumiyl o'rta ta'lim, professional ta'lim va oliv ta'lim uchun dars ishlamalari na'munalari, maslahatlar, topshiriqlar, glossariy, keltirilgan.

Аннотация

Учебное пособия предназначена для студентов высших педагогических учебных заведений по направлению 5110300 –Методика преподавания химии.

В учебном пособии включены методика и задачи обучения химии, а также примеры планов уроков для общего среднего, профессионального и высшего образования, советы, задания, глоссарий, цитируется.

Annotation

The text-book is intended for students of the Pedagogical Higher Educational Institutions in the direction 5110300 - Methods of teaching chemistry.

The text-book includes the methodology and tasks of teaching chemistry, as well as examples of lesson plans for general secondary, vocational and higher education, tips, assignments in the framework, a glossary, cited.

KIRISH

Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzlusiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 2020-yil 12-avgust, PQ-4805-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori-bugungi kun talabi yosh avlodni yetuk intellektual bilimga ega qilib tarbiyalashda muhim dasturul amal bo‘lib xizmat qiladi. Bunda bir qator masalalarga urg‘u berilgan.

Mamlakatimizda kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish, ushbu yo‘nalishlarda ta’lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyot yili” Davlat dasturining ustuvor vazifalari qatorida belgilangan.

“Zero, o‘g‘il-qizlarimizni kimyo va biologiya fanlari bo‘yicha chuqur o‘qitish hududlarda yangi-yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan farmatsevtika, neft, gaz, kimyo, tog‘-kon, oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini jadal rivojlantirishga turki beradi hamda pirovardida xalqimiz turmush sharoiti va daromadlarini oshirishga puxta zamin hozirlaydi”-deyilgan.

Shuningdek, o‘rta maxsus, professional, oliv ta’lim, ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda sohadagi ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasida kadrlar tayyorlash va ilm-fan natijalaridan foydalanish borasida uzviy bog‘liqlik, samarali muloqot va hamkorlik yo‘lga qo‘yilishini ta‘minlash, kimyo va biologiya fanlari bo‘yicha ta’lim sifatini tubdan oshirish, umumta’lim maktablarida ushbu fanlarni o‘qitishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, ta’lim muassasalarini zamonaliviy laboratoriylar, darsliklar va boshqa o‘quv jihozlari bilan ta‘minlash, ushbu yo‘nalishlarga malakali o‘qituvchi-murabbiylarni jaib etish, kadrlar tayyorlash va ilm-fan natijalaridan foydalanishda ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalari o‘rtasida o‘zaro yaqin muloqot va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish davlat ta’lim siyosatining yorqin ifodasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Hozirgi globallashuv davrida bo‘lajak kimyo fani o‘qituvchilarini egallashi kerak bo‘lgan bilim ko‘nikma, malakalari davlat standartlariga va xalqaro ta’lim standartlariga mos kelishi, egallangan bilimlarini amalda qo‘llash uchun mos metodlar ishlab chiqilishi lozimdir. Mavjud darsliklarni ko‘rib chiqish yangi avlod darsliklarni yozish, xalqaro baholash dasturlari haqida ma‘lumotga ega bo‘lish. Bilimlarni nazorat qilish hamda baholashning afzal usullarini amaliyatga joriy qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan, kompyuter va axborot texnologiyalarini mukammal egallagan kadrlarni tayyorlash asosiy maqsad qilib belgilangan.

Respublikamiz tuman (shahar)larida bosqichma-bosqich kimyo va biologiya fanlarini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilmoqda albatta bunday maktablarda yetuk kadrlarning faoliyat olib borishi ularning ilmiy tadqiqot institutlari, sanoat, ishlab chiqarish ob‘ektlari bilan mustahkam aloqasi o‘z natijasini beradi albatda.

O'zbekiston Respublikasi halq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepciyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limi tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-ahloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi «Xalq ta'limi boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5538-son Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib

- PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miyosda o'quvchilarни baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;
- uzlusiz ta'lim tizimi mazmuni sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;
- xalq ta'limi sohasiga zamonaviy ahborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish; kabi bir qator masalalar ko'rib chiqilgan.

Kimyoni o'qitish metodikasi bo'yicha darsliklar o'quv qo'llanmalar kimyo bo'yicha ixtisoslashtirilgan sanoat tarmog'idan farq qiladi, chunki kelajakdagi kimyo o'qituvchilari sifatida talabalarni quyidagi ishlarga o'rgatish zarur:

- ✓ darsliklarning mazmuni va tuzilishi bilan tanishtirish;
- ✓ dasturlarning o'zgaruvchanligini, maktabning o'ziga xos xususiyatlarini va o'quvchilarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda kimyo darsliklarni tahlil qilish qobiliyati;
- ✓ talabalarni muammolarni hal qilishga o'rgatish metodikasidan foydalanish qobiliyati;
- ✓ xilma-xil kimyo darslarini tayyorlash va o'tkazish uslubiyotiga ega bo'lish;
- ✓ tayyorlash usulini egallash va kimyoviy tajribani o'tkazish.

Hozirgi vaqtida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash ko'plab pedagogik yo'naltirilgan fanlarni o'qitish jarayonida amalga oshirilmoqda.

Bular "Kimyo o'qitish nazariyasi va metodikasi", "Kimyo metodikasi", "Kimyo o'qitish metodikasi" va boshqalar.

Kimyo fanidan o'qitish usullarini o'rganishni talabalarni tayyorlashning asosiy sifati.

O'quv qo'llanmada kimyo o'qitish metodikasi pedagogika fanining tarmoqlaridan biri sifatida ochib berilgan. U o'rta maktabda kimyo ta'limining maqsadi va mazmuni bilan kimyo o'qitishning psixologik-pedagogik asoslari bilan


tanishtiradi. Kimyoni o'qitish metodikasini o'rganish natijalariga qo'yiladigan talablar bilan tanishishdan boshlanishi kerak. Bunda kimyo o'qitish usullari bo'yicha ma'ruzalar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'rganish tavsiya etiladi. Har bir mavzuni o'rganishda bilimlarni amalda qo'llash va shu bilan birga kasbiy faoliyatda amaliy tajriba toplash bo'yicha shakllantiruvchi vazifalarni bajarish alohida ahamiyatga ega. Bo'lajak kimyo o'qituvchilarini tayyorlash o'quvchining faoliyatining xususiyatiga e'tiborni hisobga olgan holda ta'limni rivojlantirish g'oyalariga asoslanadi.

Maktab predmeti sifatida kimyo fanini o'rganayotganda o'qituvchi nasaqat o'quvchilarning boshqa fanlardan olgan bilimlariga, balki ularning amaliy hayotiy tajribalariga ham e'tibor qaratib, mavzulararo keng aloqalardan foydalanadi. O'quvchilarini o'rta maktabda kimyo o'qitishning zamонави uslubi bilan tanishtirish uchun zarur bo'lgan masalalarni ko'rib chiqishga e'tibor qaratish lozim. Uslubiy masalalarni ko'rib chiqishda tipologik va texnologik yondashuv material tarkibining ilmiy darajasini oshiradi. Ushbu o'quv qo'llanma maktab amaliyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Qo'llanmaning mazmuni zamонави kimyo o'qituvchisining psixologik- pedagogik faoliyatining xususiyatlarini aks ettiradi.

Kimyo o‘qitishda o‘quvchilarning tajribalar bajarashini amalga oshirish. Laboratoriya tajribalari

O‘quvchi eksperimenti o‘quvchilarning mustaqil ishlaydigan kimyoviy tajribalarini bajarishi bo‘lib maktab kimyo dasturida darslik va o‘quv qo‘llanmalarida keltirilgan bo‘ladi. Kimyoviy eksperiment nafaqt o‘quvchilarda uni o‘tkazishga oid ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi, balki o‘quvchilar tomonidan egallangshan bilimlarni haqqoniyligini asosslab beradi. Bilimlarni egallanishi va o‘quv materialini chuqur o‘zlashtirishga olib keladi. U kimyo kasbini egallahsha kimyoning turmush bilan bog‘liqligini asoslashda muhim ahamiyatga egadir.

O‘quvchilar eksperimenti laboratoriya tajribalari va amaliy ishga bo‘linadi. Ular bir-birdan didaktik maqsadi bilan farq qiladi. Laboratoriya tajribarining maqsadi yangi bilimlarni egallahsha yangi materialni o‘rganishga qaratilgan bo‘ladi. Amaliy mashg‘ulotlar esa mavzuni o‘rganib bo‘lgandan keyin olib boriladi va u bilimlarni takomillashtirish hamda mustahkamlash, bilimlarning aniqligi amaliy ko‘nikmalarning shakllanishi va shakllangan ko‘nikma va malakalarni takomillashtirishga olib keladi. O‘quvchilar eksperimentning bajailishi quyidagi etaplarda o‘tadi.



O‘quvchi nima sababdan tajriba bajarilayotganligi va qanday muommani tajriba asosida aniqlash mumkinligini bilishi kerak. O‘quvchi modalarni asboblar va indikatorlar yordamida o‘rganadi. Tajribani bajarish asboblar bilan qanday ishlash kerakligini, tajribani borish yo‘lini bilishini talab etadi. Tajriba natijalaridan unga oid nazariy konsepsiyalari asosida xulosa chiqara bilish kerak.

Kimyo o'qitishda o'quv ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanish. O'qitishning ko'rgazmalilik asosida og'zaki bayon etish metodlari.

O'qitishning ko'rgazmali og'zaki bayon etish metodlari o'qituvchining nutqi bilan o'quv jarayonida ko'rgazmalilikning turli vositalaridan foydalanib dars o'tishni ko'zda tutadi. Bu metod bo'yicha o'qitish vositalariga ma'lum didaktik talablar qo'yadi. Masalan, namoyish qilinadigan eksperiment va natural ob'ektlar (masalan, reaktivlar) moddalarning xossalalarini va kimyoviy reaksiyaning tashqi alomatini o'rganishga katta yordam beradi. Modellar, chizimalar, grafiklar, shuningdek, moddalarning formulasi va jarayonlarni ifodolovchi tenglamalarini tuzish, jarayonlarning mohiyatini tushunishga, moddalarning tarkibi va tuzilishini o'rganishga, kuzatilgan hodisalarni nazariy asoslashga yordam beradi.

Mavzu bo'yicha kompleks jihozlashni amalgaga oshirish didaktik birlikning ko'rinishini ifoda etadi. Uning mohiyati shundan iboratki, o'qitishning turli masalalarini hal qilish uchn bir darsning o'zida ko'p vazifalarni bajaruvchi va bir birini to'ldiruvchi turli ko'rgazmali vositalar ishlatalidi. Masalan, namoyish qilinadigan asbob juda kichik bo'lsa va uzoqdan yomon ko'rinsa o'qituvchi asboboning qurilmasini doskaga chizib ko'rsatishi yoki magnit applikatsiyasi yordamida tayyorlangan chizmani ko'rsatish mumkin, murakkab jarayonlarni tushuntirishda jarayonlarni dinamik modelini multiplikatsiya qilib, kompyuter va videoglaz yordamida katta ekranda namoyish qilib ko'rsatiladi.

Ko'rgazma vositalarini o'qituvchining so'zi bilan tushuntirilishiga katta e'tibor qaratilishi kerak. O'qituvchining kommentariyasisiz ko'rsatilgan tajriba faqat foydali bo'lmasdan zarar keltirishi ham mumkin. Masalan, ruxning xlorid kislota bilan o'zarotasi'olini namoyish qilishda o'quvchilarda shunday fikr paydo bo'lib qolishi mumkinki, vodorod kislotadan ajralib chiqmasdan balki ruxdan ajraladi. Ko'p uchraydigan xatolikning misolini keltirish mumkin. Eritmaning muhitini aniqlashning mohiyatini tushuntirmay, tajriba o'tkazilganda ko'pehilik o'quvchilar indikatorning rangi o'zgarmasdan balki indikator tushurilgan eritmaning rangi o'zgaradi degan fikrga keladilar. Shuning uchun o'qituvchining so'zi rahbarlik qiluvchi va yo'naltiruvchi vazifani o'taydi.

Demonstratsion eksperimentdan tashqarii o'qituvchi ixtiyorida ko'rgazmalilikning juda ko'p vositalari bo'lib, ulardan foydalanish darsning samaradorigi va sifatini oshiradi. Ularga sinf doskasi, maketlar, magnit vositalari, ekran qo'llanmalari, mavzuga tegishli turli xil plakatlar, taqdimatlar, videoroliklar va boshqalar kiradi. Ularni kimyoviy eksperiment bilan birgalikda yoki alohida o'qituvchining izohi, tushuntirishi bilan qo'llanishi mumkin.

Doskaga yozishni avvaldan rejalashtirish kerak. Doskadagi yozuv tiniq va boshqa yozuvlarni shunday ketma – ketlikda yozish kerakki, unda darsning hamma yo'lli o'z aksini topishi kerak. Bunday holatda o'quvchilar tushunmay qolgan joylarini o'qituvchi qayta tushuntirish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarning doskaga yozishlarni ham nazorat qilishi kerak. Ularning yozuv ham tiniq, tartibili bo'lishi talab etiladi. Kimyoviy formulalarni keltirib chiqarish, modalarning olinishi

va kimyoviy xossalari reaksiya tenglamalarini tartibli doskaga yozib borish kerak bo'lgan holda doskadan foydalanishi boshqa ko'rgazma vositalaridan avzal hisoblanadi. Darsda toza doskadan foydalanish kerak.

Turli didaktik maqsadlarda diagrammalar, moddalarini ishlab chiqarishni ifodalovchi plakatlar, krisstal panjaralar modellari, jadvallar va plakatlarning avzalligi shundan iboratki, ularni hamma vaqt o'quvchilarga qo'rsatish mumkin. Ulardan darsning har qanday didaktik bosqichida, ya'ni materialni o'rganishda, darsni mustahkamlashda, bilimlarni nazorat qilishda foydalanish mumkin.

Keyingi vaqtarda ko'rgazmalilikning muhim vositalari bo'lgan ekran qo'llanmalari faol ishlatilmoqda. Ular quyidagi texnik vositalarni namoyish qilish uchunishlatiladi: kinoapparat, diaroyektor, epiroyektor, grofoproyektor, videomagnitafon, televizor va boshqalar kompyuter. Texnik vositalari o'z – o'ziga o'qitish xossalariiga ega bo'lmaydi, lekin ularsiz ekran qo'llanmalarni ishlatib bo'lmaydi. Ekran qo'llanmlari bilan o'quvchilar ishlashda qirrali ta'sir etuvchilar ta'sirida bilimlarni o'zlashtirishi oshadi.

Hozirda o'quv darslari kompyuterlar bilan ta'minlanganligi uchun o'qitishda kompyuter darslaridan foydalanish dars unumдорлиги оshishida muhim vositaga aylanmoqda.

Ko'rgazmali – amaliy so'zlab berish metodi asosida o'quvchilarning amaliy faoliyati yotadi. Ularni o'qituvchining jonli so'zisiz amalga oshirib bo'lmaydi. O'quvchilarning amaliy faoliyati ularning mustaqil ishslashlarida yuzaga chiqadi.

Mustaqil ish. Mustaqil ishlar kollektiv, guruh va individual ish shakkllarida amalga oshiriladi. Mustaqil ishlarga o'quvchilar eksperiment (laboratoriya tajribalari, amaliy mashg'ulotlar), kimyoviy masalalar yechish, turli mashqlar bajarish, darslik o'quv qo'llanmalari bilan ishslash, ijobjiy topshiriqlar (biror moddani olish qurilmalarini yasash, plakat va jadvallar chizish, kristall panjara modellarini tuzish, referat yozish) kiradi.

Mustaqil ish yangi bilimlar, ko'nikma, malakalar va fan metodlarini egallashning eng muqobil yo'li hisoblandi.

Mustaqil ishslash o'qitish jarayonining asosi bo'lib, ta'lim tarbiya berish, o'quvchilarni rivojlantirish funksiyalarini bajaradi. Mustaqil ishning ta'lim beruvchi funksiyasi kimyo fanining quyidagi metodlarini eallahsha amalga oshadi: eksperimental ko'nikmalar, darslik bilan ishslash ko'nikmasi, hisoblashlar olib borish, kimyo tilidan foydalanish va boshqalar. Mustaqil ish mehnatsevarlik, qiyinchiliklarni engib o'tish, o'rtoqlik o'zaro yordami, o'z kuchiga ishonish kabi tarbiya elementlarini o'quvchilarda shakllantiradi. Rivojlantiruvchi funksiyasi o'quvchilarda mustaqil ishslashning rivojlanib borishida, intellektual ko'nikmalar (o'zini nazorat qilish, asosiyalarini ajrata bilih, kuzatuvchanlik) hosil bo'lishida namoyon bo'ladi.

Mustaqil ish jamoa, guruh, individual holda ishslash tashkiliy shakkllarida amalga oshiriladi. Masalan, sinfdagi hao bir o'qituvchi o'quvchidan aniq topshiriq oladi. (individual ishslash). Topshiriqlarni o'qituvchi ishtirokida sinsda muhokama qilinadi (kollektiv shakl). Mustaqil ishlar o'qituvchi guruhlariga yoki sinsda ham berilishi mumkin. Har bir o'quvchi o'z vazifasini bajaradi, umumiyl natijalar sinsiga tegishli

hisoblanadi. Laboratoriya mashg'ulotlar multimediya qurilmalari bilan jihozlangan, laboratoriya uskunalar bilan jihozlangan auditoriyada har bir akadem guruhechalarga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, kollekvium mashg'ulotlarida «Aqliy hujum», «Pinbord», «Loyixalash», «Klaster», «Keys-stadi» tehnologiyasi ishlataladi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimediya qurilmalari yordamida uzatiladi.

1-LABORATORIYA MASHG'ULOTI

MAVZU: KIMYO LABORATORIYASIDA XAVFSIZLIK TEXNIKASI

Reja:

1. Kimyo laboratoriyasida xavfsizlik texnikasiqoidalalarini o'rgatish.
2. Kimyo laboratoriyasida xavfsizlik texnikasi qoidalariiga amal qilishni o'rgatish
3. Xulosa yozish
4. *Darsning maqsadi: laboratoriya mashg'uloti ning mavzusi bo'yicha yangi ilmiy bilimlar berish. Innovatsion texnologiyalarni dars jarayoniga tadbiq qilish*
Laboratoriya mashg'ulotining vazifasi: mavzu bo'yicha umumiyl tushuncha berish. Kimyo laboratoriya xonasida xavfsizlik qoidalalarini va unga amal qilishni o'rgatish

O'quv faoliyatining natijasi: Talabalar tanlangan mavzu bo'yicha yetarlicha malaka hosil qiladilar. Masalan, xavfsizlik texnika qoidalalarini har bir bandini mazmunini to'g'ri tushunib yetadilar va mana shu qoidalarga to'liq rioya qilishga o'rganadilar. Darsni talabalarga umumiyl o'rta ta'lif maktabidagi 7-sinfning taqvim mavzu rejasida 3-darsning mavzusi "Kimyo xonasida jihozlar va reaktivlar bilan ishlashda xavfsizlik texnika qoidalari" mavzusini o'tish misolida tushuntiraman. Avvalo darsning maqsadlarini aniqlashni o'rgataman,ya'ni;

Darsning maqsadi: a) Ta'limi maqsad. Mavzu bo'yicha o'quvchilarga yangi ilmiy bilimlar berish,ya'ni:kimyo laboratoriya xonasida xavfsizlik qoidalalarini va unga amal qilishni o'rgatishni o'rgatish.

b) Tarbiyaviy maqsad. Talabalarni Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash. Nafosat tarbiyasini berish.

v) Rivojlantiruvchi maqsad. Oldingi darslardan olingan bilimlarni rivojlantirish. Odob-axloq qoidalalarini o'rgatish.

Darsda qo'llaniladigan metodlar: tushuntirish, pinboard, klaster, ko'rgazmali muammoli, savol-javob.

Darsning mazmuni: o'quvchilarga "Kimyo laboratoriya xonasida xavfsizlik qoidalalarini va unga amal qilishni o'rgatish.

Darsning jihizi va materiallari: doska, bo'r, 7-sinf kimyo darsligi, kimyoviy jihoz va reaktivlar.

Darsning maqsadini amalga oshirishga intilish: Ba'zi kimyo reaktivlar-kislotalar, ishqorlarni xossalari aytilish iloji boricha ularning o'yuvchi xossaga ega ekanligini isbotlab ko'rsatish. Shu asosida kimyo laboratoriya xonasida xalat kiyish talab etilishuni sababini tushuntirish.

Darsning blok sxemasi (darsda vaqt taqsimoti).

Darsning qismi:	Ajratilgan vaqt
1. Tashkiliy qism	2 daqiqa
2. O'tgan mavzuni so'rash	5 daqiqa
3. Yangi mavzuni e'loni va bayoni	20 daqiqa
4. Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5. O'quvchilar bilimini baholash	5 daqiqa
6. Uyga vazifa topshirib darsni yakunlash	3 daqiqa

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism-salomlashish, davomatni aniqlash, mashg'ulot xonasi va talabalarni darsga tayyorligini nazorat qilish.

II. O'tgan mavzuva uyga vazifani aniqlash. Savol-jabvob asosida o'tgan mavzu so'raladi

III. Yangi mavzuni e'loni va bayoni

Avvalo 7-sinf kimyo darslik kitobidagi texnika xavfsizlik qoidalaridan bir nechtasini aylib misollar keltiramiz. Masalan, I. Laboratoriya ishini bajarish tartibini to'liq tushunib yetmaguncha ishni boshlamaslik kerak:

2. Noma'lum moddani hidlab ko'rish, ta'mini ko'rish teriga tegizib ko'rish qat'iyan taqiqlanadi;
3. Iloji boricha tajribalarni mo'rilii shkafda bajarisg.
4. Kislota, ishqor eritmalarini qizdirishdan avval maxsus ko'zoynak taqing.
5. Kislota eritmasini tayyorlshda kislotaga suv qo'shish mumkin emas, sababi suv kislotaga aralashib ulgurmasidanoq kislota sachrab atrofdagilarni kuydiradi. Aksincha suvg'a shisha tayoqchaga tegizib, aralashtirib turgan holda kislota quylindi. Barcha kimyoviy laboratoriyalarda shamollatish xonalarning yuqorisida gigienik ish sharoitlarining saqlanishini to'liq ta'minlashi kerak. Shamollatish moslamasi, albatta, katta va kichik laboratoriyalarda farqlanadi. Katta laboratoriyalarda u loyihalash va qurilish ishlarining katta mustaqil bo'limimi ifodalaydi, ammo kichik laboratoriyalarda, afsuski, shamollatishga ba'zan yetarlicha e'tibor berilmaydi. Shu bilan birga, shamollatish moslamasining barcha holatlari uchun yuqorida ko'rsatilgan NSP 101 51 standarti talablariga rioya qilish majburiyidir, ulardan biz eslatma uchun quyidagi paragraflarni keltiramiz

Laboratoriyalarni maxsus mo'ljallangan binoda joylashtirish barcha ish xonalarining to'g'ri sanitariya holatini yetarli darajada ta'minlaydi. Bunday holda, asosiy talablar xonani joylashtirish, uning yoritilishi, jihozlarini joylashtirish, ventilyatsiya bilan butun laboratoriya bo'yicha amalga oshiriladi. Bundan tashqari, u laboratoriya asbob-uskunalarini va asboblarini to'g'ri joylashtirish, demak, ulardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi. Laboratoriyanı loyihalash uchun asosiy talablar laboratoriya xonasiga yetarlicha katta bo'lishi kerak, u yaxshi shamollatish va samarali dudbo'ron(ventilyator) bilan jihozlangan bo'lishi kerak, shunda ishchilarning sog'lig'i bug'lardan, ayniqsa gidroforik va oltingugurt bug'laridan zarar ko'tinaydi.

O'ichov vositalarini meterologik ta'mirlash bo'yicha kalibrlash va ta'mirlash ishlari o'ziga xos texnologik xususiyatlarga ega bo'lganligi sababli, o'Ichash uskunalar uchun statsionar laboratoriylar binolariga alohida talablar qo'yiladi, ular alohida binoda yoki umumiy binolarning izolyatsiya qilingan xonalarida, manbalardan uzoqda joylashgan bo'lishi kerak.

Tebranishlar, shovqin, elektromagnit shovqin va boshqa muhim tashqi ta'sir qiluvchi omillar. Binolar yorug', toza va quruq bo'lishi kerak, sanoat changlari, korroziy bug'lari va gazlari bo'lgan boshqa ishlab chiqarish joylaridan ajratilgan bo'lishi kerak. Oddiy haroratdan (20° C) og'ish + 2° C dan oshmasligi kerak bo'lgan hollarda, binolarda haroratni nazorat qilish moslamalarini o'rnatish tavsiya etiladi. O'ichov asboblari sertifikatlangan va tasdiqlangan xonalarda harorat, namlik, havo bosimini nazorat qilish uchun o'Ichash asboblarini o'rnatish kerak.

Sement pollari o'choq bo'limida, shlakli omborda, transformator va konvertor podstansiylarida, kontakt bo'limida va korroziyaga qarshi texda qo'llaniladi. Kislotalarga chidamli pollar yig'ish bo'limiga, minora, kislota va ammiakli suv omborlariga o'rnatiladi. Moddalarni toplash moslamasida pol beton, yopiq pirit omborida esa beton-gil. Ochiq pirit omborida tuproqli yerda o'rnatilgan. Kompressorlar, puflagichlar, asbob-uskunalar, kiyinish xonalar, hammom, dush, laboratoriya va ovqat xonalarida pollar Metlax plitkalaridan yotqizilgan bo'lishi kerak.

Tozaligi yuqori bo'lgan moddalarni tahlil qilish uchun laboratoriyalarga qo'yiladigan quyidagi umumiy talablarni aytib o'tish mumkin. Changdan yaxshilab tozalangan konditsionerli havo laboratoriya binolariga etkazib berilishi kerak. Ikki yoki hatto uch bosqichli tozalash maqsadga muvosiqdir. Ushbu xonalarning atmosfera bilan derazalar orqali aloqasi istisno qilinadi. Yo'lak bilan bog'liq laboratoriylarda ortiqcha havo bosimi bo'lishi kerak, va koridorlarda - egzoz qurilmalari. Tutunli shkaflarning ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik uchun ularning kanallari umumiy shamollatish tizimiga ulanmasligi kerak.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. Talabalarning har biri 3 tadan xavfsizlik qoidasini yozadilar va tushuntiradilar.

V. Talabalar bilimini baholash.

Nazorat uchun savollar.

1. Kimyo xonasida jihozlar bilan ishlashda xavfsizlik texnikasi qoidalarni tushuntirig.
 2. Kimyo xonasida reaktivlar bilan ishlashda xavfsizlik texnikasi qoidalarni tushuntirig.
 3. Qo'lingizdan termometr tushib sinib ketdi. Bu paytda siz nima qilgan bo'lardingiz?
 4. Laboratoriya darsida o'rtog'ingizni qo'liga kislota to'kilib ketdi. Siz qanday birinchi yordam bergen bo'lardingiz?
 5. Laboratoriya xonasida mo'rili shkaf ishlamay qolib, o'rtog'ingiz gazdan zaharlandi. Siz qanday birinchi yordam bergen bo'lardingiz?
- VI. Uyga vazifa berib darsni yakunish:** uyga vazifa o'tilgan mavzu bo'yicha xulosa yozib, o'rganib kelish qoidalarni yod olish.

2-LABORATORIYA MASHG'ULOTI.

MAVZU: O'QUV REJA VA DASTURLAR TAHLILI

Reja:

1. Kimyo fani o'quv rejasining tahlilini o'rgatish.
2. Kimyo fanidan o'quv dasturining tahlilini o'rgatish.
3. Xulosa yozish.

Darsning maqsadi: laboratoriya mashg'uloti ning mavzusi bo'yicha yangi ilmiy bilimlar berish, o'quv reja va fan dasturining tahlilini o'rgatish. Innovatsion texnologiyalarni dars jarayoniga tadbiq qilish.

Laboratoriya mashg'ulotining vazifasi: mavzu bo'yicha umumiyl tushuncha berish, ya'ni fan dasturi va o'quv reja ketma-ketlik asosida tuzilishini tushuntirish. *O'quv faoliyatining natijasi:* Talabalar tanlangan mavzu bo'yicha yetarlicha malaka hosil qiladilar. Masalan, o'quv dasturi asosida o'quv reja tuzish lozimligini mazmunini to'g'ri tushunib yetadilar va mana shu qoidalarga to'liq rioya qilishga o'rganadilar.

Laboratoriya mashg'uloti mavzusining mazmuni:

O'quv dasturi har bir sinfda o'tilishi lozim bo'lgan barcha mavzularni o'z ichiga olgan bo'lib, unda beriladigan mavzular oddiyidan murakkabga tomon yonaltirilgan bo'ladi va har bir mavzu bir-birini to'ldiruvchi xarakterga ega. Masalan, 7-sinfda atom, element, kimyoviy formula, indeks, koefitsiyent kabi dastlabki kimyoviy tushunchalarni o'z ichiga olgan mavzular o'tilganidan keyin kimyoviy reaksiya turlari kabi mavzular o'tiladi. Qaysiki, bu mavzularda ham yuqorida aytib o'tilgan

kimyoviy tushunchalar ishlatalishi bilan birga bu mavzu o'tgan mavzuni do'ldiruvchi xarakterni namoyon qiladi. O'quvchi dastlabki kimyoviy tushunchalarni o'rganganidan keyin kimyoviy reaksiya tennglamalarini yoza oladi. Xuddi shunday 10-sinflarda dastlab uglevodorodlarning sinflari, to'yingan uglevodorodlar va ularning fizik kimyoviy xossalarni yorituvchi mavzular o'tilganidan keyin to'yinmagan uglevodorodlarga xos mavzular o'tiladi. Mana shundan ham ko'rinish turibdiki, o'quv dasturida oddiydan murakkablik tomonga ketma-ketlik prinsipi asosida mavzular joylashtiriladi. Hamisha o'quv dasturi asosida o'quv reja tuziladi. O'qituvchi maktabning va o'zining imkoniyatidan kelib chiqib, o'quv reasidagi mavzular va ularga ajratilgan soatlariga ma'lum miqdorda o'zgartirish kiritishi mumkin (ammo o'g'uv dasturiga emas). Lekin shu ham maktabning uslubiy kengashining yig'ilishida ko'rib chiqilganidan keyin uslubiy kengashning xulosasiga asosan o'zgartirish kiritish mumkin. Masalan, umumiyligi o'rta ta'lim maktabidagi 7-sinfning taqvimi mavzu rejasida berilgan 11-darsning mavzusi - 4-laboratoriya ishi. Oddiy va murakkab moddalar mavzusiga 12-mavzu-moddalarning agregat holati mavzusini o'tib 13-dars mavzusu kimyoviy formula va undan kelib chiqadigan xulosalar. Valentlik. Indeks haqida tushuncha mavzusini 12-darsa o'tib 13-darsda kimyoviy tenglamalar tuzish va uni tenglashtirishni o'quvchilarga o'rgatilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki o'quvchi kimyoviy reaksiya tenglamasini tuzish va uni tenglashtirishni o'rganmasdan turib, kimyoviy reaksiya turlari mavzusini o'rganishi qiyin. Mana ko'rinish turibdiki, o'quv dasturi o'zgargani yo'q faqat o'quv rejaga o'zgartirish kiritildi. O'quv rejasiga o'zgartirish kiritishda shu fanning yillik taqvimi mavzu rejasiga ajratilgan soat o'zgarmasligi shart. Masalan, umumiyligi o'rta ta'lim maktabidagi 7-11-sinflarining taqvimi mavzu rejasida bir yilda 68 soat dars ajratilgan. Har bir mavzuga bir soat ajratiladi. Barcha oqituvchilar o'quv yilining oxirida o'quv rejasini bajarilishi bo'yicha uslubiy kengash rahbariga hisobot topshiradi. Uslubiy kengash rahbari esa uslubiy kengashning barcha a'zolarini hisoboti asosida uslubiy kengashga kiritilgan barcha fanlarning hisobotini tayyorlab o'qub ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari (zauch)ga hisobot topshiradi. Masala, maktabda "Tabiiy fanlar" uslubiy kengashiga biologiya, fizika, kimyo fanlari kiritiladi. Agar ma'lum bir mavzular bayram, dam olish kunlari (bunda yakshanba kuni nazarda tutilmaydi)ga to'g'ri kelib qolgan darslarning mavzulari sinfning elektron jurnaliga tig'izlashtirilgan holda-drop(/) bilan yoziladi va shu usul bilan yillik taqvimi rejada ko'rsatilgan barcha mavzular o'tiladi. Lekin tig'izlashtirilgan mavzuni tashlab ketib undan keying mavzuga o'tish samara bermaydi. Chunki yuqorida aytilganidek o'quv rejasidagi har bir mavzular bir-birini to'ldiruvchi xususiyatda ketma-ketlik asosida berilgan.

O'quv rejasi-o'quv yurtlarida o'qitiladigan fan, ularning bo'limlari, o'qitilish tartibi hamda har bir fanning yil davomida o'qitilishi, ularning o'quv yili va haftasida qancha miqdorda o'tilishi kerakligini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat. O'zbekistonda o'quv rejasi tegishli vazirliklar tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi. Bir tipdag'i o'quv yurtlari uchun o'quv rejasi yagona va majburiydir. Shu bilan birga, har bir o'quv yurti o'quv rejasini belgilangan miqdorda o'zgartirishi mumkin. Shuningdek, mamlakatdagi tayanch oliy o'quv yurtlari uchun o'ziga xos o'quv rejasiga ega bo'lishga ruxsat etilgan. O'quv rejasining umumiy va majburiyligi ta'lif tizimi bosqichlarining uzlusizligini, jamiyatning barcha a'zolariga ilm olishning bir xil imkoniyatlarini ta'minlaydi.

O'z Rda ta'lif tizimi barkamol shaxsn shakllantirishga qaratilganligi uchun ham o'quv rejasida ta'lifning insonparvarlashuviga alohida e'tibor berilgan. O'quv yurtlarining o'quv rejasi muayyan qismlardan iborat bo'lib, ularda o'quv yurti o'quvchisi, talabasi yoki tinglochchisida shakllantirilishi lozim bo'lgan ilmiy, ma'naviy, kasbiy sifatlar hamda amaliy ko'nikma va malakalar hisobga olingan.

O'quv rejasi - dars yoki kurs doirasida o'quv dasturlarini (o'qitish bloklarini) maqsadli, muntazam ravishda tashkil qilish uchun ishlatalidigan atama. Boshqacha qilib aytganda, bu o'qituvchilarga ta'lif berishni rejalashtirishi mumkin. O'qituvchilar o'quv dasturini ishlab chiqishda, nima qilish kerakligini aniqlaydi, kim buni amalga oshiradi.

O'quv rejasining maqsadi

O'qituvchilar muayyan maqsadga muvofiq o'quv rejasini ishlab chiqadilar. Eng asosiysi, talabalarni o'rghanishni takomillashtirishdan iborat, ammo o'quv dasturlarini ishlab chiqish uchun boshqa sabablar ham mavjud. Masalan, boshlang'ich va o'rta muktab o'quvchilarining o'rta maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan o'quv rejasini nazarda tutgan holda, o'quv maqsadlari birlashtirilgan va bir bosqichdan keyingi bosqichga o'tishini ta'minlashga yordam beradi. Agar o'rta maktab o'quv dasturi o'rta muktabda kelajakda o'rganiladigan boshlang'ich muktabni oldindan bilmagan holda yaratilgan bo'lsa, u o'quvchilar uchun haqiqiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Mavzuga asoslangan o'quv rejalarini ishlab chiqish

Mavzuga asoslangan o'quv rejasi muayyan mavzudagi yoki intizom atrofida aylanadi. Misol uchun, mavzuga asoslangan o'quv dasturlari kimyo yoki biologiya haqida o'yashi mumkin. Ushbu o'quv rejasi dizayni insonga emas, balki mavzuga qaratilgan. Mavzuga asoslangan o'quv rejasi odatda qanday o'rganilishi kerakligi va qanday o'rganilishi kerakligi atrofida aylanadi. Asosiy o'quv dasturi mavzuga asoslangan dizaynning namunasidir. Ushbu o'quv dasturi standartlashtirilgan.

O'qituvchilarga o'rganilishi kerak bo'lgan narsalaming aniq ro'yxati berilgan, shuningdek, ushbu narsalar qanday o'rganilishi kerakligi haqida aniq misollar keltiriladi. Bundan tashqari, kollejlarining katta sinflarida mavzu bo'yicha markazlashtirilgan dizaynni topishingiz mumkin, bu yerda o'qituvchilar muayyan mavzudagi yoki intizomga alohida c'tibor qaratadigan tendentsiyalarga egalar.

Mavzuga asoslangan o'quv rejasining asosiy kamchiliklari shundaki, u talabalarning markazida emas. O'quv rejasining bunday shakli o'quvchilarni o'qitish uslubi kabi boshqa o'quv rejalarini bilan taqqoslaganda individual talabalar va o'quv uslublari bilan kamroq bog'liq. Bu talabalarni jalb qilish va turtki berish bilan bog'liq muammolarga olib kelishi va hatto o'quvchilarni sinsida qoldirishga olib kelishi mumkin.

O'quv-uslubiy o'quv rejalarini yaratish

O'quvchiga mo'ljallangan o'quv rejasini o'quvchi atrofida aylanadi. Bu har bir kishining ehtiyojlarini, manfaatlarini va maqsadlarini hisobga oladi. Boshqacha aytganda, talabalar bir xil emasligini va standartlashtirilgan o'quv dasturiga bo'ysunmasligini tan oladi. Ushbu o'quv rejasini dizayni o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashga imkon yaratadi va ularning tanlov orqali ta'limini shakkantirishga imkon beradi.

O'quvchilarga mo'ljallangan o'quv dasturlarida o'quv rejalarini, mavzuga asoslangan o'quv rejasida bo'lgani kabi, qat'iy emas.

O'quvchiga asoslangan o'quv rejasini differentsiyalangan va ko'pincha talabalarga topshiriqlarni tanlash, tajriba va amaliyotlarni tanlash imkonini beradi. Bu o'quvchilarni qiziqtirishi va o'qiyotgan materiallari bilan shug'ullanishlariga yordam berishi mumkin.

O'quv rejasining bunday ko'rinishidagi kamchilik, o'qituvchiga o'qitish va har bir o'quvchining ta'lim ehtiyojlariga moslashtirilgan materiallarni topish uchun juda ko'p bosim o'tkazadi. Bu vaqt cheklowlari yoki tajriba yoki mahorat yo'qligi tufayli o'qituvchilar uchun juda qiyin bo'lishi mumkin. O'qituvchilar talaba talablari va talab qilinadigan natijalar bilan talabalarning talab va manfaatlarini muvozanatlashi qiyin bo'lishi mumkin.

Muammoni markazlashtirilgan o'quv rejalarini ishlab chiqish

O'quvchilar uchun mo'ljallangan o'quv rejalarini kabi, muammolarni aniqlashga qaratilgan o'quv rejasini ham talabalar uchun mo'ljallangan dizayn shaklidir.

Talabalarga muammolarni qanday qarashni o'rgatish va muammoni echishga qaratilgan. Bu haqiqiy o'quv usuli hisoblanadi, chunki talabalar haqiqiy hayotga ta'sir qilib, real dunyoga o'tkaziladigan ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. *O'quv dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha maslahatlar*

Quyidagi o'quv dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha maslahatlar maslahatchilarga o'quv rejasি jarayonining har bir bosqichini boshqarishga yordam beradi.

O'quv dasturlarini ishlab chiqish jarayonida mansaattor tomonlarning (ya'ni, talabalarning) ehtiyojlarini aniqlashga ishonch hosil qiling. Buni o'quvchilar bilan bog'liq ma'lumotlarni toplash va tahlil qilishni o'z ichiga oladigan tahlillar yordanida amalga oshirish mumkin. Ushbu ma'lumotlar o'quvchilarning ma'lum bir sohada yoki mahoratga ega bo'lishlari uchun nimalarni bilishlari va bilishlari kerak bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin. Shuningdek, o'quvchining hissuyg'ularini, kuchli va zaif tomonlarini ham o'z ichiga olishi mumkin.

Ta'lrim maqsadlari va natijalarining aniq ro'yxatini yaratish. Bu sizga o'quv dasturining maqsadiga e'tibor qaratishingizga va kerakli natijalarga erishish mumkin bo'lgan ko'rsatmalarni rejalashtirishga yordam beradi. O'qishning maqsadi - o'qituvchilar o'quvchilarning darsda muvaffaqiyat qozonishini istashlari. O'quv natijalari - bu o'quvchilar kursda erishgan bo'lishi kerak bo'lgan o'lchovli bilim, ko'nikma va qarashlardir.

Sizning o'quv rejangizga ta'sir qiladigan cheklovlarini aniqlang. Misol uchun, vaqtini e'tiborga olish kerak bo'lgan umumiyligi cheklov. Faqat juda ko'p soatlari, kunlar, haftalar yoki oyolar mavjud. Agar rejalashtirilgan barcha ko'rsatmalarni bajarish uchun yetarli vaqt bo'lmasa, u ta'lrim natijalariga ta'sir qiladi.

O'quv rejasini tuzishni o'ylab ko'ring (shuningdek, o'quv matritsi sifatida ham tanilgan). Diagrammalar yoki o'quv dasturlarining indekslarini beradi. Ko'rinishini tahlil qilish o'qitish tartibini belgilashda mumkin bo'lgan bo'shiqliarni, ishdan bo'shatishni yoki moslashtirishni tez va oson aniqlash uchun yaxshi usuldir. O'quv dasturlari xaritalari qog'ozda yoki maxsus maqsadlar uchun ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot yoki onlayn xizmatlar bilan yaratilishi mumkin.

Kurs davomida ishlatalishi kerak bo'lgan o'qitish usullarini aniqlab oling va o'quvchilarning ta'lrim uslublari bilan qanday ishlashlarini ko'rib chiqing. Ta'lrim usullari o'quv dasturiga mos kelmasa, o'quv rejasini yoki o'quv rejasini mos ravishda o'zgartirish kerak bo'ladi.

O'quvchilarni, o'qituvchilarni va o'quv dasturlarini baholash uchun foydalilanligidan baholash usullarini yaratish. Ko'rib, o'quv rejasining ishlab chiqilgan yoki ishlamayotganligini aniqlashga yordam beradi. Ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan narsalar misollari o'quv dasturining kuchli va zaif tomonlari va o'quv natijalari bilan bog'liq bo'lgan muvaffaqiyat darajalarini o'z ichiga oladi. Eng samarali baholash davom etadi.



O'quv dasturining bir bosqichli jarayon emasligini unutmang; doimiy takomillashtirish zaruratdir. O'quv dasturining rejasি iuntazam ravishda baholanishi va baholash ma'lumotlariga asoslangan holda takomillashtirilishi kerak. Bu kurs oxirida ta'lim natijalari yoki muayyan darajadagi malakaga ega bo'lishini ta'minlash uchun kurs orqali loyiha qismini o'zgartirishni o'z ichiga olishi mumkin.

Nazorat uchun savbollar:

1. Umumiy o'rta ta'lim muktab kimyo fani o'quv dasturi haqida nimalarni bilasiz? Birorta sifsnинг o'quv dasturi misolida tushuntiring.
2. Umumiy o'rta ta'lim muktab kimyo fani o'quv rejasи haqida nimalarni bilasiz? Birorta sifsnинг o'quv rejasи misolida tushuntiring.
3. Umumiy o'rta ta'lim muktab kimyo fani o'quv dasturi ning o'quv rejadan qanday farq qiladi?
4. Umumiy o'rta ta'lim muktab kimyo fani o'quv rejasini bajarish uchun siz qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?

3-LABORATORIYA MASHG'ULOTI.

DASTLABKI KIMYOVIY TUSHUNCHALAR VA QONUNLAR MAVZUSI BO'YICHA TAJRIBALAR O'TKAZISH METODIKASI

Reja:

1. Dastlabki kimyoviy tushunchalar va qonunlar mavzusi bo'yicha tajribalar o'tkazish metodikasi.
2. Xulosa yozish.

Darsning maqsadi: laboratoriya mashg'uloti bo'yicha yangi ilmiy bilimlar berish. Innovation texnologiyalarni dars jarayoniga tadbiq qilish

Laboratoriya mashg'ulotining vazifasi: mavzu bo'yicha umumiy tushuncha berish. Har bir darsda o'tiladigan mavzu bo'yicha darsning maqsadini qo'yish malakasini hosil qilish.

O'quv faoliyatining natijasi: Talabalar tanlangan mavzu bo'yicha yetarlicha malaka hosil qildilar. Masalan, dastlabki kimyoviy tushunchalar va qonunlar mavzusи bo'yicha tajribalar o'tkazish metodikasidan talabalar o'quvchilarga har bir qonunga doir tajribalarni bajarib ko'rsatishni o'rganadilar.

Darsni talabalarga umumiy o'rta ta'lim muktabidagi 8-sifsnинг taqvim mavzu rejasida 1-darsning mavzusi "Dastlabki kimyoviy tushunchalar va qonunlar "mavzusini o'tish misolida tushuntiraman. Avvalo darsning maqsadlarini aniqlashni o'rgataman, ya'ni;

Darsning maqsadi: a) Ta'limiy maqsad. Mavzu bo'yicha o'quvchilarga yangi ilmiy bilimlar berish,

b) Tarbiyaviy maqsad. O'quvchilarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash. Nafosat tarbiyasini berish.

v) Rivojlantiruvchi maqsad. Oldingi darslardan olingen bilimlarni rivojlantirish.

Darsda qo'llaniladigan metodlar: tushuntirish, pinbard, krossvord, ko'rgazmali muammoli, savol-javob.

Darsning mazmoni: O'quvchilarga "Dastlabki kimyoviy tushunchalar va qonunlar" mavzusini o'rgatish.

Darsning jihizi va materiallari: doska, bo'r, 7-sinf kimyo darsligi, D.I.Mendeleyevning kimyoviy elementlar davriy jadvali.

Darsning maqsadini amalga oshirishga intilish: Dastlabki kimyoviy tushunchalar va qonunlarnidoskaga yozib tushuntirish bilan birga hayotiy misollar keltirib ko'rsatish.

Darsning blok sxemasi (darsda vaqt taqsimoti).

Darsning qismlari:	Ajratilgan vaqt
1. Tashkiliy qism	2 daqiqa
2. O'tgan mavzuni so'rash	5 daqiqa
3. Yangi mavzuni e'loni va bayoni	20 daqiqa
4. Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5. O'quvchilar bilimini baholash	5 daqiqa
6. Uyga vazifa topshirib darsni yakunlash	3 daqiqa

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism-salomlashish, davomatni aniqlash, mashg'ulot xonasi va talabalarni darsga tayyorligini nazorat qilish.

II. O'tgan mavzun va uyga vazifani aniqlash. Savol-jabvob asosida o'tgan mavzu so'raladi.

III. Yangi mavzuni e'loni va bayoni

Avvalo dastlabki kimyoviy tushunchalarni-element, atom, molekula, fizik hodisa, kimyoviy hodisa (reaksiya) kabi tushunchalarning har biriga misollar keltiramiz va har birini mohiyati tushuntiriladi. So'ngra kimyoning asosiy qonunlarini nomlarini doskaga yozamiz. Chunki dastlabki kimyoviy tushunchalar va qonunlarni o'quvchilar 7- sinfda bu mavzular bilan tanishgan.

Kimyoning asosiy qonunlari:

1.Tarkibning doimiylik qonuni 1809 yilda fransuz olimi Jon. Prust tomonidan yaratilgan bo'lib, har qanday toza modda qayerda va qanday usulda olinishidan qat'iy nazar tarkibi hamisha bir xil bo'ladi.

- Massanining saqlanish qonuni. 1748-1760-yillarda rus olimi M.V. Lomonosov yaratgan bo'lib, reaksiyaga kirishayotgan moddalarning massasi reaksiyadan keyin hosil bo'lgan moddalarning massasiga hamisha teng bo'ladi.
- Avogadro 1811 yil da inaliya olimi A. Avogadro tomonidan yaratilgan bo'lib, uning ma'nosi teng hajmdagi turli xil gazlar nijmal sharoitda tarkibida bir xil sondagi atom, molekulalarni saqlaydi. Bu qonunga faqat gazlar bo'y so'nadi.
- Davriy qonun. 1869 yilda rus olimi D.I. Mendeleyev tomonidan yaratilgan bo'lib, kimyoviy elementlarning nisbiy atom massasini davriy ravishda ortib borishi ularning fizik-kimyoviy xossalalarini davriy ravishda o'zgarishiga sabab bo'ladi.

Kimyoviy element – atomlarning muayyan turidir. Masalan, kislород atomlari kislород elementini bildiradi. Har bir kimyoviy elementning lotincha nomini bosh harfi, zarurat bo'lsa bosh harf bilan keyingi harflardan birini qo'shib yozish bilan kimyoviy elementning belgisi ifodalanadi. Masalan, H (ash)- vodorodning kimyoviy belgisi, uning lotincha Hydrogenium (suv hosil qiluvchi) nomining bosh harfi. Atomlar juda kichik zarrachalar bo'lib, ma'lum massaga ega. Masalan, vodorod atomining absolyut massasi 0,00000000000000000001674 g yoki $1,674 \cdot 10^{-24}$ g. Uglerod atomining absolyut massasi – $19,993 \cdot 10^{-24}$ g.

Atomning nisbiy massasi – ^{12}C atomining massasini $1/12$ qismidan necha marta katta ekanligini bildiradigan sondir.

^{12}C atomining $1/12$ qismining massasi $1,66057 \cdot 10^{-24}$ g. $1,66057 \cdot 10^{-24}$ g = 1 a.m.b.

Nisbiy atom massa Ar bilan ifodalanadi. Indeksdag'i «r» nisbiy (relative) degan ma'noni anglatadi.

Elementning nisbiy atom massasiga son jihatdan teng qilib grammalar bilan ifodalangan qiymat g/mol deyiladi (yoki mol deyiladi).

Bir mol har qanday modda $6,02 \cdot 10^{23}$ ta zarracha (atom, molekula, ion) tutadi.

$6,02 \cdot 10^{23}$ soni Avogadro doimiysi deyiladi.

Kimyoviy formula. Kimyoviy formula – modda tarkibini kimyoviy belgilari va (zarur bo'lsa) indekslar yordamida ifodalanishi dir. Kimyoviy formulaga qarab moddaning sifat va miqdor tarkibini bilib olish mumkin. Masalan: H_2SO_4 – sulfat kislota. H_2SO_4 – sulfat kislotaning bitta molekulasini va molekulada 2 ta vodorod, 1 ta oltingugurt va 4 ta kislород atomi mavjudligini, shuningdek, moddaning 1 molini ham bildiradi. Shuningdek, molekulani absolyut va nisbiy massasini ham topish mumkin.

Absolyut massasini topish uchun 2 ta vodorod, 1 ta oltingugurt va 4 ta kislород atomlarining haqiqiy massalari qo'shiladi. Bunday kichik sonlar ustida amallarni bajarish qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun molekulaning nisbiy massasi /Mr/ va mol miqdori hisoblab topiladi.

$$\text{Mr} (\text{H}_2\text{SO}_4) = 1 \cdot 2 + 32 + 16 \cdot 4 = 98$$

Bir mol – moddaning nisbiy molekulyar massasiga son jihatidan teng va gramm bilan ifodalangan qiymatdir. Bir mol = /12C/ uglerod izotopining 12 gramida nechta atom bo'lsa, o'shancha struktura birligi (molekula, atom, ion, elektron) tutgan moddaning miqdoridir. 12 gramm uglerodda 6,02 • 1023 ta atom bo'ladi. Modda miqdori – n harfi bilan belgilanadi va uning qiymati mollar bilan ifodalanadi. Moddaning molyar massasi – M harfi bilan belgilanib g/mol bilan ifodalanadi. Valentlik. Berilgan kimyoiy formulalardan shu modda tarkibiga kirgan elementlarning valentligini topish. Element atomlarining boshqa elementning muayyan sondagi atomlarini biriktirib olish xususiyati shu elementning valentligi deyiladi.

Valentlikni o'lchov birligi qilib vodorodning valentligi qabul qilingan.

IV.Yangi mavzuni mustahkamlash. O'quvchilar qonunlarning har biriga misollar keltirib, qonunni ma'nosini tushuntiradilar va har bir qonunni qachon kim tomonidan yaratilganini aytib, misollar keltiradi.

V. O'quvchilar bilimini baholash

Nazorat uchun savollar

1. Dastlabki kimyoiy tushunchalarni sanab beriting.
2. Valentlik so'zining ma'nosi nima?
3. H_2O_2 misolida oksidlanish darajasi va valentlikni tushuntirib bering.
4. Davriy qonun tabiatning asosiy qonunlaridan biri deb ataladi. Siz shu iborani qanday tushunasiz?
5. Avogadro qonuniga faqat gazlar bo'y so'nadi. Nima uchun suyuqliklar va qattiq moddalar bo'ysunmaydi?

4-LABORATORIYA MASHG'ULOTI.

MAVZU: TANLANGAN MAVZUDAN MAQSAD VA VAZIFALARINI BELGILASH

Reja:

- 1.Tanlangan mavzuga mos dars maqsadini aniqlash
- 2.Hisobot yozish

Darsning maqsadi: laboratoriya mashg'uloti bo'yicha yangi ilmiy bilimlar berish. Innovatsion texnologiyalarni dars jarayoniga tadbiq qilish

Laboratoriya mashg'ulotining vazifasi: mavzu bo'yicha umumiy tushuncha berish. Har bir darsda o'tiladigan mavzu bo'yicha darsning maqsadini qo'yish malakasini hosil qilish.

O'quv faoliyatining natijasi: talabalar tanlangan mavzu bo'yicha darsga maqsad qo'yish malakasini hosil qiladilar. Masalan, kimyoviy formula va undan kelib chiqadigan xulosalar. Valentlik, indeks haqida tushuncha mavzusi bo'yicha darsni talabalarga umumiy o'rta ta'lif muktabidagi 7-sinflarda "Kimyoviy formula va undan kelib chiqadigan xulosalar. Valentlik. Indeks" mavzusini o'tish misolida tushuntiramiz. Avvalo darsning maqsadlarini aniqlashni o'rganamiz, ya'ni:

Darsning maqsadi: a) Ta'limiy maqsad. Mavzu bo'yicha o'quvchilarga yangi ilmiy bilimlar berish;

b) Tarbiyaviy maqsad. O'quvchilarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash. Nafosat tarbiyasini berish.

v) Rivojlantiruvchi maqsad. Oldingi darslardan olingan bilimlarni rivojlantirish.

Darsda qo'llaniladigan metodlar: Tushuntirish, pinboard, krossvord, ko'rgazmali muammoli, savol-javob.

Darsning mazmuni: o'quvchilarga kimyoviy formula va undan kelib chiqadigan xulosalar. "Valentlik. Indeks" mavzusini o'rgatish.

Darsning jihizi va materiallari: doska, bo'r, 7-sinf kimyo darsligi, D.I. Mendeleyevning kimyoviy elementlar davriy jadvali, plastilen, gugurt cho'pi.

Darsning maqsadini amalga oshirishga intilish: kimyoviy formula va undan kelib chiqadigan xulosalar. Valentlik. Indeksni doskaga yozib tushuntirish bilan birga plastilen va gugurt cho'pidan foydalanimizga ba'zi moddalarni molekulyar modelini yasab ko'rsatish.

Darsning blok sxemasi (darsda vaqt taqsimoti).

Darsning qismlari:	Ajratilgan vaqt
1. Tashkiliy qism	2 daqiqa
2. O'tganmavzuni so'rash	5 daqiqa
3. Yangi mavzuni e'loni va bayoni	20 daqiqa
4. Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5. O'quvchilar bilimini baholash	5 daqiqa
6. Uyga vazifa topshirib darsni yakunlash	3 daqiqa

Avvalo kimyoviy formulani kitobda berilgan ta'rifini yozdiraman,ya'ni;kimyoviy formula-modda tarkibini kimyoviy belgilari zarur bo'lsa indekslar yordamida ifodalanishidir.Kimyoviy formula modda qanday elementlardan tashkil topganligini(sifat tarkibi):moddaning bitta molekulasi tarkibiga har qaysi elementlarning nechtadan atomi kirishi(miqdor tarkibi);moddaning bitta molekulasi ni


bildiradi. Masalan, suv molekulasi 2ta vodorod va bitta kislород atomidan tashkil topgan bo'lib, uning formulasi H_2O shaklida ifodalanadi. Suvning molekulyar formulasidagi vodorodning kimyoviy belgisini pastki o'ng tomonida turgan 2raqami indeks deb atalib, suvning bir molekulasi tarkibida 2 atom vodorod borligini bildiradi. Kislород atomiga indeks qo'yilmagan. Moddaning kimyoviy formulasida indeksni yo'ligi shu moddaning tarkibida aynan shu element atomidan bitta borligini bildiradi. Kimyoviy belgi yoki formula oldida turgan kata raqam koeffitsiyent deb atalib, u moddaning molekulalarini sonini ko'rsatadi. Masalan, $2N$ -ikkita azot atomi 2 raqami -koeffitsiyent bo'lib hisoblanadi.

$2HNO_3$ -nitrat kislotaning ikkita molekulasi. Uning har bir molekulasing tarkibida 1ta vodorod, 1ta azot va 3ta kislород atomi bo'ladi.

$2N_2$ -azotning ikkita molekulasi-4ta atomi. So'ngra o'quvchilarga valentlik qoidasini tushuntirishni boshlaymiz. Valentlik deb element atomining boshqa elementlar atomlari aniq sonini biriktirib olish imkoniyatiga aytildi. Valentlik lotincha "Valens" so'zidan olingan bo'lib, "kuchi bor" degan ma'noni bildiradi. Endi o'quvchilarga molekulasi 2 ta atomdan iborat bo'lgan gazlarning kimyoviy formulasini yozishni o'rgatamiz, ya'ni;



Shu yerda indeks -atomlar sonini ko'rsatishini yana bir bor aytib, doskaga formulasini yozgan moddalarimizning molekulyar modelini plastilen va gururt cho'pidan foydalaniб yasab ko'rsatilsa, o'quvchilar mana shu modda molekulasini hosil qilishda atomlar o'zaro qanday tartibda birikkanligini tasavvur qiladilar, ya'ni;



So'ngra molekulasi 2 ta element atomidan tashkil topgan murakkab moddalarning kimyoviy formulasini yozib va bu moddalarning molekulyar modelini yasab ko'rsatamiz, ya'ni; $HClH-Cl$ yoki H_2O $H-O-H$, $CaCl_2$ $Cl-Ca-Cl$, Fe_2O_3



Berilgan formuladan HCl -vodorod xloridning tarkibida bitta atom vodorod va bitta atom xlor borligi ko'rinish turibdi. Demak, bu moddani tashkil etgan vodorod va xlor atomlari bir valentli ekan degan xulosa kelib chiqadi. H_2O suv molekulasida esa 2ta atom vodorod va bir atom kislород bo'lib, bunda vodorod bir valentli, kislород esa ikki valentli, Fe_2O_3 temir(III)-oksidining tarkibida esa temir uch valentli, kislород ikki valentli ekanligi ko'rinish turibdi..

Endi molekulasi uchta element atomlaridan tashkil topgan HNO_3 , H_2SO_4 , H_3PO_4 kabi moddalarning kimyoviy formularini tuzishni o'rgatamiz. Buning uchun HNO_3 -nitrat kislotaning kimyoviy formulasidan ko'rinish turibdiki, uning tarkibidagi azot atomi markaziy atomdir. Endi markaziy atom-azotning valentligini topishni

o'rgatamiz. Buning uchun HNO_3 -nitrat kislotaning tarkibidagi kislороднинг индекси, ya'ni 3 sonini uning valentligi 2 ga ko'paytiramiz ($3 \times 2 = 6$) hosil bo'lgan yig'indidan 1 ni ya'ni vodorodning atomining sonini ayiramiz ($6 - 1 = 5$). Demak, HNO_3 -nitrat kislotaning tarkibidagi azot besh valentli ekan. Uning tuzilish formulasini yozib, shu asosida plastilenden molekulyar modelini yasab ko'rsatamiz. Xuddi shu tartibda H_3PO_4 -ortofosfat kislota tarkibidagi markaziy atom-fosforning valentligini topib ko'rsatamiz, ya'ni: H_3PO_4 -ortofosfat kislota tarkibidagi kislороднинг индексини ya'ni uning valentligiga ko'paytiramiz ($4 \times 2 = 8$), hosil bo'lgan yig'indidan vodorodning indeksini ayiramiz ($8 - 3 = 5$). Demak, H_3PO_4 -ortofosfat kislota tarkibidagi markaziy atomfosfor atomi besh valentli ekan. Shundan keyin yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida NaCl , H_2S , H_2CO_3 kabi moddalarning kimyoviy formulalarini tuzishni xohlovchi o'quvchilarning doskada yozdirish orqali o'rgatiladi. O'quvchilar doskada moddalarning kimyoviy formulalarini yozganidan keyin uysa vazifa sifatida mavzuni o'qib, yana bir necha moddalarning kimyoviy formulasini yozib kelishni topshiramiz.

Taklif: 4 ta 7-sinfning 2 tasida shu mavzuni tushuntirish va savol-javob usuli bilan o'ting. Qolgan 2 ta sinfga esa plastilenden moddalarning molekuryar modelini yasab ko'rsating. O'z navbatida o'quvchilarning o'zlariga ham mana shunday modellar yasashlarini taklif qiling.

O'quvchilar o'z qo'llari bilan yasagan moddalarning struktura formulasini ham doskada tez va to'g'ri yozishni o'rgandilar. Shu bilan birga bir necha moddalarning molekulyar modeli rasmlarini ko'rsatib shu moddalarning kimyoviy formulasini yozishni ham taklif qiling. So'ngra o'quvchilar bilimini baholab, darsni yakunlaymiz.

Hisobot yozish

Darsga qo'yiladigan maqsadlar:

Nazorat uchun savollar:

1. Kimyoviy bog'lanish va uning turlari mavzu bo'yicha darsning ta'limiyligi maqsadini ayting.
2. Davriy qonun va davriy jadval mavzusi bo'yicha siz o'tadigan darsningizga qanday tarbiyaviy maqsad qo'yasiz?
3. Sikloparafinlar mavzusida darsning rivojlantiruvchi maqsadini ayting.

5-LABORATORIYA MASHG'ULOTI, TARBIYA METODLARI BO'YICHA ESSE YOZISH

Reja:

1. Tarbiya metodlari haqida umumiyl tushuncha
2. Dars jarayonida tarbiya metodini qo'llanilishining samaradorligi
3. Xulosa yozish

Darsning maqsadi: laboratoriya mashg'uloti mavzusi bo'yicha yangi ilmiy bilimlar berish. Innavatsion texnologiyalarni dars jarayoniga tadbiq qilish

Laboratoriya mashg'ulotining vazifasi: mavzu bo'yicha umumiyl tushuncha berish. Talabalarga har bir darsda o'tiladigan mavzu bo'yicha tarbiya metodlari va va ularni qo'llab dars o'tishni o'rgatish.

O'quv faoliyatining natijasi: talabalar tanlangan mavzu bo'yicha yetarlicha malaka hosil qiladilar. Laboratoriya mashg'ulotining mavzusi bo'yicha esse yozishni o'rganadilar.

Darsning mazmuni: laboratoriya mashg'ulotlarida darsning tarbiyaviy maqsadini yoritishni o'rgatish muhimdir. Mavzudan kelib chiqqan holda uning o'quvchilar dunyoqarashiga ta'sirini bilish va axloqiy normalarni singdirish talab etiladi.

Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash- O'zbekiston qazilma boyliklari, kimyo sanoati va o'zbek olimlarining yutuqlari haqida gapirish; Baynalminal tarbiya chet el olimlarining qo'shgan xissalari haqida gapirish, tartiblilikka, ozodalilikka o'rgatish-mehnat tarbiyasini, guruhlarda ishlash orqali kommunikativlikka, bir birini xurmat qilishga, nafosat tarbiyani, ekologik tarbiyani amalga oshirish ko'zda tutiladi.

6-LABORATORIYA.

MAVZU: KIMYO O'QITISHDA O'QUVCHILAR BILIMINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Reja:

1. Kimyo o'qitishda o'quvchilar bilimini rivojlantirish.
2. O'quvchilar bilimi baholashda asoslab baho qo'yish va rag'batlantirish
3. Xulosa yozish.

Darsning maqsadi: laboratoriya mashg'uloti bo'yicha yangi ilmiy bilimlar berish. Talabalarga o'quvchilar blaming o'z vaqtida adolatli baholashni muhim ekanligini tushuntirish. Innavatsion texnologiyalarni dars jarayoniga tadbiq qilish.

Laboratoriya mashg'ulotining vazifasi: mavzu bo'yicha umumiyl tushuncha berish. Har bir darsda o'tiladigan mavzu bo'yicha o'quvchilar bilimiga baho qo'yish malakasini hosil qilish.

O'quv faoliyatining natijasi: Kimyo o'qitishda o'quvchilar bilimini rivojlantirish yo'llari bo'yicha yetarlicha malaka hosil qiladilar. Elektron jurnalga, o'quvchining daftariga o'z vaqtida baho qo'yib borishni o'rganadilar.

Darsni talabalarga har bir darsda sinf o'quvchilarining kamida 30%, nazorat ishi va amaliy mashg'ulot darslarida barcha o'quvchilar baholanishi zarurligini o'rgatish.

Darsning mazmuni: talabalarga o'quvchilar bilimini baholashda o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozma va og'zaki bajarilishiga qarab baholash usullarini o'rgatish, ya'ni nazorat ishida yozma, mavzuni aytib bergani uchun og'zaki baholah mumkinligini o'rgatish. Har ikkala holda ham o'quvchining bahosi elektron jurnalga o'z vaqtida tushurilishi kerakligini o'rgatish.

Yangi mavzuning bayoni:

Kimyo o'qitishda o'quvchilar bilimini rivojlantirish usullari xilma xildir. Har bir darsning ta'limiy maqsadini amalga oshirish bilan birga uning rivojlantiruvchi maqsadini ham amalga oshirish kerak. Masalan yangi formula yozilsa uni eslab qolish uchun -Yod oling! Esda tuting! deyiladi, yoki uni biror masala ishslashda qo'llanishini tushuntirish kerak, reaksiya tenglamalarini qayta yozish, kimyoviy element belgisini, nomini, valentligini yod olishni uqtirish kerak. Mana shu kabi maqsadlarni to'g'ri qo'ya olishda talabalarda ko'nikmalarni shakllantirish zarur hisoblanadi. Har doim maqsad shakllantirishda kutilayotgan natijani ko'ra bilish va unga intilish motivatsiyani kuchaytiradi.

Umumita'lim maktablarida 7-11-sinflarda kinyo fani haftasiga 2 soatdan o'qitiladi. Bunda o'qituvchi har bir darsda sinf o'quvchilarini kamida 30% foizini baholashi maqsadga muvosiqidir. Agar shu qoidani o'qituvchi o'zining faoliyatida to'g'ri tashkil eta olsa, o'quvchilar o'z-o'zidan qachon o'qituvchi undan mavzuni so'rashini bilib, ma'sulyatni his etgan holda darsga tayyorlanib keladi. Ammo amaliy mashg'ulot va nazorat ishi darslarida darsda ishtirok etayotgan barcha o'quvchilar baholanishi kerak. Faqat darda ishtirok etmayotgan o'quvchilar elektron jurnalga qayd etilishi kerak. O'quvchilar bilimini baholashda murakkabligi jihatdan farq qiladigan savollardan foydalanilsa, o'quvchi tomonidan o'zining olgan bahosi bo'yicha hech qanday e'tiroz bildirilmayda. Bunda mavzuni faqat qoidalari aytib berish talab etilgan savollar, ya'ni oson savollarga javob bergen o'quvchilarga "3" qoniqarli baho qo'yiladi. Masalan, "Kimiyoviy reaksiya turlari" mavzusida faqat birikish, ajralish, o'rin olish, almashinish reaksiyalarining qoidalari aytgan o'quvchilarga qoniqarli baho qo'yish maqsadga muvosiqidir. Agar o'quvchi shu mavzu bo'yicha birikish, ajralish, o'rin olish, almashinish reaksiyalarining qoidalari aytib berish bilan birgalikda har bir reaksiya turiga misol keltirib reaksiya tenglamalarini yozib bera olsa bu o'quvchiga "4"-yaxshi baho qo'yiladi.

Agar o'quvchi shu mavzu bo'yicha birikish, ajralish, o'rin olish, almashinish reaksiyalarining qoidalarini aytib berish bilan birlashtirishda har bir reaksiya turiga misol keltirib reaksiya tenglamalarini yozib, shu asosida masala yecha olsa, bu o'quvchiga "5"-a'llo baho qo'yiladi.

Shu bilan o'quvchilarни yozgan yozma ishlarni ham adolatli baholash lozim. O'qituvchi tomonidan nazorat ishida 3 ta topshiriq berilgan bo'lib, hammasini to'g'ri ishlab, bo'yamasdan yozganligi uchun o'quvchiga "5" baho qo'yish mumkin.

Agar o'quvchi 3 topshiriqdan 2 tasini to'g'ri ishlagan bo'lsa, unga "4" baho qo'yish mumkin. Agar o'quvchi 3 topshiriqdan 1 tasini to'g'ri ishlagan bo'lsa, unga "3" baho qo'yish mumkin. Har bir qo'yilgan bahoni o'qituvchi asoslab qo'yishi muhim ahamiyatga ega. Iloji boricha har bir darsda og'zaki bo'lsa ham darsda faol ishtirot etgan o'quvchilarni rag'batlantirib borish, o'quvchilarni kimyo faniga bo'lgan qiziqishini orttiradi.

Nazorat uchun savollar

1. Birorta mavzu bo'yicha murakkabligi jihatdan farq qiladigan topshiriqlar berib, o'quvchilar bilmini baholashni tushuntiring.
2. Nazorat ishi va amaliy mashg'ulotda o'quvchilar blaming baholashni bir-biridan farqi va o'xshashligini aytинг.
3. Elektron jurnalga o'quvchilarning bahosini o'z vaqtida qayd etib borish haqida nima deya olasiz?
4. Umuman dars tayyorlamay keladigan o'quvchiga siz qanday baho qo'yasiz?
5. Barcha darslariningda faol ishtirot etadigan o'quvchingizga har darsda baho qo'yasizmi? Uni biliminibaholashda qanday yo'l tutasiz?
6. Siz dars o'tadigan sinfda sinfning barcha fanlar bo'yicha sifat o'zlashtirish ko'rsatkichi past. Bu ko'rsatkichni ko'tarish uchun siz nima qilgan bo'lardingiz?

7-LABORATORIYA.

MAUMMOLI VAZIYATNI TAHLIL QILISH VA OPTIMAL QAROR CHIQRISH.

Reja:

1. Maummoli vaziyatni tahlil qilish
2. Optimal qaror chiqarish
3. Xulosa yozish.

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasining asosiy bo'g'ini muammoli ta'lim yo'nalishi sanaladi.

Muammoli ta'lim – ta'lim jarayonini olib borishda o'quvchilar oldiga yechish uchun muammoni qo'yish orqali muammoli vaziyatni vujudga keltirish va mashg'ulot davomida uning yechimini topish. Muammo o'qituvchi tomonidan yoki o'quvchilar tomonidan qo'yilishi mumkin. Muammoli ta'lim texnologiyalari – o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. U insonni fikrashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarini aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta'lim o'quvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini oshirishda jiddiy ahamiyatga ega.

Muammoli vaziyat yaratish usullari:

O'qituvchi o'quvchilarga dars mavzusi bilan bog'liq ziddiyatli holatni tushuntirish va uni yechish yo'lini topishni taklif qilish;

- Bir masalaga doir turli nuqtai nazarlarni bayon qilish;
- Hal etish uchun yetarli bo'lmagan yoki ortiqcha ma'lumotlar bo'lgan yoki savolning qo'yilishi noto'g'ri bo'lgan masalalarni taklif etish.

Muammoli vaziyatni hal etish darajalari:

- O'qituvchi muammoni qo'yadi va o'zi yechadi;
- O'qituvchi muammoni qo'yadi va uning yechimini o'quvchilar bilan birgalikda topadi;

- O'quvchilarning o'zları muammoni qo'yadilar va uning yechimini topadilar.

Muammoli vaziyatni yechishda qo'llaniladigan usullar:

- Muammoni turli nuqtai nazardan o'rganish, tahlil qilish;
- Solishtirish, umumlashtirish;
- Dalillarni aniqlash va qo'llash;
- Vaziyatga bog'liq xulosalar chiqarish;
- O'quvchilarning o'zları aniq savollar qo'yishi va boshqalar.

Muammoli ta'lim bosqichlari: 1. Muammoli vaziyat hosil qilish. 2. Muammoni yechish taxminlarini shakllantirish. 3. Yechimning to'g'rilingini tekshirish (olangan yechim bilan bog'liq axborotni tizimlashtirish orqali).

Muammoni hal etish bosqichlari:

1. Isbotlash – bu muammoning ilgari to'g'ri deb tan olingan sabablar bilan bog'liqlarini topish asosida amalga oshiriladi.
2. Tekshirish – buni tanlangan sababning oqibatida hal etilayotgan muammo hosil bo'lishi to'g'rilingini asoslash bilan amalga oshiriladi.
3. Tushuntirish – bu muammoning yechimi nima uchun to'g'rilingini tasdiqlovchi sabablarni aniqlash asosida amalga oshiriladi

Muammoli ta'limni amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog D. Dyui 1894 yilda Chikagoda tashkil etgan tajriba muktabida qo'llagan. XX asming 60 yillarda bu yo'nalishda tadqiqotlar olib borildi. 70-80 yillarga kelib, amaliyotga keng joriy etildi. Muammoli o'qitishni chuqrur o'rghanish XX asming 60-yillarda boshlangan bo'lib, uning asosida "Tafakkur- muammoli vaziyatdan boshlanadi"-degan g'oya yetadi.

Fikrlash psixologiyasi nuqtai nazaridan muammoli o'qitish g'oyasi va tamoyillari S.L. Rubinshteyn, M.I. Maxmutov, V. Okon, I.Ya. Lerner tomonidan ishlab chiqilgan.

Muammoli ta'lim turi ilmiy-uslubiy jihatdan 3 xil ko'rinishga ega.

1. Muammoli vaziyatni vujudga keltirish.
2. Muammoning qo'yilishi.
3. Muammoning yechimini topish.

Muammoli vaziyatni o'quv mashg'ulotlarining barchasida shakllantirish mumkin. Uni dars jarayonida qancha ko'p shakllantirish o'qituvchiga bog'liq. Muammoli vaziyatning ahamiyati shundaki, u o'quvchilar diqqatini bir joyga (muammoga) qaratadi va o'quvchilarning izlanishiga, fikrlashga o'rgatadi.

Muammoli ta'lim o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo o'quvchilarning faol, mustaqil faoliyatni natijasida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi.

Muammoli o'qitish jarayonida beriladigan topshiriqlar o'quvchilarga tadqiqiy, evristik, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish bo'yicha topshiriqlar beriladi.

Bunda:

- nastardart masalalarini tuzish bo'yicha;
- shakllantirilmagan savol bilan;
- ortiqcha ma'lumotlar bilan;
- o'zining amaliy kuzatuvlari asosida mustaqil umumlashtirish;
- yo'riqnomalardan foydalanmasdan qandaydir ob'ekt mohiyatini bayon etish;
- olingan natijalarini qo'llash chegaralarini va darajalarini aniqlash;
- hodisaning namoyon bo'lish mexanizmini aniqlash;
- «bir lahzada» topish kabi topshiriqlarni berish mumkin.

Muammoli vaziyatlarda yechimga kelishning algoritmi quyidagi tartibda amalga oshiriladi Muammoni qo'yish, ma'lumotlar fondini to'plash, qayta ishslash, yechim modelini aniqlash, qo'shimcha ma'lumotlar to'plash va ularni tanlangan yechim modelida aks ettirish, yangi ma'lumotlar va yechim modeli o'rta sidagi

zidlikni aniqlash, zidlikni yechimini topish, yangi yechim modelini yaratishdan iboratdir.

8-LABORATORIYA MASHG'ULOTI.

MAVZU: KIMYO MAVZULARIGA MONOLOGIK VA DIALOGIK METODLAR TATBIQI

Reja:

1. Kimyo mavzulariga monologik metodlarning tadbiqi.
2. Kimyo mavzularida dialogik metodlarning tadbiqi
3. Hisobot yozish.

Darsning maqsadi: laboratoriya mashg'uloti bo'yicha yangi ilmiy bilimlar berish. Innavatsion texnologiyalarni dars jarayoniga tadbiq qilish

Laboratoriya mashg'ulotining vazifasi: mavzu bo'yicha umumiy tushuncha berish.Talabalarga har bir darsda o'tiladigan mavzu bo'yicha monologik va dialogik metodlarni qo'llab dar o'tishni o'rgatish.

O'quv faoliyatining natijasi: Talabalar tanlangan mavzu bo'yicha yetarlicha malaka hosil qiladilar.Masalan,mavzuning eng muhim joylarini tushuntirishda monologik metod o'tgan mavzu bilan bog'liqlik tomonlarini tushuntirishda dialogik metodlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Darsning mazmuni: Talabalarga kimyoviy hodisalarning qoidasini ya'ni "Molekulasi o'zgarishi bilan boradigan, orqaga qaytmaydigan hodisalar kimyoviy hodisalar deyiladi"-deb qoidani monologik metod bilan tushuntirilsa, kimyoviy hodisalarga misollar keltirshni o'quvchilardan dialogik metod bilan aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Yangi mavzuning bayoni: Monologik metodning mohiyati bir kishi tomonidan mavzuning mohiyatini aytib tushuntirilishidir. O'qituvchi hamma darsida faqat monologik metodni qo'llab dars o'tsa, dars zerikarli bo'lib, o'quvchilar darsda e'tiborsiz o'tiradilar. Dialogik metod mavzuni mohiyatini savol-javob asosida o'quvchilarga tushuntirishdir. Agar darsni faqat dialogi metod orqali olib borilsa, sinfda shovqin bo'lib, dars maqsadiga yetmaydi. Shuning uchun har bir darsda o'qituvchi iloji boricha har ikkala metoddan ham o'z o'mida foydalansa darsning samadarligi ortadi.

Yangi mavzuni mustahkamlash: Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida talabalar quyidagi rasmda berilgan mavzularni o'tishda monologik va dialogik metodlarni tadbiq etishni ko'rsatadilar.




Nazorat uchun savollar:

1. Siz qanday dars metodlarini bilasiz?
2. 10-sinfda “Oqsillar” mavzusini o’tishda siz qaysi metodni ko’proq qo’llagan bo‘lardingiz. Monologik metodnimi yoki dialogik metodnimi?

Xulosa yozish.

8-sinf “Xlor” Venn diagrammasi.

Rasmda kesuvchi tushunchalar tasvirlangan. 1-doiraga xlor saqlangan birikmalar, quyidagi moddalar niushbu doiraga joylashtiring.



2-doira	Qutbli	kovalent
bog’lanishlibirikmalar.		

Zinama -zina usuli.
Diquyopillar ketting -ket bo'lganidagi

1) Kifloching olinishi. $P_2O_5 + 3H_2O =$

2) $2H_3PO_4 + H_2 + Cl_2 =$

3) $2HCl + H_2 + S =$

4) $H_2S + FeS + 2HCl =$

5) $FeCl_3 + 2H_2S + Lakmus$

Ko'rgazmali materiallar tayyorlash (atom va molekula modellari, kristall panjaralar yasash)

Odatdagi sharoitda moddalar turliha fizik xossalarga ega va ular har-xil agregat holatda: qattiq, suyuq yoki gaz ko'rinishda bo'ladi.

Qattiq moddalarni tashkil qiluvchi molekulalar gaz moddalarning tashkil qiluvchi molekulalardan farqli ravishda sochilib ketmaydi, suyuq moddani tashkil qiluvchi molekulalardan farqli ravishda esa siljib modda shaklini o'zgartirmaydi (fizika fanidan o'rgangan bilimlaringizni eslang). Demak, qattiq modda fazoda mal'um bir shaklni hosil qilib, o'z hajmiga ega bo'ladi.

Qattiq moddalarning tashqi ko'rinishi va fizik xossalari moddani tashkil etuvchi zarrachalar orasidagi kimyoviy bog'lanishlar tabiatiga bog'liq bo'ladi. Qat-lik moddalarda shu moddani hosil qiluvchi zarrachalar (ionlar, atomlar, molekulalar) muntazam ravishda joylashadi. Kristallarda shu kristallni hosil qiluvchi zar-rachalarni muntazam ravishda joylashuvchi "kristallpanjara"lar deb ataladi.


Kristall panjaralar qanday zarrachalardan hosil bo'lganiga qarab har xil lurlarga bo'linadi.

KRISTALL PANJARA TURLARI.


1. Ionli kristall panjaralar. Kristall panjara tugunlarida musbat va mansifiy ionlar

joylashgan va ular orasida ionli bog'lanish mavjud bo'lgan tuzilmalar ionli kristall panjaralar deyiladi.

Masalan, tipik metallarning tuzlari (NaCl , KNO_3 , CuSO_4), ishqorlar (NaOH , KOH , $\text{Ca}(\text{OH})_2$) va ba'zi oksidlar.



quruq muz



yod



Molekulyar kristall panjara



Metall kristall panjara



atom kristall panjara




8-sinf Atom tuzilishi.Aqliy hujum; Savollar sheriyl tarzda beriladi.

1. Atom tuzilishining Planetar modeli.Qaysi buyuk olimlar tafakkurini maxsuli?

2.Gazlar atomini ilmini ilk bora o'rgangan kim?Atomistik asosni oldi kimyoviy ilmi?

3.Alkolloidshunossal maktabini yaratgan kim?Necha ming o'simlikni.




4.Aytingiz,qaysi ayol kimyoda erur dongdor? Nobel mukofotini ikki bora sovrindori?

5.Kim u - fizik,kimyogar,she'r yozishni ustasi.Mozaikachi rassom,Qomuschi hidir - qisqasi?


6.Kim – u ilmiy kimyoning asoschilaridan biri?Unga ma'lum bo'lgandi yigirma uch modda siri?

Doira o'yini.

O'quvchilar doira atrofidagi moddalarning molukulyar massalarinitopib,modda tagiga yozadilar.



“O’YLA, IZLA, TOP” MASHQI



Masala yechish

Tanlangan mavzular yuzasidan o'quvchilar bilimini nazorat qilish uchun savollar tuzish

1. Uglevodorodlar uchun xos bo'lgan sifat reaksiyalarini tahlil qiling.

J: Alkanlar o'rIN olish reaksiyasiga kirishadi. To'inmagan uglevadorodlar birikish reaksiyasiga kirishadi.

2. Kislorodli organik birikmalar kimyoiy xossalari bayon eting

J: Metallar bilan reaksiyaga kirishib alkogolyatlarni hosil qiladi, etirifikasiya reaksiyasiga kirishadi.

3. Oksobirimkalar uchun sifat reaksiyalar

J: Kumush ko'zgu reaksiyasiga kirishadi.

4. Azotli va yuqori molekulyar birikmalar olinishini tushuntiring?

J: Aminlar anilinlarni va aminokislotalar olinadi.

5. Disaxaridlarning gidroliz jarayonida qanday moddalar hosil bo'ladi?

J: Ikkita monosaxarid hosil bo'ladi.

6. Kimyo laboratoriya xonasida laboratoriya ishini bajarayotgan o'quvchi xavfsizlik qoidalariga rioya qilmasligi oqibatida ishqor eritmasi qo'liga to'kilib ketganda birinchi yordam qanday ko'rsatiladi?

J: Kuchli suv oqimi bilan yuviladi va tibbiyot surkov moylar surtilib vrach ko'rigiga olib boriladi.

7. Zaxarli gazlar bilan zaxarlanganda ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordamni bayon eting?

J: Zudlik bilan taza havoga olib chiqiladi, nafas olish mashqlari bajartirilib, aktivlangan ko'mir yoki qatiq ichish buyuriladi.

8. Sulfat kislota bilan kuyganda ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordamni ayting.

J: kuchli suv oqimi bilan yuvilishi shart va KMnO₄ ning 3%li eritmasida yuvilib, tibbiyot surkov moylar surtilib vrach ko'rigiga olib boriladi.

9. Reaksiya turlari va unga ta'sir etuvchi omillar?

J: Birikish,o'rIN olish,almashni,parchalanish reaksiyalari va ularga ta'sir etuvchi omillar tushuntiriladi.

10. A.N.Butlerov nazariyasi va izomeriya hodisasi organik kimyoda tutgan o'rni?

J: Organik kimyoda nima uchun moddalar ko'pligi va bu hodisada izomeriyani o'rni aytildi.

Kimyoviy diktant o'tkazish

Mavzu: Dastlabki kimyoviy tushunchalar

Nazorat shakli:Kimyoviy diktant.

- 1.Kimyo fani.....to'g'risidagi fandir.
2.....kimyoviy tuzilish
nazariyasining mikrozarrachalar asosida zamonaviy talqinini taklif etgan.
3.Jismlar.....tashkil topgan.



4. Alangani uch qismga bo'lish mumkin:l-alanganing yuqori qismi va chetlari
2-alanganing o'rta qismi.....,3-alanganing pastki qismi.....hisoblanadi.
5.Atom., yunoncha".....degan ma'noni bildiradi.
6.Atomlarning muayyan turi.....
7.....element atom massasining ^{12}C (uglerod 12)atom massasining 1/12 (o'n ikkidan bir)qismidan necha marta og'irligini ko'rsatuvchi kattalik.
8.....vadoimo harakatda bo'ladi.
9.1m.a.b.=.....ga teng.*
Kompetentlikni aniqlash uchun materiallar:
9.Hayotimizda uchraydigan qanday moddalarni bilasiz?

10.Kundalik turmushda qanday diffuziya hodisalarini kuzatgansiz?

Test tuzish

KIMYO FANIDAN MILLIY TEST TIZIMI UCHUN TEST SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur test spetsifikatsiyasining maqsadi umumta'lim fanlaridan bilishning milliy test tizimi doirasida kimyo fanidan talabgorlar (o'qituvchilar va o'quvchilar) bilim darajasini baholash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test variantlari tuzilmasi va unga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat. Mazkur hujjatga

aprobatasiyalar natijasida qo'shimchalar, o'zgartirishlar va tuzatishlar kiritilishi mumkin.

I. MILLIY TEST TIZIMI SERTIFIKATI Kimyo fanidan bilimlarni baholashning milliy test sinovlari orqali ushbu fandan talabgorlarning bilim darajasi aniqlanadi.

II. QAMRAB OLINGAN BO'LIMLAR

7–11–sinf materiallari asosida Kimyo fanining quyidagi bo'lmlari qamrab olinadi:

I. Umumiy kimyo

II. Anorganik kimyo

III. Organik kimyo

IV. Laboratoriya mashg'ulotlari

Kimyo fanining bu bo'lmlari umumiy holda berilgan bo'lib, ular kimyo fanining amaldagi o'quv dasturidan kelib chiqib, yanada aniqlashtiriladi. boblarga bo'linadi hamda bir nechta mazmun sohalariga ajratiladi

1. Kimyo fanining asosiy tushunchalari va qonunlarini hamda nazariyalarini, kimyoviy kinetika, eritmalar va eritmada boradigan jarayonlarni, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari (elektroliz), ularning tenglamalarini tuzishni bilish, tushunish, qo'llay olish, tahlil qilish va shular asosida misol va masalalar yechish.

2. Anorganik moddalarning eng muhim sinflari, metallar va metallmaslarning xossalarni farqlash, bilish, tushunish, qo'llay olish, tahlil qilish va shular asosida misol va masalalar yechish.

3. Organik birikmalarining tuzilish nazariyasi va undan kelib chiqadigan xulosalarni bilish, organik birikmalarining sinflarini, xossalarni, qo'llanilishini bilish, tushunish, qo'llay olish, tahlil qilish va shular asosida misol va masalalar yechish.

4. Kimyo xonasida jihozlar va reaktivlar bilan ishlashda xavfsizlik qoidalarini, kimyo laboratoriya jihozlarining turlarini va ulardan foydalanish tartibini bilish, fizik xossalari turlicha bo'lgan moddalarni bir-biridan farqlash, anorganik va organik moddalarning olinishi va xossalariiga oid laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishni bilish. Kimyo fanidan bilimlarni baholashning milliy test sinovi topshiriqlari yordamida quyidagi kognitiv darajalar baholanadi:

- bilish;
- tushunish;
- qo'llash;
- tahlil qilish.

TEST TOPSHIRIQLARI TURLARI

Test topshiriqlari turlari:

Y–bitta to'g'ri javobga ega muqobil javobli yopiq test topshirig'i;

O-qisqa javobni talab qiladigan ochiq test topshirig'i;

Yozma ish-kengaytirilgan javobni talab qiladigan ochiq test topshirig'i.

Test topshiriqlarini tuzish uchun kimyo fani sohalarining mazmun elementlari kodifikatori umumiy o'rta ta'limga muassasalari bitiruvchilariga qo'yildigan Davlat ta'limga standartlari talablari va kimyo fani o'quv dasturi mazmuni asosida shakllantiriladi. Kimyo fani sohalari mazmun elementlarining kodifikatori umumiy o'rta ta'limga muktablarida davlat dasturida ko'zda tutilgan barcha mazmun elementlarini qamrab oladi.

BAHOLASH MEZONLARI

Har bir test topshirig'i turiga qarab turli baholash mezonlariga asosan baholanadi.

1. Y-bitta to'g'ri javobga ega bo'lgan muqobil javobli yopiq test topshirig'inining baholash mezoni:

- a) agar belgilangan javob to'g'ri bo'lsa, qiyinlik darajasiga ko'ra 1 yoki 1,5 ball;
- b) agar belgilangan javob noto'g'ri bo'lsa, 0 ball.

2. O-qisqa javobni talab qiladigan ochiq test topshirig'inining baholash mezoni: a) agar belgilangan javob to'g'ri bo'lsa, 2 ball;

b) agar belgilangan javob noto'g'ri bo'lsa, 0 ball.

3. Yozma ish-kengaytirilgan javobni talab qiladigan ochiq test topshirig'inining baholash mezoni:

a) berilgan, topish kerak, yechish, javob qismlari to'liq yozilgan bo'lsa, 2 ball;

b) reaksiya tenglamalari to'g'ri yozilgan bo'lsa, 2 ball;

d) koeffitsiyentlar to'g'ri tanlangan bo'lsa, 2 ball;

e) kimyoviy atamalarning belgilari to'g'ri yozilgan bo'lsa, 2 ball;

f) birinchi javob to'g'ri chiqarilgan bo'lsa, 2 ball;

g) ikkinchi javob to'g'ri chiqarilgan bo'lsa, 2 ball;

h) hech qanday amal bajarilmagan holda faqat javob yozib qo'yilgan bo'lsa, 0 ball;

i) hech qanday hisoblash amallari bajarilmagan bo'lsa, 0 ball

PISA bo'yicha jaxon miqyosida statistikalar va monitoring (internet ma'lumotlari asosida)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'limga sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora tadbirlari to'g'risidagi"gi 997-sonli qarorida PIRLS (boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash), TIMSS (4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash), PISA (15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash), TALIS (rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'limga muassasalarida o'qitish va ta'limga olish muhitini hamda

o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish) kabi xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish belgilangan. Mazkur to'plam o'quvchilarni tanqidiy tahlil, kreativ fikrlash, mustaqil izlanish, yaratuvchanlik qobiliyatlarini shakllantirishga hamda tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini oshirishga yo'naltirilgan topshiriqlardan iborat. Tabiiy fanlar savodxonligi – shaxsnинг tabiiy fanlar rivoji va ularning yutuqlaridan foydalanan bilan bog'liq masalalarda faol fuqarolik pozisiyasini egallash qobiliyat. Tadqiqotda baholanadigan tabiiy fanlar savodxonligi bo'yicha bilim va ko'nikmalar mактабдаги tabiiy fanlar, fizika (astronomiya elementlari bilan), biologiya, kimyo, geografiya fanlarini o'ргатилайотгандан shakllanadi. Tadqiqotning maqsadi ko'nikma va tushunchalarni kompleks tekshirishdan iborat. Asosiy e'tibor, taklif qilingan savollarga o'quvchilarning tabiiy fanlardan olgan bilimlari orqali javob berilishi, berilgan axborot asosida ilmiy jihatdan asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatiga qaratiladi. O'quvchilarga taqdim etilgan hayotiy vaziyatlar har bir insонning shaxsiy hayotida yuzaga keladigan dolzarb muammolar bilan bog'liq bo'ladi.

PISA topshiriqlarini tuzish

FOSFOR VA UNING BIRKMALARI

Topshiriq.

Nima uchun gugurt qutisining yon tarafiga surilgan fosfor shu'lalanmaydi?



3-rasm


Oq va qizil fosfor aralashmasiga ko'p miqdordagi uglerod sulfid erituvchisi bilan ishlov berildi. Aralashmaning bir qismi erituvchida erimay qoldi.

Topshiriq. Erimay qolgan cho'kma nima?

- A. Oq va qizil fosfor aralashmasining bir qismi.
- B. Cho'kma – bu fosforning uglerod sulfidda eritishdan hosil bo'lgan erimaydigan modda.
- C. Oq fosfor.
- D. Qizil fosfor.

oooooooooooooo Birinchi fosforli gugurtlar 1827-yilda kashf qilingan. Bunday gugurtlar har qanday yuzaga ishqalansa alangalanib ketgan, bu esa ko'plab yong'in sodir bo'lishiga olib kelgan. 1867-yil italyalik ersgerdsoginiya Matilda bexosdan gugurt bosib qo'yishidan vujudga kelgan yong'in sababli vafot etgan. Fosforli gugurtlardan zaharlanish holatlari yozib qoldirilgan. Shuning uchun hozirgi kunda

bunday gugurtlar o'rnini xavfsizlari egallagan. Topshiriq. Nima uchun birinchi fosforli gugurtlar bu qadar xavfli bo'lgan, zamonaviyлari esa unday emas? Sabablaridan bittasini tushuntiring  Qishloq xo'jalik ekinlari hosillarini yig'ib olgandan keyin tabiatda fosfor aylanishining buzilishi bo'lshi mumkin. Topshiriq. Bu muammoni qanday hal qilsa bo'ladi?  Quyida berilgan sxemada fosforning tabiatda aylanishi ko'rsatilgan. Topshiriq. Tabiatda fosforning aylanishini strelka yo'nalishiga qat'iy amal qilgan holda tushuntirib bering.




4-rasm


Umumiy kimyo bo'yicha deduktiv taxlilni amalga oshirish

Ishqoriy metallar mavzusini o'qitishning amaliy asoslari va texnologiyalarini ishlab chiqish

Kimyoviy reaksiyalarda ishqoriy metallar o'zlarining valent elektronlarini oson beradi va +1 zaryadli ionga aylanadi.



Solvey usuli – Solvay process



C va uning birkimlarini o'qitishning vositalarini ishlab chiqish

Laboratoriya rejasi: 1. Uglerod xakida tushuncha.

2. Uglerodni olinishiga oid tajribalarni bajaradilar.

O'quv mashg'ulotining maksadi: mavzu bo'yicha umumiy tushuncha berish. Uglerod bilan ishlashning umumiy qoidalari va ularning birikmalari buyicha, tajriba bajarish xakida keng qamrovli bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Pedagogik vazifalar:

- **Uglerod bilan ishlash qoidasi** va ulardan foydalanish xakida tushuntiriladi.
- **Uglerod bilan ishlashdagi extiyot bo'lish choralarini tushuntiriladi.**

O'quv faoliyati natijalari (talaba):

- **Uglerod bilan ishlash qoidalari bilan tanishadilar.**
- **Talabalar uglerodni olinishiga oid tajribalarni bajarishni urganadilar.**

Ta'lim berish usullari: Ko'rgazmali, "Aqliy hujum"metodi. Tajribalar namoyish qilinadi/

Ta'lim berish shakllari: Juftlikda ishlash

Ta'lim berish vositalari: O'quv ko'llanma, proektor, doska, grafik organayzerlar, tarkatma materiallar

Ta'lim berish sharoiti: Hamkorlikda ishlash va laboratoriyanı amalga oshirish imkoniga ega bo'lgan auditoriya/

Baholash: Og'zaki nazorat: munozara, savol-javob, rag'batlantirish. O'z - o'zini baholash.


1-ILOVA

Uglerodni olinishiga oid tajribalar.

Reja:

1. Uglerod xakida tushuncha.
2. Uglerodni olinishiga oid tajribalarni bajaradilar.

2-ILOVA.



Uglerod Mendeleyev davriy sistemasining IV gruppaning asosiy guruhchasida joylashgan. +2, +4 valentlikni namoyon qiladi.

Uglerod tabiatda erkin holda xam (olmos, grafit tarzida), birikmalar tarkibida xam uchraydi. Toshko'mir, neft, tabiiy gaz, xayvonot va o'simlik organizmlari to'qimalarining tarkibida bo'ladi. Erkin xolatdagi uglerod uch xil allotropik shaklda uchraydi: olmos, grafit, karbin.

Olmos (zichligi $3,5 \text{ g/sm}^3$) tabiiy moddalarning eng qattig'i xisoblanadi. Olmosdan shisha kesishda, tog' jinslari burg'ilanadigan asboblar tayyorlash uchun foydalilanildi. Silliqlangan olmos brilliant deb ataladi.

Grafit to'q kulrang tusli kristall modda, uning zichligi $2,2 \text{ g/sm}^3$. Grafit elektrodlar va olovbardosh tigellar tayyorlash uchun ishlatalidi. Undan qalamlar tayyorlanadi, yadro reaktorlarida neytronlar harakatini susaytiruvchi vosita sifatida ishlatalidi.

Karbin. 1963 – yilda V.V.Korshak atsitoleni katalitik oksidlab α - va β -karbinni xosil qildi. Karbin qora tusli qattiq moddadir. Karbin yarim o'tkazgich xossaga ega.

Odatdagi sharoitda uglerod inert, ammo yuqori xaroratda ba'zi metallar va metallmaslar bilan reaksiyaga kirishadi. Uglerodning ikkita oksidi: CO_2 uglerod (IV) oksid va CO uglerod (II) oksid ma'lum.

CO_2 – organik moddalarning yonishida, o'simlik va xayvonot qoldiqlarining chirishida tirik organizmlarining nafas chiqarishidan xosil bo'ladi. Sanoatda CO_2 ni olish uchun oxaktosh kuydiriladi:



CO – rangsiz, zaxarli modda. Suvda kam eriydi. Xavoda o'ziga xos ko'kish alanga berib yonadi. Uni texnikada generatorda cho'g'langan ko'mirga xavo ta'sir ettirib olinadi ($1400\text{-}1600^\circ\text{C}$): $\text{C} + \text{O}_2 = \text{CO}_2 \quad \text{C} + \text{CO}_2 = 2\text{CO}$. Nbatijada "Xavo gazi" (

50% N₂ + 50% CO dan iborat) xosil bo'ladi. CO yuqori temperaturada metallmaslar (Cl₂, O₂, S) bilan reaksiyaga kirishadi; masalan: 2CO + O₂ = COS.

Tajribalar

1. **Qanddan toza ko'mir olish.** Chinnidan yasalgan tigelni shtativning xalqasiga uchburchak yordamida o'rnatib, yaxshilab qizdiring va qizib turgan tigelga 2g maydalangan qandni oz-ozdan soling. Xamma qand solib bo'lingach. tigelni yana 10 minut qizdirib, so'ng tigelni eksikatorga solib, sovuting. Bu usul bilan xosil qilingan ko'mir juda toza bo'ladi. Qilingan ishning reaksiya tenglamasini yozing.
2. **Uglerodning qaytaruvchilik xossasi.** Yuqoridagi tajribada xosil qilingan ko'mirdan 0,07g olib 1g mis oksidi bilan yaxshilab xovonchada aralashтиring. Aralashmani qog'oz yordamida yuqori xaroratga chidamli probirkaga soling. Probirkani shtativga maxkamlab, gaz yoki spirt lampasi yordamida yaxshilab qizdiring. Qizdirishni qora rangli aralashma qizg'ish rangga o'tguncha davom etting. Reaksiya tenglamasini yozing.
3. **Karbonat angidridni bir idishdan ikkinchi idishga quyish.** Uglerod (IV)-oksidni yonmaslik xususiyatidan va xavodan og'irligidan foydalanib uni bir idishdan ikkinchi idishga quyish mumkin. Buning uchun stakanga spirt shimdirib yonib turgan cho'pni tushiring. Unga yig'ilgan uglerod (IV)-oksidni bankanining birini suyuqlik (suv) quygandek qilib to'nkaring. Yonib turgan spirt alangasi o'chadi. Agar yonib turgan cho'pni bo'shatgan idishingizga tushirsangiz cho'p o'chmaydi. Bu bilan karbonat angidridni bir idishdan ikkinchi idishga quyish mumkinligini kuzating.
4. **Uglerod (IV)-oksidning ishqorga utilishi.** Probirkaga uglerod (IV)-oksid yig'ib, uni suyultirilgan ishqor eritmasi tagiga to'nkaring, probirkani esa ishqor ostida turgan vaziyatda oling. Ishqorning eritmasi probirkaga sekin-asta ko'tarilib uglerod (IV)-oksid o'rmini egallaydi. Bo'layotgan xodisani izoxlab, reaksiya tenglamasini yozing.

Uglerodning birikmalarini olinishiga oid tajribalar

Mavzuning nomi yoziladi va mavzuni yoritishdan kuzatilayotgan asosiy natijalar to'g'risida axborot beriladi.

Reja namoyish etiladi.

"Aqliy xujum" orqali talabalar saollashtiriladi. Savol-javob o'tkaziladi.

- 1.Uglerod tabiatda erkin xolda uchraydimi?
- 2.Uglerodning valentligini aytинг.
- 3.Uglerodning qanday birikmalarini bilasiz?

Belgilangan vaqt tugagandan keyin, javoblar taxlil qilinadi. Savollarga javob beradilar.



Dars davomida asosiy tushunchalarni qayd etish lozimligi uqtiriladi. Tajriba bajarish bo'yicha tarqatma material tarqtdi.

1. Uglerodning olinishi va xossalari
2. Uglerodning birikmalarini olinishi va xossalari
3. Uglerod va uning birikmalariga oid tajribalarni bajaradilar.

TAJRIBALAR.

Uglerod va uning birikmali kimyoviy xossalari

1. Ko'mirning adsorbsiyalash xossasi

Kolbadagi yoki stakandagi suvni binafsha rangli siyoh yoki fuksinga bo'yang. Unga maydalangan yog'och kulini tashlang va yaxshilab chayqating. Keyin filtirlang. Eritmaning rangi qanday o'zgaradi? Izohlang.

2. Metan olish va uni yonishi

Dastlab suvsizlantirilgan natriy atsetat CH_3COONa va natron ohakning 1:2 hajmiy nisbatda yaxshilab aralashtirib quruq probirkani uni 3:4 qismigacha to'ldiring. Gaz chiquvchi nayli trubkani probirka bilan berkiting, shtativni mustaxkamlang uncha katta bo'limgan silindrga suvdan ajralgan gazni yig'ing.

Metan bilan to'lgandan keyin suvdan gaz chiquvchi nayli trubkani chiqarib oling va qizdirishni to'xtating.

Metaning hosil bo'lish reaksiya tenglamasini yozing. Metanni yana qanday usullarda yig'ish mumkin ?

3. Atsetilin olish va uning xossalari

Probirka 2-3 bo'lak kaltsiy karbid soling va 2-3 ml suv quying. Suvni sulfat kislota H_2SO_4 eritmasiga (1:3) aralashtirish mumkin. Bu holatda atsetilenning hosil bo'lish reaksiyasi sekin boradi. Probirka uchini uzunroq nayli trubkali probka bilan berkitib va ajralib chiqqan atsetilen gazini yoqing. Etiboringizni alanganing xususiyatiga qarating. Kovsharlangan trubka orqali alangaga puflang. Ko'rinishdagi o'zgarishni izohlang. Atsetilen hosil bo'lishini reaksiyasini, uni to'la va chala yonish reaksiyasi tenglamasini yozing. Atsetilenni alangasi metanni alangasidan qanday farqlanadi? Nima uchun?

4. Uglerod (IV)-oksid olish va uni xossalari

Kipp apparatiga marmar bo'lakchasi tashlang va vodorod xlorid HCl erimasidan (1:4) soling. Gaz ajralishini kuzating. Shu maqsadda sulfat kilota H_2SO_4 erimasidan foydalanish mumkinmi?

5. Karbonat kislota tuzlarini olinishi

a) Probirkadagi ohakli suvdan 2-3 minutda tez karbonat angidrid SO_2 oqimini o'tkazing. Qanday o'zgarish sodir bo'ladi? Reaksiya tenglamasini yozing hosil bo'lgan tuzning nomini aytинг. Ularni grafik formulalarini yozing. Ularni suvdan eruvchanligi xaqida xulosa chiqaring. Tayyorlangan eritmani keyingi tajribaga saqlab qo'ying.

b) a) tajribada tayyorlangan eritmani 2 ta probirkaga quying, ulardan birini qizdiring, boshqasiga ohakli suv tomizing. Sodir bo'lgan reaksiya tenglamasini tuzing.

6. Karbonat kislota tuzlarining gidrolizi

Na_2CO_3 natriy karbonat, $NaHCO_3$ natriy hidrokarbonat, K_2SO_3 kaliy karbonat eritmalarining neytral lakmus eritmaga ta'sirini tekshiring. Gidroliz reaksiya tenglamasi ionli va molekulyar shaklda yozing qaysi tuz yuqori darajada gidrolizga uchraydi. Natriy karbonat Na_2SO_3 va natriy hidrokarbonatga izoh bering.

7. Karbonat kislota tuzlarining xossalari

Quyidagi tuzlarni suvgaga, vodorod xlorid HCl va sırka kislotasi CH_3COOH eritmalariga tasirini tekshiring. Reaksiya tenglamalarini molekulyar va ionli shaklda yozing. Kuzatilgan xodisani izohlang.


Tajriba joylarini tartibga solish xisobotlarni tekshiradi, uyga vazifa savollarga javob yozib kelish kerakligini aytadi.

Nazorat savollari

1. Uglerodning xossalari.
- 2.Uglerodning vodorodli birikmalarini olish va xossalari.
- 3.Karbonat angidrid tuzlari.
4. Karbonat kislota va uning tuzlari.

N_2 va uning birikmalarini o'qitishning vositalarini ishlab chiqish

Azot va uning vodorodli birikmalari mavzusida piramida texnologiyasining tadbig'i



1. Azotning olinishi va xossalari

a) Probirkaga quyidagi aralashmani soling: 3 g maydalangan KNO_3 probirkaga paxta bo'lagidan juda xam zichlashtirmay tuz zarrachalarini ushlash uchun qo'yib, gaz o'tkazuvchi nay bilan probirkani berkiting va shtativga mahkamlang. Probirkani astasekinlik bilan qizdiring va probirkadan havo siqib chiqarilgandan so'ng cilindrni chiqayotgan gaz bilan suv ostida to'ldiring. Cilindr yoki kengroq probirka gaz bilan to'lganidan so'ng, uni suv ostida shisha plastinka bilan berkiting va vannadan chiqarib oling. Reaksiya tenglamasini yozing (kaliy va temir oksidlari hosil bo'ladi).


Azotning fizik xossalari o'rganing (rangi, xidi, suvda eruvchanligi). Azot bo'lган cilindrga yonib turgan cho'pni tushiring. Nima kuzatildi? Azotni uglerod (IV) oksididan qanday qilib farq qilish mumkin?

b) Probirkaga 2 g maydalangan natriy nitritdan soling va unga 4-5 ml ammoniy xloridning to'yigan eritmasidan quyying. Probirkani gaz o'tkazuvchi nayli tiqin bilan berkiting, shtativga maxkamlang va asta-sekin qizdiring. Reakciya boshlanganidan 1-2 daqiqa o'tgach (nima uchun?) ajralib chiqayotgan gazni cilindrga suv ustida yig'ing. Cilindr gaz bilan to'lганидан so'ng uning og'zini shisha plastinka bilan berkiting va vannadan chiqarib oling. Ammoniy nitritning parchalanish reakciyasini yoizing. Nima uchun NH_4NO_2 o'rniiga NaNO_2 va NH_4Cl tuzlari aralashmasidan foydalаниlishini tushuntirib bering.

Azotning fizik xossalari tavsiflang. Cilindrga (keng probirkaga) yonib turgan cho'pni tushuring (nima kuzatiladi?) yoki kalciy gidroksidli suv quyib chayqating. Kalciy gidroksidli suv o'zgaradimi?

2. Ammiakning olinishi.

a) 74 rasm asosida asbob yig'ing. Kipp apparati 1 ni rux va sul'fat kislotasi (1:5) bilan to'ldiring. Issiqqa chidamli shisha nay 2 ga qaytarilgan temirdan joylashtiring, nayning ikkala tomonini asbestdan yasalgan tampon bilan yoki shisha paxta va shisha nayi bo'lган tiqin bilan berkiting. SHisha nay 3 oxirigacha fenolftalein bilan namlangan filtr qog'oz lentasini o'mating va probirkaga 4 ga joylashtiring. Rezina nayga joylashgan katta kolbani (1 l dan kichik emas) keng nay bilan bog'lovchi vintli qisqich 5 ni berkiting. Tiqinni kolbadan chiqaring va Kipp apparatidan vodorod oqimini yuboring. Vodorodning tozaligiga ishonch hosil qilgandan so'ng (bu qanday aniqlanadi?), uni nay teshigi oldida yoqing va Kipp apparatidagi kran yordamida, vodorod alangasini kichraytiring. Kolbani tiqin bilan berkiting. Vodorodning oldiniga yonishi kolbada davom ettiradi va barcha kislorod sarf bo'lганидан so'ng alanga o'chadi. Kolbada vakkum hosil bo'ladi va unga Kipp apparatidan vodorod kiradi (o'rta shar suyuqlik bilan to'la boshlaydi).



Azot va vodorodan ammiak olish qurilmasi:

1-Kipp apparati; 2 -o'tga chidamli shishadan yasalgan trubka; 3-gaz chiqaruvchi trubka; 4-probirka; 5-qisqich

Biroz vaqt o'tgandan so'ng bosim ko'tariladi va apparatning o'rta sharidan suyuqlik siqib chiqariladi. Hosil bo'lgan azot va vodorod aralashmasini qisqich 5 ni asta-sekin burab temir kukuni joylashgan nay orqali o'tkazing. Kipp apparatidagi voronkadan suyuqlik asta-sekinlik bilan tushishiga va vodorod ajralishi unchalik kuchli bo'lmasligiga e'tibor bering. Temirli naydan xavo to'la-to'kis siqib chiqarilgandan so'ng uni asta-sekin qizdiring. 1-2 daqiqadan so'ng fenolftalecinning qizarishini kuzating. Rang nima uchun o'zgarganligini tushuntiring.

Temir ulushlari bir necha marotaba ishlatalishi mumkin bo'lganligi uchun qizdirish to'xtatilgandan so'ng vodorod o'tkazishni nay soviguncha davom ettiring, so'ng uni ikkala tomonidan tiqin bilan berkiting.

Bu reakciyada temir qanday vazifani bajaradi? Nima uchun uni bir necha marotaba ishlatalish mumkin? Reakciya tenglamasini yozing.

Qandaydir sabablarga ko'ra tajriba qaytarish kerak bo'lsa, u holda avval vodorodni siqib chiqarib tashlash kerak. Vodorod saqlanib qolgan kolbada tajriba davom ettirilsa qanday xodisa ro'y beradi?

b) Quruq probirkalardan 75 rasmdagi asbobni yig'ing. CHinni kosachada teng hajmda olingen ammoniy xlorid va so'ndirilgan ohakni yaxshilab aralashtiring. SHunday sharoitda ammiak hosil bo'ladimi? Hosil qilingan aralashmani probirkaga soling (yarmigacha), uni gaz o'tkazuvchi nay bilan ulangan tiqin bilan berkiting va uni tagini og'ziga nisbatan biroz balandroq qilib shtativga mahkamilang (nima uchun?). Aralashmani kuchsiz qizdiring va ajralayotgan ammiakni probirkaga yig'ing (nima uchun probirkaning tubini baland ko'tarib gaz yig'ish kerak?). Probirka ammiak bilan to'ldirilgandan so'ng (bunga qanday qilib ishonch hosil qilish mumkin?), uni naychadan ehtiyyotlik bilan aylantirmasdan olib quruq tiqin bilan berkiting va keyingi tajriba uchun saqlab qo'ying.



Ammoniy tuzlaridan ammiak olish uchun asbob.

3. Ammiakning xossalari

a) Ammiakni suvda eruvchanligi.

Oldingi tajribada olingan ammiakli probirkaning og'zini pastga qilib suvli vannaga tushiring, suv ostida tiqinni olib asta-sekin chayqating. Nimani kuzatdingiz? Suv ko'tarilishi tugagach, suv ostida probirkani probka bilan berkiting va vannadan oling. Olingan eritmani indikator qog'oz bilan sinang. Kuzatilgan xodisani izohlang. Reakciya tenglamasini yozing. Olingan eritmaning bir qismimi qaynaguncha qizdiring. Xid chiqish tezligi o'zgaradimi? Eritmani 2-3 daqiqa qaynatib, uni indikator qog'ozi bilan sinang. Rangini aniqlang. Reakciya tenglamasini yozing. Ammiakning eritmasida qanday muvozanat o'rnatiladi? Eritma qizdirilganda muvozanat qanday suriladi? Izohlang.

b) Ammiakni vodorod xlorid bilan ta'sirlashishi.

Bitta cilindr (probirka)ni ammiak bilan ikkinchisini vodorod xlorid bilan to'ldiring va shisha plastinka (tiqin) bilan berkiting. Ularni shunday ushlangki ammiakli idish tepada bo'lshiin. Plastinkani oling va cilindrlarni bir necha marotaba bir-biriga nisbatan to'nkaring (nima uchun?). Nima kuzatildi? Reakciya tenglamasini yozing.

v) Ammiakning yonishi.

76 rasm bo'yicha asbob yig'ing. Birinchi probirkaga 2-3 ml ammiakning koncentrlangan eritmasidan quying va uni gaz o'tkazuvchi nay bilan ulangan tiqin bilan berkiting. Ikkinci probirkaga ozroq kuydirilgan marganec (IV) oksid bilan Bertole tuzining aralashmasidan soling. Probirkalarни shunday joylashtingki, gaz o'tkazuvchi nayning uchi ikkinchi probirkaning og'zi ustida joylashsin. $KClO_3$ va MnO_2 aralashmasini qizdiring. Kislorod ajrala boshlagach (qanday aniqlash mukin?),

ammiak eritmasini asta-sekin qizdiring. Ajralib chiqayotgan ammiakni gaz o'tkazuvchi nayning oxirida yoqing.

Alanga rangini aniqlang. Reakciya tenglamasini va elektronlar o'tish sxemasini yozing.



Ammiakni kislorodda yondirish uchun asbob: 1 - ammiakning koncentrlangan eritmasi solingan probirka; 2 - kislorod olish uchun probirka.

4. Ammoniy ioniga reakciya

Probirkaga ammoniy tuzining eritmasidan ozroq soling (masalan NH_4Cl), 1-2 ml NaOH eritmasidan soling va qizdiring. Probirka og'ziga namlangan indikator qog'ozini uning devorlariga tekkizmay tuting. Uning rangi qanday o'zgaradi? Reakciya tenglamasini yozing.

Barcha gazlar orasida suv bilan faqatgina ammiak ishqor hosil qilganligi uchun unda indikator rangining o'zgarishi eritmada NH_4^+ ioni borligidan darak beradi.

Agar chiqayotgan ammiakning xajmi ko'p bo'lsa, uni xididan ham aniqlash mumkin.

5. Ammoniy tuzlарining termik parchalanishi.

(b) va v) tajribalarni mo'rili shkafda o'tkazing).


a) SHisha nayning (uzunligi 20-25 sm.) o'rtasiga 3-4 sm qalinlikda shisha tayoqcha yordamida presslangan NH_4Cl tuzidan joylashtiring. Trubkaning ikkala tomoniga ham namlangan indikator qog'ozidan qo'ying. Trubkani shtativga yonboslatib o'rnatiting va tuzning past qismidan indikatorning birortasini rangi o'zgargunga qadar qizdiring. Qanday gazning ta'siridan bunday o'zgarish sodir

bo'ldi. Bu gazlarning ajralishi nima bilan tushuntiriladi. Ammoniy xloridning parchalanish reakciyasini yozing.

b) Tigel qopqog'iga ammoniy sulfatning bir nechta kristallidan soling va setkada qizdiring. Ammoniy sulfat 357°S da suyuqlanib, ammiak ajratib parchalanadi. Suyulgan massa ammoniy gidrosulfat va ammoniy sulfatlar aralashmasidan iborat bo'ladi. Tegishli tajribani o'tkazib ammiak ajralishini aniqlang. Ammoniy sulfatning parchalanish reakciyasi tenglamasini yozing.

v) Tigel qopqog'iga ammoniy nitratning bir necha kristallidan soling va asta-sekinlik bilan mo'rilii shkafning oynalarini tushirilgan holda setkada qizdiring. Barcha kristallar parchalanib bo'lganidan so'ng tigel qopqog'ida biror xil modda qoladimi. Reakciya tenglamasini va elektronlarning o'tish sxemasini yozing.

a), b) va v) tajribalarini o'zaro taqqoslang va ammoniy tuzlarining parchalanishiga anionning qanday ta'sir etishini tushuntiring.



Ammoniy xloridning termik parchalanishi.

6. Ammoniy xloridning haydalishi

Probirkaning tubiga juda ham oz miqdorda ammoniy xlorid soling va uni yonboshlatib ushlagan holda qizdiring. Probirkaning sovuq qismida nima hosil bo'lishini kuzating. Tajriba yo'li bilan boshlang'ich va haydalgan moddalar kimyoiyi tarkibi jihatidan farq qilishi yoki qilmasligini aniqlang. Reakciya tenglamasini yozing.

7. Gidrazin va gidroksilaminning xossalari.

a) Probirkaga 4-5 ml suv qo'ying, unga 2-tomchi gidrazin va bir necha gidrazinsulfat kristallaridan soling, chayqating va bir necha tomchi iodli suv soling. Qanday hodisa sodir bo'ladi. Reakciya tenglamasini yozing. Gidrazin va uning hosilalari qanday xossani namoyon qiladi.


b) Probirkaga 4-5 ml suv quying va unda bir nechta gidroksilamin xlorid kristallaridan eriting, unga bir necha tomchi iodli suv tomizing. Nimani kuzatdingiz. Reakciya tenglamasini yozing. Reakciyada gidroksilaminxlorid qanday vazifani bajaradi.

3-ILOVA.


NAZORAT SAVOLLARI

1. Azot atomining elektron formulasini yozing.
2. Azot birikmalrida qanday maksimal kovalentlik va qanday oksidlanish darajalarini namoyon qiladi? Misollar keltiring.
3. Molekulyar orbitallar usulidan foydalanib azot molekulasining energetik diagrammasini tuzing va elektron formulasini keltiring.
4. Azotni laboratoriyyada qanday moddalardan va qanday sharoitda olinadi? Reakciya tenglamalarini yozing.
5. Azotning qanday vodorodli birikmalari ma'lum? Ularning formulalari va nomlarini yozing. Oksidlanish-qaytarilish reakciyalarida ular qanday xossalarga egalar?
6. Valent bog'lar usuli nuqtai-nazaridan ammiakning tuzilishini tushuntiring. Molekulaning fazoviy tuzilishi qanday? Molekulaning qutublanuvchanligi qanday? Ammiakning qanday xossalari molekulaning shunday tuzilishi bilan tushuntiriladi?
7. Ammiakni laboratoriyyada qanday moddalardan va qanday sharoitlarda olinadi? Reakciya tenglamalarini yozing.
8. Ammiakning kimyoviy xossalalarini qanday reakciyalar bilan tavsiflash mumkin? Reakciya tenglamalarini yozing.

„Aqliy hujum” savollari:



“Klaster” методи орқали тармоqlang:




AZOTNING KISLОРОДЛИ БИРИКМАЛАРИ.

1. Azot (I) oksidini olinishi va xossalari.

Probirkaga ozroq ammoniy nitrat tuzidan soling va ehtiyotlik bilan (nima uchun?) qizdiring. Probirkaning og'ziga cho'g' tuting. Nimani kuzatdingiz? Ajralayotgan gazning tarkibi qanday? Uning rangi va hidini aniqlang. Reakciya tenglamasini yozing.

2. Azot (II) oksidini olinishi. (Tajribani mo'rili shkafda bajaring.)

78 rasmga ko'ra asbob yig'ing. Kolbaga 10-15 g. mis qirindisidan soling, tomizg'ich voronkasiga suyultirilgan (1:1) nitrat kislota eritmasidan quying. Mis qirindisiga ozroq kislotadan quying. Agar reakciya boshlanmasa kuchsiz qizdiring. Gazning kolbada rangi o'zgarishini tushuntiring. Naydan chiqayotgan gaz havoda qo'ng'ir rangga bo'yala boshlasa (nima uchun?), uni suv ustida uchta cilindrga (bankaga) yig'ing. Agar kerak bo'lsa, voronkadan kolbaga oz-ozdan kislota quyib turing. Cilindrler azot (II) ienêa aččai öüeaàieäai nûia öcaðic oeoä ieñoeieäað aččai ñoa inõeäa ååðeëöeäi, åäiiääai +çqâðeä iecčia åä eäyingi tajribalar uchun saqlab qo'ying. Gazning rangini aniqlab qo'ying. Reakciya tenglamalarini yozing.



Azot (II) oksidni olish uchun asbob.

3 g) tajriba bajarilganidan so'ng kolbadagi cho'kmani erib ketgunicha qizdiring va filtrlang. Kosachada filtratni ozroq hajmda modda qolgunicha parlating va sovuting. Tuz kristallarining hosil bo'lishini kuzating. Ularning tarkibi qanday?

3. Azot (II) oksidining xossalari. (Tajriba mo'rili shkafda o'tkazilsin.)

- Azot (II) oksid bilan to'ldirilgan cilindrga (banka) yonib turgan cho'pni tushuring. Nima kuzatdingiz? Izohlang.
- Ozroq qizil fosforni temir qoshiqchaga solib gaz gorelkasida yondiring va u yaxshi yonganidan so'ng azot (II) oksidli bankaga tushiring. Nimani kuzatdingiz? YOnib turgan fosfor bilan azot (II) atmosferasida nima bo'ladi? Reakciya tenglamasini yozing Bu reakciyada NO qanday xossani namoyon qiladi?


a) va b) tajribalarning farqini tushuntiring

v) Oq qog'oz bilan bankaning o'zingizga qarama qarshi tomonini berkitib, azot (II) oksidli bankaning og'zini oching va gazning rangini o'zgarishini kuzating. Olingan moddaning rangi qanday? Reakciya tenglamasini yozing Bunda azot (II) oksid qanday xossani namoyon qiladi?

g) Probirkaning 1/4 qismiga yangi tayyorlangan temir (II) sulfatning to'yigan eritmasidan soling va undan azot (II) oksidni o'tkazing. Eritmaning rangi qanday o'zgarishiga e'tibor bering. Nitrozo-temir (II) sulfat hosil bo'lish tenglamasini yozing. Eritmani qizdiring. Qanday xodisa ro'y beradi? Kuzatilgan xodisani tushuntiring. Reakciya qanday maqsadda qilinadi?

4. Ammiakni oksidlab azot oksidlarini olinishi

79 rasmdagidek asbob yig'ing. 3-chi probirkaga bir emas, 2 dona nay kiritish mumkin, Biridan ammiak ikkinchisidan kislород oqimi keladi. Probirkaga №1 ga 1-2 ml ammiakning koncentrlangan eritmasidan quying. Uni olish uchun boshqa qanday moddalardan foydalanish mumkin? Probirkaga №2 ga ozgina Bertole tuzi va kuydirilgan marganec (IV) ienеälarining adаcаoиiñeäai ńfсeëia. 3 -дe iöiaçdeäièia öoa öiüleäai ien nñoéanè aücaäeäai ,ee eiaç-eä ien nñeiéièia öoaónidan qo'ying va gaz aralashmasi kiradigan nayni kiydiring. Bu reakciyada mis qanday vazifani bajaradi?



Ammiakni oksidla' uchun qurilma: 1 – koncentrlangan ammiak eritmali probirk; 2-Bertole tuzi va marganec (IV) oksid aralashmasi solingan probirk; 3-mis qirindisi solingan probirk.

Mis simni qizdiring. $KClO_3$ va MnO_2 aralashmasini qizdiring va nay 3 kislород bilan to'lganidan so'ng (bunga ishonch hosil qilish kerak), probirkaga 1 ni ammiakli eritmasi


bilan asta-sekin qizdiring. 3-chi probirkaga kirgan ammiak shu zahotiyoy NO gacha oksidlanadi. Mis sim bilan nima sodir bo'ladi? Sodir bo'layotgan reakciyaning issiqlik effekti xaqida qanday xulosa qilish mumkin? Mis sim cho'g' holiga kelganidan so'ng qizdirishni to'xtating. Hosil bo'lgan NO ortiqcha kislorod bilan osongina oksidlanadi. Buni qanday qilib bilish mumkin? Agar probirka 1 ni qattiq qizdirilsa ammiak ko'p keladi va NO_2 o'miga idish devorlarida oq moddalar paydo bo'ladi Uning tarkibi qanday?

Agar kelayotgan NH_3 va O_2 mis sim ustida reakciyaga kirishib ulgurmasa, probirkada portlash sodir bo'lishi mumkin. Barcha sodir bo'layotgan reakciya tenglamalarini yozing.

5. Azot (IV) oksidining olinishi (tajriba mo'rili shkafda o'tkazilsin)

a) 56 rasm bo'yicha asbob yig'ing. Kolbaga ozgina mis qirindisidan soling, tomizgich voronkasiga esa 5-10 ml koncentrlangan HNO_3 dan quying. Ajralib chiqayotgan gazni 3 ta cilindrga (ikkita banka va probirkaga) yig'ing va shisha plastinka bilan og'zini berkitib, keyingi tajribalar uchun saqlang. Gazning rangi qanday? Reakciya tenglamasini yozing.

b) 80 rasimdagidek asbob yig'ing. Xlorkalciyli nay 2 ga shisha paxta qavatlari orasiga donalashtirilgan NaSi_2 joylashtiring (tajribani naysiz bajarsa ham bo'ladi). Vanna 3 ni sovituvchi aralashma bilan to'ldiring (qor yoki muz bilan tuz (2:1)). Kolba (keng probirka) 4 priemnik vazifasini bajaradi va u niroyatda quruq bo'lishi shart. Vanna 5 va probirka 6 ni suv bilan to'ldiring.



Xovonchada 5-7 g qo'rg'oshin nitratni ishqalab maydalang va 1-2 g mayda, yuvilgan va quritilgan qum bilan aralashdiring. Aralashmani shisha tayoqcha bilan yaxshilab aralashdirib, kuchsiz qo'ng'ir rang chiqquncha chinni kosachada kuchsiz gaz alangasida quriting va probirka 1 ga joylashtiring. Qo'rg'oshin nitratga gaz bir me'yorda chiqishi uchun qum qo'shiladi. So'ngra probirka 1 ni aralashma bilan qizdiring va gaz oqimi bir me'yorda chiqishini va 5 vannadan kolbaga suv tortilmasligini nazorat qiling.

Kolbaga qanday rangdagi va tarkibdagi suyuqlik yig'iladi? Agar kalciy xloridli nay qo'llanilmasa, nam ishtirokida ko'kimtir azot (III) oksidi hosil bo'lishi mumkin. SHuning uchun suyuqlik rangi zangori bo'ladi. Kolbada biroz suyuqlik to'planganidan so'ng, gaz o'tkazuvchi nayni vannadan chiqaring va qizdirishni to'xtating.

Probirkada qanday gaz to'planganligini isbotlang. Oldiniga kalciy xloridli nayni olib, rezina naylarga qisqichni kiydiring. Suyuqlikligi kolbani keyingi tajriba uchun saqlang. Qo'rg'oshin nitratning parchalanish reakciyasi tenglamasini yozing.

6. Azot (IV) oksidining xossalari

(a) va v) tajribalar mo'rili shkafda o'tkazilsin)

a) Azot (IV) oksidida cho'g' va yondirilgan fosforlarning yonishini tekshirib ko'ring. Reakciya tenglamalarini yozing. Tajriba natijalarini 3 tajriba natijalari bilan solishtirib, qaysi oksid oson kislorod ajratishi xaqida hulosa qiling.

b) 5 a) tajribada olingen azot (IV) oksid bilan to'dirilgan cilindr (probirka) ni suv vannasiga tushurib shisha plastinkani oling. Nimani kuzatdingiz? Cilindrda suv sathining o'zgarishi to'xtaganidan so'ng, cilindrn shisha plastinka bilan berkitib, vannadan oling. Hosil bo'lgan eritmansi indikator qog'oz bilan sinab ko'ring. Kuzatilgan xodisani tushuntiring. Reakciya tenglamasini yozing.

v) 5 b) tajribada olingen azot (IV) oksidlari kolbani shtativga mahkamlang, gaz o'tkazgich nayni oxirgi uchini issiq suvli vannaga tushuring va issiq suv bilan to'dirilgan cilindr (probirka) ostiga keltiring. Rezina nayidagi qisqichni oling va kolbani kichik alangada ehtiyyotlik bilan qizdiring. Cilindrda yig'ilayotgan gazning rangiga e'tibor bering. Idishni yarmi gaz bilan to'lganidan so'ng, nayni suvdan oling va qizdirishni to'xtating. Cilindrn shisha plastinka bilan berkiting va suvdan oling. Cilindrda qanday gaz yig'ilganligini isbotlang va eritma qanday muhitga ega ekanligini lakkus bilan aniqlang. NO_2 ni suv bilan amalda qanday reakciyaga kirishish tenglamasini yozing.

3-ilova.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Azotning barcha ma'lum oksidlarini yozing. Kimyoviy bog'lanish tabiatini va uning gibridlanish turini ham ko'rsating.
2. Azot oksidlaridan qaysilari polimerlanishga uchraydi va nima uchun? Qanday sharoitda bu jarayon to'la to'kis sodir bo'ladi?
3. NO molekulasini elektron formulasini yozing.
4. Azot (II) oksidini olinish usullarini, reakciya sharoitlarini keltiring va reakciya tenglamalarini yozing.
5. Azot (IV) oksidining kimyoviy xossalari qanday. NO_2 bilan suv orasidagi reakciya tenglamasini yozing va uni tushuntiring.
6. Nitrit va nitrat kislotalarining kimyoviy formulalarini yozing. Kimyoviy bog' tabiatni va gibridlanish turini ko'rsating.
7. Oksidlanish-qaytarilish reakciyalarida nitritlar qanday xossalarni namoyon qiladilar? Bunday reakciyalar qanday muhitlarda sodir bo'ladi? Misollar keltiring.
8. Ammiakdan nitrat kislotsasini olish reakciyalarini yozing va reakciyalarni qanday sharoitlarda sodir bo'lishini ko'rsating.
9. Nitrat kislota HNO_3 qanday xossalarga ega? Uni qaytarilish mahsulotlarining tarkibi qanday omillarga bog'liq? Nitrit kislotaning qaytarilish mahsulotlari NO_2 , NO , N_2O , N_2 va NH_3 bo'lgan metallar va HNO_3 orasidagi reakciyalardan misollar keltiring.
10. Nitrat kislota tuzlarining eruvchanligi qanday? Qanday nitratlar eritmalarida gidrolizlanadi? Reakciya tenglamalarini yozing.
11. Turli metallarning nitratlarini qizdirishga munosabatlari qanday? Tushuntiring. Reakciya tenglamalarini yozing.

Azotning kislorodli birikmalari, olinishi va xossalariiga oid tajribalar

- Laboratoriya ishi rejasi:*
- 1 Nitrit kislotaningning olinishi, xossalari
 - 2 Nitrat kislotaningning olinishi, xossalari
 - 3 Tuzlarining olinishi, xossalari
 - 4 Tajribalar o'tkazish

O'quv mashg'ulotining maqsadi: mavzu bo'yicha umumiyligi tushunchasi berish
.Azotning birikmalariga oid tajribalar o'tkazish malaka va ko'nikmalarini egallash.

Pedagogik vazifalar:

Azotning birikmalarini olinishiga oid tajribalar o'tkazishni o'rgatish.

O'quv faoliyati natijalari (talaba):

- Azotning birikmalari haqida tushunchaga ega bo'ladi
- tajriba o'tkazish malakasi hosil bo'ladi

Ta'lim berish usullari: Ko'rgazmali, "Aqliy hujum"metodi. Tajribalar namoyish qilinadi.

Ta'lim berish shakllari: Individual, yakka tartibda ishslash

Ta'lim berish vositalari : O'quv qo'llanma, proyektor, doska, reaktivlar, asboblar

Ta'lim berish sharoiti : Hamkorlikda ishslash va taqdimotni amalga oshirish imkoniga ega bo'lgan auditoriya

„Aqliy hujum” orqali talabalar faollashtiriladi. Savol-javob o'tkaziladi. Berilgan vaqt tugagandan keyin, javoblar tahlil qilinadi.

1. Azotning qanday birikmalari uchraydi?

2. Azot qanday kislotalarini bilasiz?

3. Azotning tabiatda qanday birikmalari bo'ladi? Dars davomida asosiy tushunchalarni qayd etishni uqtiradi. Tajriba bajarish bo'yicha tarqatma material tarqatadi.

1. Nitrit kislotaning olinishi

2. Nitrat kislotaning olinishi

7. Nitrit kislotasining hosil bo'lishi va parchalanishi

Probirkada 2-3 ml natriy nitrit eritmasini qor (muz) bilan sovitish va so'ngra unga H_2SO_4 ning suyultirilgan eritmasidan quying. Eritma rangiga va uning ustidagi gazning rangiga e'tibor bering. Nima uchun eritmani sovitish zarurligini tushuntiring, qaysi modda eritmaga rang berayapti, gazning tarkibi qanday? Reakciya tenglamasini yozing.

8. Nitrit kislotasining oksidlovchilik va qaytaruvlilik xossalari

a) Eritmaga 2-3 ml KJ eritmasidan quying, H_2SO_4 yordamida kislotali muhit hosil qiling va unga ozgina $NaNO_2$ eritmasidan quying. Eritma rangining o'zgarish sababini tushuntiring. Qanday modda ajralganligini qanday isbotlash mumkin? Reakciya tenglamasini yozing.

b) H_2SO_4 bilan kislotali muhit hosil qilingan $KMnO_4$ eritmasiga $NaNO_2$ ertmasini quying. Nima kuzatildi? Mn(II) tuzi hosil bo'lishini hisobga olgan holda reakciya tenglamasini yozing. a) va b) tajribalarida HNO_2 qanday xossalarni gamoyon qiladi?


9. Kaliy nitritni olinishi.

2-3 g kaliy nitrat solingen probirkani shtativga mahkamlab, gaz chiqishi tugaguncha qizdiring. Qanday gaz chiqayotganini aniqlang. Probirkaga soviganidan so'ng undagi moddani suvda eriting va probirkada nitrit kislotasining tuzi bo'lganligini isbotlang. Kaliy nitritning termik parchalanish tenglamasini yozing.

10. Nitrat kislotasining olinishi.

81 rasmdagidek asbob yig'ing. Retortaga 15-20 g $NaNO_3$ va voronka yordamida tuzni berkitadigan darajada koncentrlangan H_2SO_4 quying. Retorani ehtiyyotkorlik bilan qizdiring. Idishda ozroq kislota yig'ilganidan so'ng qizdirishni to'xtating, retortani soviting, qurilmani tarkibiy qismlariga ajriting. Kislotani keyingi tajribalar uchun saqlab qo'ying. U nima uchun rangga bo'yalganligini tushuntiring? HNO_3 ni kiyimingizga yoki qo'lingizga tomib ketishidan ehtiyyot bo'ling. U matoni tezda parchalaydi, qo'lingizda sariq dog' va kuyish kuzatiladi.

Reakciya tenglamasini yozing. Nima uchun eritmalar ishlatalmay $NaNO_3$ va koncentrlangan H_2SO_4 olinishini tushuntiring. Nima uchun reakciyanı unchalik qizdirmasdan o'tkaziladi?

	Nitrat kislotasini olish uchun asbob.
--	---------------------------------------

11. Nitrat kislotasining xossalari.

(Tajribalar mo'ri shkafda o'tkazilsin.)

a) qizdirilganida parchalanishi. Probirkaga oldingi tajribada olingen nitrat kislotasidan 1-2 ml quying va uni shtativga tik holda o'rnating. Kislotani kuchsiz qizdiring. Probirkani qisqichda ushlab turib cho'g' tuting. Nima kuzatildi? HNO_3 ning parchalanish reakciyasini yozing.

b) Koncentrlangan nitrat kislotasini metallarga ta'siri. Bitta probirkaga bir bo'lak rux, ikkinchisiga galay soling va so'ngra koncentrlangan nitrat kislotasidan quying. Qanday gaz ajraladi? Ikkinci probirkada H_2SnO_3 hosil bo'lishini e'tiborga olgan holda reakciya tenglamasini yozing.

v) Suyultirilgan nitrat kislotasini metallarga ta'siri. Probirkaga ozgina temir kukunidan yoki qirindisidan soling va unga o'rtacha suyultirilgan HNO_3 eritmasidan quying. Qanday gaz ajraladi? Reakciya tenglamasini yozing.

Bitta probirkaga rux bo'lagidan, ikkinchisiga galay bo'lagidan soling va ikkalasiga ham kuchli suyultirilgan HNO_3 eritmasidan quying. Bir necha daqiqa mobaynida suyuqlikni chayqating, eritmani boshqa idishga quyib, unda NH_4^+ ioni borligini isbotlang. Reakciya tenglamasini yozing.

g) Alyuminiyni «bug'lanayotgan» nitrat kislotasida passivlanishi.

Probirkaga ozroq 2 n HCl eritmasidan quying va unga alyuminiy bo'lagidan soling. Nima kuzatildi? So'ngra alyuminiyni kislotadan chiqarib olib, suv bilan yuving, filtr qog'oz bilan artib, tajribada olingen HNO_3 ga tushuring. 3-4 daqiqadan so'ng alyuminiyni ehtiyyotlik bilan olib, suv bilan chayqatmasdan yuving va yana HCl ga tushiring.

d) Koncentrlangan nitrat kislotasini metallmaslarga ta'siri.

CHinni kosachaga ozroq koncentrlangan HNO_3 quying, oltengugurt bo'laklaridan bir bo'lagini solib qizdiring. Qanday xodisa ro'y beradi? Suyuqlik sovigandan so'ng uni suvli probirkaga quying va unda H_2SO_4 borligini aniqlang. Reakciya tenglamasini yozing.

e) Nitrat kislotasining murakkab moddalarga ta'siri.

Probirkaga ozroq suyultirilgan HNO_3 olib qizdiring va unga Kipp apparatida olingen H_2S oqimini o'tkazing. Nima kuzatildi? Kuzatilgan xodisani izohlang. Reakciya tenglamasini yozing. Nitrat kislotasi qanday vazifani bajaradi?

Probirkaga ozroq mis (II) sulfid (CuS) soling va 1-2 ml koncentrlangan HNO_3 quying. CuS ni erishini tushuntiring. Reakciya tenglamasini yozing.

Bir necha koncentrlangan HNO_3 kislota tomchisini ozroq laksus yoki fuksin eritmasiga quyib chayqating. Nima kuzatildi? Izohlang.

j) Organik moddalarni nitrat kislotasida parchalanishi.

SHerst matoga koncentrlangan HNO_3 dan shisha tayoqchada bir tomchi tushuring. Matoga nima bo'lishini kuzating. Ro'y beragan xodisani izohlang.

12. Nitratlarni qizdirilganda parchalanishi

(b) va v) tajribalar mo'rii shkafda o'tkazilsin)

a) SHtativga maxkamlangan probirkada 1 g NaNO_3 ni qizdiring. Gaz ajralishini kuzating. Qanday gaz ajralayotganini kuzating va probirkada qanday modda qolayotganini sovugach isbotlang. Qizdirilganida KNO_3 qanday parchalanishi eslang.

b) $\text{Cu}(\text{NO}_3)_2 \cdot 3\text{H}_2\text{O}$ kristallaridan bir nechasiini probirkaga soling, uni shtativga gorizontal holatda o'mating va kuchli qizdiring. Tuz bilan qanday o'zgarish sodir bo'lishini kuzating. Qanday gazlar ajraladi? Tajribadan so'ng probirkada nima qoladi? Reakciya tenglamasini yozing.

v) Probirkada AgNO_3 ning bir necha kristallarini qizdiring. Qanday gazlar ajraladi? Probirkada nima qoladi? Reakciya tenglamasini yozing.

Tajriba natijalarini o'zaro solishtiring va nitratlarning parchalanish xarakteri, ularning tarkibiga kirgan metallarning aktivligiga qanday bog'liqligini ko'rsating. Bu tuzlarni qizdirilganda turli mahsulotlar hosil qilishini tushuntiring.

3-ilova.

Nazorat savollari.

1. Azot (I) oksidini kisloroddan qanday farq qilish mumkin?

2. Azot (II) oksidini azot (IV) oksididan qanday ajratish mumkin?

3. Nima uchun Mg bilan suyultirilgan HNO_3 reakciyasida ammiak gaz holida ajralmaydi? U reakciya mahsulotlarini birining tarkibiga kirishini qanday isbotlash mumkin? Reakciya tenglamasini yozing.

4. Natriy nitrit va nitratlarning eritmalarini qanday qilib farq qilish mumkin? Reakciya tenglamalarini yozing.

5. Reakciya tenglamalarini tugallang. Koeficientlarini qo'ying:

a) $\text{KNO}_2 + \text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7 + \text{HNO}_3 \rightarrow \text{Cr}(\text{NO}_3)_3 + \dots$

b) $\text{NO} + \text{NO}_2 + \text{NaOH} \rightarrow \dots$

v) $\text{Ag} + \text{HNO}_3(\text{konec}) \rightarrow \dots$

g) $\text{Zn} + \text{HNO}_3 \rightarrow \text{N}_2\text{O} + \dots$



«S» va uning birikmalarini o'qitishning vositalarini ishlab chiqish

Laboratoriya rejasi:

1.Oltingugurt.

2.Vodorod sul'fid.

3.Sul' fidlarining olinishi.

O'quv mashg'ulotining maksadi: mavzu bo'yicha umumiy tushuncha berish.

Oltingugurt, vodorod sul'fid, sul' fidlarining olinishiga oid tajribalar bajarish orkali keng kamrovli bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. *Pedagogik vazifalar*:

- **Tajriba bajarish hakida tushunchaga ega bo'ladilar.**

- **Tajriba bajarishdagi extiyot bulish choralarini tushuntiriladi.**

O'quv faoliyati natijalari (talaba):

- **Talabalar oltingugurt, vodorod sul'fid, sul' fidlarining olinishiga oid tajribalarni bajarish usullarini urganadilar.**

Ta'lim berish usullari: Ko'rgazmali, "Klaster" metodi. Tajribalar namoyish qilinadi

Ta'lim berish shakllari: Jamoaviy, juftlikda ishslash

Ta'lim berish vositalari O'quv ko'llanma, proektor, doska, grafik organayzerlar. tarkatma materiallar

Ta'lim berish sharoiti: Hamkorlikda ishslash va takdimotlarni amalga oshirish imkoniga ega bo'lgan auditoriya

Baholash: Og'zaki nazorat: munozara, savol-javob, rag'batlantirish. O'z -o'zini baholash

1.1. Mavzuning nomini ekranga chikaradi va mazkur mavzuni yoritishdan kutilayotgan asosiy natijalar to'g'risida axborot beradi.

1.2. Mavzuni yoritish bo'yicha tuzilgan reja savollarini namoyishga uzatadi.

1.3. Bugungi o'tilishi kutilayotgan dars mashg'uloti Klaster tarzida bo'lishi

ta'kidlanadi. Mulokotni kanday tashkil kilish to'g'risidagi eslatmani ekranga chikaradi (1-ilova).

1.4. "Klaster" metodi orkali talabalarni faollashtiradi. Berilgan savolga o'ylab javob berishni taklif kiladi (javoblar 1-2 so'zdan iborat bo'lishi kerakligini eslatadi): Masalan:

1. Oltingugurt necha xil buladi?

2. Sul'fidlar, olinishi usullariga misol keltiring.

Bir talabaga javoblarni doskada yozib borishni taklif kiladi. Buning uchun 10 minutcha vakt ajratiladi. Belgilangan vakt tugagandan so'ng, fikr bildirishlar to'xtatiladi va javoblar tahlil kilinadi. (slayd) 15, daqiqa

2.1 Laboratoriya mashguloti davomida asosiy tushunchalarni kayd etish lozimligini uktiradi. Talabalarning yozib olishlarini ta'kidlaydi.

2.2. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maksadida kuyidagi savollarini beradi:

Oltingugurtni hossalariiga oid misollar yozing.

3.1. Mavzuni umumlashtiradi va umumiylar yuldasiga yasaydi. Talabalar dikkatini mavzuning asosiy tomonlariga karatadi.

3.2. Mustakil ishlashlari uchun nazoarat savollariga javob tayyorlab kelish vazifasini beradi (3-ilova).

КЛАСТЕР

(Кластер-тутам, боғлам)-ахборот харитасини тузиш йўли барча тузилманинг моҳиятини марказлаштириш ва аниқлаш учун кандайдир бирор асосий омил атрофида ғояларни йигиши билимларни фаоллаштириши тезлаштиради, фикрлаш жараёнига мавзу бўйича янги ўзаро боғланишли тасаввурларни

эркин ва очиқ жалб килишга ёрдам беради

Кластерни тузиш қоидаси билан танишадилар.

Ёзув тахтаси ёки катта қофоз варагининг ўртасига асосий сўз ёки 1-2 сўздан iborat бўлган мавзу номи ёзилади

Бирикма бўйича асосий сўз билан унинг ёнида мавзу билан боғлик сўз ва таклифлар кичик доирачалар “йўлдошлар” ёзib кўшилади. Уларни

“асосий” сўз билан чизиклар ёрдамида бирлаштирилади. Бу “йўлдошларда” “кичик йўлдошлар” бўлиши мумкин. Ёзув ажратилган вакт давомида ёки тоялар тугагунича давом этиши мумкин

Мухокама учун қластерлар билан алмашинадилар.

1-ilova.



Oltinugurt va uning brikmalari

Atom tuzulishi : $1S^2 2S^2 2P^6 3S^2 3P^4$

Suyuqlanish temperaturasi - +112,8 °C (rombik)

+119,3°C (monokilinik)

Qaynash temperaturasi -- +444,6 C

Maksimal valentligi -- 6

Yuqori oksidlanish darajasi -- +6 (faqt oksidlovchi)


Quyi oksidlanish darajasi -- -2 (faqt qaytaruvchi).

Oltinugurt qadimdan ma'lum bo'lgan.


Olinishi :

1. Tabiatda erkin holatda uchraydi.
2. Kislorod kam miqdorda bo'lsa : $2\text{H}_2\text{S} + \text{O}_2 = 2\text{S} + 2\text{H}_2\text{O}$
3. $2\text{H}_2\text{S} + \text{SO}_2 = 3\text{S} + 2\text{H}_2\text{O}$

1.Laboratoriyada :



2. Sanoatda



Oltингугурт

Oltингугурт D.I. Mendeleev elementlar davriy sistemasining VI guruhidagi bosh guruhcha elementlaridan biridir. Elektron formulasi $1\text{S}^2 2\text{S}^2 2\text{P}^6 3\text{S}^2 3\text{P}^4$.

Oltингугурт atomining kisloroddan farqi u III davr elementi bo'lgani uchun atomining sirtqi qavatida 3S va 3P pog'onachalaridan tashqari, bo'sh 3d pog'onacha ham bor. Shuning uchun oltингугурт atomining oksidlanish darajasi o'z birikmalarida -2 dan +6 gacha bo'lishi mumkin.

3-ILOVA.

NAZORAT SAVOLLARI.

1. Oltингугурт atomi va sul'fid ionining elektron formulalarini yozing.
2. Oltингугурт modifikasiyalarini keltiring, ularning qaysi biri polimorf? Odatdag'i sharoitda oltингугуртning qaysi modifikasiyasi barqaror?
3. Oksidlanish-qaytarilish reakciyalarida oltингугурт qanday oksidlanish darajasini namoyon qiladi? Misollar keltiring.
4. Oltингугурт birikmalarida qanday oksidlanish darajasini namoyon qiladi? Misollar keltiring.
5. Kimyoviy reakciyalarda: a)faqat oksidlovchi, b)faqat qaytaruvchi, v)ham oksidlovchi ham qaytaruvchi xossalariini namoyon qiluvchi oltингугурт birikmalarini ayting.

6. Vodorodli birikmalardan (N_2S , H_2Se , H_2Te) qaysi biri termik barqaror, kuchli qaytaruvchi? Javobingizni izohlang.

7. N_2S , Na_2S va CS_2 birikmalarida kimyoviy bog'lanish tabiatini qanday?

8. Polisul'fidlar Na_2S_2 va FeS_2 larni struktura formulalarini yozing.

9. Metall sul'fidlarini bosqichli va to'la gidrolizlanishiga misollar keltiring. Reakciya tenglamalarini molekulyar va ionli shaklda yozing.

10. Sul'fidlarni eruvchanlik ko'paytmasi qiyamatlaridan foydalanib, qaysi metall ionlarini sul'fid ionlarini ochishga qo'llash mumkin?

Rombik oltingugurtning olinishi

Probirkada 2 ml oltingugurtning serouglere oddagi to'yigan eritmasini ($\rho=1,266 \text{ g/sm}^3$) tayyorlang.

To'yigan eritma tayyorlash uchun zarur bo'lgan oltingugurt massasini jadvaldan foydalanib hisoblang:

Temperatura, $^{\circ}\text{S}$	Oltungugurtning 100 g serouglere oddagi eruvchanligi, g
0	18,0
20	29,5
40	50,0
60	66,0

Serouglere - oson alanganuvchan suyuqlik va u bilan bajariladigan barcha ishlarni olovdan uzoqroqda bajarish kerak.

Olingan eritmadan bir necha tomchisini shisha yuzasiga tomizing va mo'rili shkaf ostida serouglere uchib ketgunga qadar qoldiring. Serouglere bug'lari zaharli. Hosil bo'lgan kristallni lupa ostida ko'ring va rasmini chizing.

Monoklinik oltingugurtning olinishi

3/4 qism oltingugurt bilan to'ldirilgan chinni tigelni shtativga o'rnatilgan chinni uchburchakka joylashtiring va asta-sekin oltingugurtini qorayib ketishiga yo'l qo'yinay qizdiring. Oltungugurt to'la eriganidan so'ng qizdirishni to'xtating. Tigelning devorlarida kristallar paydo bo'lguncha soviting. so'ngra kristallanishiga ulgurgan oltingugurti suvli stakanga quying. Idish devorlarida hosil bo'lgan yaltiroq ignasimon monoklinik oltingugurt kristallarini kuzating. U biroz vaqt o'tishidan

so'ng xiralashib, mo'rt bo'lib qoladi. Bu holda monoklinik oltingugurt qanday modifikaciya o'tadi?

Plastik oltingugurtning olinishi

Probirkani yarmigacha oltingugurt bilan to'ldiring, qisqichga mahkamlab, chayqatib turgan holda chtiyotlik bilan qizdiring. Oltingugurt oson qaynovchi sariq rangli suyuqlik hosil qilib eriy boshlaydi. Oltingugurtning rangini va qovushqoqligini o'zgarishiga e'tibor berib, erigan oltingugurtni asta-sekin qizdirishni davom ettiring. Quzatilgan xodisalarni tushuntiring. Oltingugurtmi qaynaguncha qizdiring va kristallizatordag'i sovuq suvg'a ingichka oqim bilan quying. Agar bu holda oltingugurt yonib ketsa probirk'a og'zini asbestos bo'lakchasi yoki asbestos setkasi bilan berkiting.

Olingen massani suvdan chiqarib oling va uni elastik ekanligiga ishonch hosil qiling. Hosil bo'lgan plastik oltingugurtini dars oxirigacha saqlang. Bunda siz amorf modifikaciyasini kristallikka o'tishini kuzatasiz. Xona temperaturasida oltingugurtning qaysi modifikaciysi barqaror? Olingen moddaning xossalarni va u bilan sodir bo'layotgan o'zgarishlarini tushuntiring.

Oltingugurtning metallar bilan reakciyasi

(tajriba mo'rili shkafda o'tkazilsin)

a) Oltingugurni temir bilan reakciyasi.

Ekvivalent miqdorda oltingugurt va temir moddalaridan iborat bo'lgan 3,5 g aralashma tayyorlang. Tajriba uchun qaytarilgan temir va oltingugurt olinadi.

Aralashmani shisha tayoqcha bilan yaxshilab aralashtiring. Hosil qilingan aralashmani probirkaga soling va shtativga tik holda o'rnating. Barcha aralashmani asta-sekin qizdiring va so'ngra tagidan bir joyini qattiq qizdiring. Aralashma cho'g' holiga kelganda gorelkani oling.

Reakciyaning sodir bo'lishini kuzating. Reakciya natijasida qanday modda hosil bo'ldi. Uning rangini aniqlang. Reakciya tenglamasini yozing.

b) Oltingugirtni alyuminiy bilan reakciyasi.

Tarozida 2,4 g oltingugurt va ekvivalent miqdorda alyuminiy oling. Undan oltingugurt va alyuminiyning bixil aralashmasini tayyorlang va metall plastinkaga yoki asbestos kartonga to'plam qilib soling va mo'rili shkaf ostiga joylashtiring. So'ngra uzun shisha tayoqchani uchini gaz alangasida qizdirib, aralashmaning bir chetiga tekkazing.

Tajriba o'tkazilayotganda reakcion aralashmaning ustiga egilmang.


Kuzatilgan hodisani izohlang. Qanday reakeiyaning alomatini kuzatdingiz? Reakciya tenglamasini yozing. Metallar bilan reakciyaga kirishganida oltingugurt qanday kimyoviy xossani namoyon qiladi?

v) Rux sulfidi

Ekvivalent miqdorda rux (kukuni) va oltingugurtning 5 g aralashmasini tayyorlang, metall plastinkasiga qo'ying va qizdiring (ehtiyyotlik bilan, mo'rili shkafda). Nimani kuzatdingiz? Reakciya tenglamasini yozing. Rux sulfidini suv ta'siriga va xlorid kislotaga munosabatini o'rganing.

Oltингугуртни водород билан реакцияси

68 va 73 rasmlarga ko'ra asbob yig'ing. Kalciy xlorid solinadigan idishning shar qismiga (shar qism bo'limganda, to'g'ri trubkadan foydalansa ham bo'ladi) ozroq oltingugurt, probirkaga esa qo'rg'oshin (II) nitrat eritmasidan soling. Trubka orqali Kipp apparatidan vodorodni o'tkazing. Pribordan chiqayotgan gazning tozaligiga ishoneh hosil qilganingizdan so'ng (buning uchun gaz chiqayotgan trubkani tepaga ko'tarib, vodorod yig'ing va tozaligini tekshiring) oltingugurt solingan sharchani qizdiring. Bo'layotgan hodisani kuzating. Qo'rg'oshin (II) nitrat eritmasi solingan idishdagi cho'kma nima? Nima uchun qo'rg'oshin ioni vodorod sul'fidi uchun reaktiv hisoblanadi? Reakciya tenglamasini yozing.



Vodorod sulfid olish uchun asbob.

Vodorod sulfidning olinishi va uning yonishi

Vodorod sulfidnihoyatda zaharli. Shuning uchun u bilan bo'ladigan barcha reaksiyalarni mo'rili shkafda bajaring.

Laboratoriyada mayjud bo'lgan shunday reaktivlarni tanlangki, ular o'zaro ta'sirlashganlarida xona temperaturasida vodorod sul'fid gazini olish mumkin bo'lsin. Tanlangan reaktivlar va ularning koncentraciyalari to'g'ri tanlanganligini bilish uchun o'qituvchiga ko'rsating. 73 rasmdagi asbobni yig'ing. Uni shtativga mahkamlab reaksiyani o'tkazing. Reakciya tenglamasini yozing. Gaz mo'l miqdorda ajrala boshlagach, gaz o'tkazuvchi trubkadan chiqayotgan gazni yoqing. Vodorod sul'fidning to'la yonish reaksiyasini yozing. Olov ustida kutilayotgan moddalar hosil bo'layotganini namlangan indikator qog'ozini va quruq varonka yordamida isbotlang.

Vodorod sul'fid alangasi sovuq jisimga tekkganida yoki kislород etishmaganda tula yonmaydi

YOnib turgan vodorod sulfid alangasiga chinni tigelning sovuq qopqoqchasini tuting. Unda sariq modda tuplanishini kuzating. Nima xosil buldi? Vodorod sulfidning chala yonish reaksiya tenglamasini yozing. Yonish jarayonida vodorod sulfid qanday kimyoviy xossani namoyon qiladi.

Vodorod sulfidli suvning olinishi.

Vodorod sulfidning suvdagi eritmasini tayyorlang. Buning uchun Kipp apparatidan yoki vodorod sulfid olish uchun qullanilgan asboddan foydalanib, gaz o'tqazuvchi nayni probirkadagi suvgaga birnecha minut quyib quyish kerak.

Olingen eritmani neytral lakkus eritmasi bilan sinang. Lakkus rangini o'zgarishi eritmaning qanday xossasini kursatadi.

Sulfid kislotasining dissocilanish reaksiyasi tenglamasini yozing. Ilavadagi jadvaldan foydalanib sulfid kislotaning kuchi xaqida xulosa qiling.

Vodorod sulfidning qaytaruvchi xossalari.

Vodorod sulfidli suv bilan bromli suvgaga, kislota muhitini hosil qilingan kaliy permanganat va kaliy dixromat eritmalariga ta'sir qiling. Reakciya sodir bo'lishiha qanday tashqi belgilarni kuzatdingiz. Reakciya tenglamalarini yozing. Koefficientlarni tanlang.

Metall sulfidlarning olinishi va xossalari

a) Rux, marganec, kadmiy, qo'rg'oshin, mis tuzlari eritmalaridan ammoniy sulfid ta'sir ettirib sulfidlarning cho'kmalarini hosil qiling, hosil bo'lgan cho'kmalarning rangiga e'tibor bering. Reakciya tenglamasini molekulyar va ionli ko'rinishda yozing. CHo'kmalardan ozroqdan olib xlorid kislotosini ta'sir ettiring. Qaysi cho'kmalar eriganini belgilang. Sulfidlarni eruvchanlik ko'paytmalari asosida kuzatilgan hodisalarni tushuntiring.

b) YUqoridagi tuzlarning eritmalariga vodorod sulfidli suv bilan ta'sir qiling. Nima uchun barcha tuzlarning eritmalaridan cho'kma tushmaydi.

Sulfidlarning gidrolizi.

a) Bir necha natriy sulfid kristallarini suvda eriting. Eritma muhitini aniqlang. Indikator rangini o'zgarishini tushuntiring. Gidroliz reakciyasini molekulyar va ionli ko'rinishda yozing.

b) Alyuminiy tuzi eritmasiga ammoniy sulfid eritmasidan quying. Probirkani qizdiring, hosil bo'lgan cho'kmani fil'trlab ajratib oling va uni issiq suv bilan yuvинг. Hosil bo'lgan cho'kma alyuminiy gidroksid ekanligini tajribada isbotlang. Reakciya tenglamasini molekulyar va ionli shakkarda yozing.

Polisulfidlarning olinishi.

a) Probirkaga 3-5 ml natriy sulfidning koncentrlangan eritmasidan quying va unga ozroq oltingugurt kukunidan soling. Eritmani qaynaguncha qizdiring va unga to'yingan eritma hosil bo'lganiga qadar oltingugurt soling. Eritma rangini o'zgarishiga e'tibor bering. Qaynoq eritmani filtrlang va uning 1-2 ml ga kislota muhitini hosil bo'lgunicha suyultirilgan HCl eritmasidan qo'shing. Oltingugurt cho'kmasi hosil bo'lshini kuzating va vodorod sulfid ajralayotganini aniqlang. Reakciya tenglamasini yozing.

"Aqliy hujum" metodi orkali talabalami faollashtiradi. Berilgan savolga o'ylab javob berishni taklif kiladi (javoblar 1-2 so'zdan iborat bo'lishi kerakligini eslatadi): Masalan:

1. Oltingugurning kislorodli birikmalarini aytинг?

2. Oltingugurtning kislorodli birikmalarini olinish usullariga misol keltiring.

Bir talabaga javoblarni doskada yozib borishni taklif kiladi. Buning uchun 10 minutcha vakt ajratiladi. Belgilangan vakt tugagandan so'ng, fikr bildirishlar to'xtatiladi va javoblar tahlil kilinadi. (slayd)

Ta'lim berish texnologiyasining modeli

OLTINGUGURTNING KISLORODLI BIRIKMALARI

2. Oltingugurt (IV) oksidining xossalari

- a) YOnib turgan cho'pni oltingugurt (IV) oksidda o'chishi. Oltingugurt (IV) oksid to'ldirilgan probirkaga yonib turgan cho'pni tushiring. Nimani kuzatdingiz? Xulosangizni tushuntiring.
- b) Oltingugurt (IV) oksidni suvda eruvchanligi. Birinchi (b) tajribada oltingugurt (IV) oksid to'ldirilgan probirkani kristalizatordag'i suvg'a to'ntarib, probirkadagi tijinни олинг. Probikada suv ko'tarilishini kuzating. Kuzatilgan xodisani tushuntiring. Probirka og'zini suv ostida berkiting va suvdan chiqarib олинг. Olingan eritmani ikkita probirkaga quying. Bittasiga laksus eritmasidan quying, ikkinchisiga esa magniy lentsasidan tushiring. Nimani kuzatdingiz? +ilingan tajribalar asosida олинган бирикманинг кимयовиҳи характери хақида ҳулоса qiling. Reakciya tenglamasini tuzing. Sulfit kislotasining bosqichli dissocilanish konstantasi ifodasini yozing va ularning son qiymatlarini jadvaldan олинг. Sulfit kislotasi kuchi jixatidan qanday kislotalar turkumiga kiradi?

3. Oltingugurt (IV) oksidi va sulfit kislotaning oksidlovchi va qaytaruvchi xossalari

- a) Oltingugurt (IV) oksidi bilan to'ldirilgan stakanga qisqich bilan ushlab turgan holda yonib turgan magniy lentsasini tushiring. Nimani kuzatdingiz? Reakciya natijasida hosil bo'lgan oq rangli modda nima? Reakciyaning ikkinchi mahsuloti oltingugurt ekanligini nazarga olgan holda reakciya tenglamasini yozing. Oltingugurt (IV) ienеä bu reakciyada qanday xossani namoyon qiladi.
- b) Probirkada birinchi (b) tajribada олинган oltingugurt (IV) ienеä bilan vodorodsulfidli suvni ta'sirlashish reakciyasini o'tkazing. Nima uchun eritma

loyqalandi? Reakciya tenglamarini va elektronlarning o'tish sxemasini yozing. Bu tajribada sul'fit kislotasi qanday xossani namoyon qiladi?

v) Probirkaga ozgina HCl eritmasidan quying va uni SO_2 bilan to'yintiring. So'ngra unga 1-2 bo'lak rux tashlang. Bir necha daqiqadan so'ng eritmada ozgina quyib oling va unda H_2S borligini isbotlang. Reakciya tenglamarini va elektronlarning o'tish sxemasini yozing. Bu reakeiyada oksidlovchi va qaytaruvchilarni aniqlang. Ruxning roli nimadan iborat?

g) Bitta probirkaga bromli suv, ikkinchisiga yodli suv, uchinchisiga suyultirilgan sulfat kislotasi bilan kislotali muhit hosil qilgan kaliy permanganat eritmasidan, to'rtinchi probirkaga kaliy dixromat eritmasidan quying. (Bu holda ham suyultirilgan sulfat kislotasi bilan kislotali muhit hosil qilinadi). So'ngra barcha probirkalarga H_2SO_3 eritmasidan quying. Barcha probirkalardagi erimalarning rangini o'zgarishiga e'tibor bering. To'rttala reakciya tenglamarini yozing va elektronlarning o'tish sxemasini tuzing. Bunda MnO_4^- ionni Mn^{2+} gacha, $\text{Cr}_2\text{O}_7^{2-}$ ionni Cr^{3+} gacha qaytarilishiga e'tibor bering. Bu tajribalarda H_2SO_3 qanday xossani namoyon qiladi?

Standart oksidlanish-qaytarilish potenciallari bilan tanishing va tegishli hisoblarini bajarib, H_2SO_3 ni xlor, brom, kaliy permanganat, kaliy dixromatlar bilan kislotali muhitda oksidlash mumkinligini isbotlang.

4. Fuksinni sulfit kislotasi bilan rangsizlanishi

Fuksinning suyultirilgan eritmasidan probirkaga ozroq oling va unga sul'fit kislotasi eritmasidan ozroq qo'shing. Nimani kuzatdingiz? Olingen eritmani qizdiring. Sodir bo'layotgan xodisani kuzating.

+day xollarda oqartirish maqsadida xlorga o'xshash kuchli oksidlovchilarga nisbatan SO_2 ni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi?

5. H_2SO_3 va uning tuzlariga reakciyalar

Yangi tayyorlangan H_2SO_3 yoki uning tuzi eritmasiga BaCl_2 eritmasidan quying. CHo'kmaga tushgan modda nima? Uning rangi qanday? CHo'kmani HCl da eruvchanligini sinab ko'ring. Reakciya tenglamarini yozing. CHo'kmani HCl da erish sababini tushuntiring.

Ko'p hollarda eritmada SO_4^{2-} ionni mavjud bo'ladi. Bunga sabab H_2SO_3 asta-sekinlik bilan H_2SO_4 gacha oksidlanadi va shuning uchun cho'kma to'la-to'kis erimaydi. SHuning uchun tajribani shunday o'tkazgan ma'qul: ikkita probirkaga oz-ozdan

cho'kmadan bir xil miqdorda soling va aralashtiring. Eritmaning birinchi probirkada loyqalanishi ikinchisiga nisbatan anchagina kam ekanligiga e'tibor bering.

6. Oltingugurt (VI) oksidining olinishi

(tajribani mo'rili shkafda o'tkazing)

a) Oltingugurt (VI) oksidini kontakt usulida olinishi. SO_2 bilan quruq bankani to'ldiring. To'ldirganingizdan so'ng havo kirishi uchun bankani bir oz qiyshaytiring va qopqog'ini yopib 2-3 marta to'nkaring (nimha uchun?). Temir qoshiqda platalangan asbestosni qizdiring va banka qopqog'ini ochib unga tezda tushiring. Platalangan asbestos atrofida oq tutun hosil bo'lismeni ko'zating. Bu reakciyada platina qanday rol o'yndaydi? Reakciya tenglamasini yozing.

b) SO_2 ni nitrat kislotosi bilan oksidlanganida sul'fat kislotosini hosil bo'lishi. Bankani SO_2 bilan to'ldiring va unga koncentrlangan nitrat kislotosi bilan ho'llangan shisha tayoqchani tushiring. Tuman hosil bo'lismeni va rangsiz nitrozilsul'fat kislotosining NOHSO_4 (shisha tayoqchada) kristallari hosil bo'lismeni kuzating. Kristallarni ozroq suvi bo'lgan probirkaga yuvib tushiring va hosil bo'lgan eritmaga ozroq BaCl_2 eritmasidan quying. Nimani kuzatdingiz? NOHSO_4 , sul'fat kislota hosil bo'lishi va uni aniqlash reakciyalarini yozing.

1-ILOVA.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Oltingugurt (IV) va (VI) oksidlarining grafik formulalarini yozing Kimyoviy bog' va gibridlanish turini ko'rsating.

2. Oltingugurt (IV) va (VI) oksidlarining kimyoviy xossalari izohlang. Molekulaning tuzilishi tushunchasini qo'llab, ularning farqini ko'rsating.

3. Oltingugurt (IV) va (VI) oksidlarini laboratoriyyada va sanoatda olish usullariga xos reakciyalarini yozing.

1.3. Bugungi o'tilishi kutilayotgan dars mashg'uloti mulokot tarzida bo'lishi ta'kidlanadi. Mulokotni kanday tashkil to'g'risidagi eslatmani ekranga chikaradi (1-ilova). "Baliq skleti" sxemasini to'ldirish tushuntiriladi.

1.4. "Klaster" metodi orkali talabalarni faollashtiradi. Berilgan savolga o'ylab javob berishni taklif kiladi (javoblar 1-2 so'zdan iborat bo'lishi kerakligini eslatadi): Bir talabaga javoblarni doskada yozib borishni taklif kiladi. Buning uchun 10 minutcha vakt ajratiladi. Belgilangan vakt tugagandan so'ng, fikr bildirishlar to'xtatiladi va javoblar tahlil kilinadi. (slayd)

1-ilova.

«Базик скелетини чизмаси



“KLASTER” METODI ORQALI TUSHUNTIRING:



Sul'fat kislotaning xossalari

(2 a), v), g) va d) tajribalarni mo'rili shkafda o'tkazing)

a) Koncentrlangan sul'fat kislotasini metallmaslar bilan reakciyasi.

CHinni idishda ehtiyyotlik bilan qizdirib konc. sul'fat kislotasi va metallmaslar orasida reakciya o'tkazing; birinchesida oltingugurt, ikkinchesida ko'mir bilan. Ehtiyyotlik bilan qanday gaz chiqayotganini xididan aniqlang. Reakciya tenglamalarini yozing. Bu reakciyalarda konc. sul'fat kislotasi qanday xossalarni namoyon qiladi.

b) Suyultirilgan sul'fat kislotani metallarga ta'siri. O'qituvchidan metall namunalaridan (mis, rux, temir, alyuminiiy va b.) oling. Ularni metallarning aktivligi qatoridagi o'rniiga ko'ra suyultirilgan H_2SO_4 bilan reakciyaga kirishi haqida mulohaza qiling. Tajriba yo'lli bilan suyul. 2n H_2SO_4 hamma olgan metallaringiz bilan reakciyaga kirishi yoki kirishmasligini isbotlang.

Reakciya turli tezliklarda sodir bo'lishiga e'tibor bering va standart elektrod potenciallar qiymatidan foydalanib olingen natijalarni izohlang. Reakciya natijasida qanday gaz chiqishini tajribada isbotlang. Reakciya tenglamasini molekulyar va ionli ko'rinishlarda yozing. Bu reakciyalarda qaysi ion oksidlovchi vazifasini o'taydi?

v) Koncentrlangan sul'fat kislotasini metallarga ta'siri

1) Probirkada kuchsiz qizdirib mis bilan konc. sulfat kislotasi orasida reakciya o'tkazing. Ehtiyyotlik bilan xididan qanday gaz ajralayotganini aniqlang.

Tajribadan so'ng probirkani sovitib eritmadaan 2-3 ml boshqa probirkaga quying, 5-6 ml suv solib chayqating. Eritma rangini aniqlang va eritmada qanday ion borligiga e'tibor bering. Mis bilan konc. sulfat kislotasi orasidagi reakciya tenglamasini yozing.

2) Koncentrlangan sulfat kislotani ruxga ta'sir ettiring. Probirkani bir oz qizdiring. Qanday gaz chiqayotganini ehtiyyotlik bilan xididan aniqlang. Qizdirishni davom ettiring. Eritmani loyqalanishini kuzating va sababini tushuntiring. Qo'rg'oshin tuzi bilan namlangan fil'tr qog'oz yordamida yoki ehtiyyotlik bilan xididan vodorod sulfid ajralayotganini aniqlang.

Rux bilan koncentrlangan sulfat kislotasi orasidagi reakciyanı sul'fat kislotasining qaytarilishi mahsulotlarini turlichaligiga e'tibor berib yozing. Elektronlarning o'tish sxemasini keltiring va koefitsientlar tanlaganiningizni tushuntiring.

Rux bilan misning konc. sulfat kislotasi bilan reaciyasidagi farqni standart elektrod potenciallari qiymatlarini o'zaro solishtirib tushuntiring.

Bu reakciyalarni metallarni suyultirilgan sulfat kislotasi bilan reakciyasidan principial farqi nimadan iborat?

g) Sulfat kislotasini degidratlash xossasi.

1) Sulfat kislotasining kletchatkaga ta'siri.

Sulfat kislotasining (1:1) eritmisi bilan shisha tayoqchani namlang va filtr qog'ozga nimanadir yozing va gaz alangasida quriting. Kletchatkaning umumiy formulasi ($\text{S}_6\text{N}_{10}\text{O}_5$)_x ekanligiga e'tibor berib, kuzatganinigizni izohlang.

2) Sulfat kislotasini shakarga ta'siri.

Hajmi 100-150 ml bo'lgan kimyoviy stakanga 10 g maydalangan shakar joylashtiring. 1 ml suv va 4-5 ml konc. H_2SO_4 quying. Bir xil massa hosil bo'lgunga qadar shisha tayoqcha bilan aralashiring va tayoqchani olmang. So'ngra sodir bo'layotgan xodisani kuzating. SHakarning formulasi $\text{S}_{12}\text{N}_{22}\text{O}_{11}$ ekanligini e'tiborga olib reakciya tenglamasini yozing. CHiqayotgan gazlardan qaysi birini xididan bilsa bo'ladi? Ehtiyyot bo'ling.

d) Sul'fat kislotasini boshqa kislotalarning tuzlari bilan ta'sirlashishi. Laboratoriya da bor tuzlardan foydalanib, ularning qaysilari koncentrlangan sul'fat kislotasi bilan reakciyaga kirishishi mumkinligini aniqlang. Probirkaga ozroq qatiq tuzdan joylashtiring. Koncentrlangan sulfat kislotasidan qo'shib, suv hammonida qizdiring. Ajralib chiqayotgan uchuvchan moddalarning rangiga va ehtiyyotlik bilan xidiga e'tibor bering. Ho'llangan indikator qog'ozi bilan hosil bo'lgan moddalarning xarakterini aniqlang. Reakciya tenglamalarini yozing va izohlang.

8. SO_4^{2-} ioniga reakciya

Tuzlarning eruvchanlik jadvalidan foydalanib qaysi kationlar SO_4^{2-} ionini aniqlashga qo'llanishi mumkinligini aniqlang. Tegishli tajribalarni o'tkazing, cho'kmalarning rangiga va ko'rinishiga e'tibor bering.

Reakciya tenglamalarini molekulyar va ionli ko'rinishda yozing. Hosil qilingan cho'kmalarni HSI ga munosabatini tekshiring. HCl ning VaSO_3 va VaSO_4 ga ta'sirini solishtiring va tushuntiring.

9. Sulfatlarning termik barqarorligi

1. Kichkina chinni idish yoki tigelga 1-2 g natriy gidrosul'fat tuzidan soling va ehtiyyotlik bilan qizdiring. Bunda qanday birikmalar hosil bo'ladi? Reakciya tenglamasini yozing.

2. CHinni tigelning qopqog'iga temir kuperosi kristallaridan bir nechtasini soling va oldiniga ularni qizdirting, so'ngra kuchli qizdiring, kristallar tepasida suv

bilan ho'llangan lakmus qog'ozini ushlab turing. Nimani kuzatdingiz? Reakciya tenglamasini yozing.

3. SHunga o'xhash tajribani gips va glauber tuzi bilan o'tkazing. Tarkibida kislороди bo'lган tuzlarning va ularga mos kislotalarning termik barqarorligining turlichaligi nimadan bog'liq bo'ladi?

10. Natriy tiosul'fatning olinishi va xossalari

a) Natriy tiosulfatni olinishi.

Kolbada 10 g natriy sul'fitni 20 ml suvda qizdirib eriting. Kolbaga 3-4 g spirt bilan ho'llangan oltingugurt soling va aralashmani qaynaguncha qizdiring. Past olovda 10-15 min qaynatib (agar reakciya tugagan bo'lsa, muhit lakmusga ko'ra neytral bo'ladi), issiq eritmani reakciyaga kirmagan oltingugurtdan filtrlab chinni kosachaga ajrating va suv hammomida kristallanish boshlangunga qadar bug'latung. So'ngra eritmani qor (muz) bilan soviting va cho'kmaga tushgan kristallarni Byuxner voronkasida ajratib oling. Voronkani toza filtr qog'ozga to'nkaring va voronkani chertib kristallarni uning filtr qog'izi bilan yoping va kaftingiz bilan siqib eritmaning oxirgi tomchilarini yo'qoting. So'ngra kristallarni havoda 10-15 min qoldiring va vaqtqi-vaqtli bilan shisha tayoqcha bilan aralashtirib turing. Agar kristalllar quruq bo'lsa, ular shisha tayoqchaga yopishmaydilar. Reakciya tenglamasini yozing. Olingen quruq natriy tiosul'fat kristallarini torting va reakciya unumini foizda hisoblang. Olingen moddani b) tajriba uchun qo'llash mumkin.

b) Natriy tiosulfatning qaytaruvchilik xossasi.

Ikkita natriy tiosulfat eritmasi solingan probirkaga qo'shing: biriga xlorli suv, ikkinchisiga bromli suv. Eritmada SO_4^{2-} ioni borligini isbotlang. Ular qanday qilib hosil bo'ladilar? Natriy tiosulfatni suv ishtirokida xlor va brom bilan reakciya tenglamasini va elektron o'tish sxemasini yozing.

Natriy tiosulfat eritmasiga ozroq kraxmal eritmasidan quying va ustiga tomchilatib yodli suv quying. Nima uchun yodning rangi yo'qoladi? Natriy tiosulfat bilan yod orasidagi reakciya tenglamasini natriy tetratsionat $\text{Na}_2\text{S}_4\text{O}_6$ hosil bo'lishini nazarga olib holda yozing. Elektronlarning o'tish sxemasini tuzing. Yodli suvni eritma hova rangga kirdguncha quying. Olingen natijani izohlang.

3-ilova.

Nazorat savollari.

1. Sulfat kislotasining grafik formulasini yozing. Kimyoviy bog' xarakterini, gibridlanish turini, oltingugurning koordinacion sonini ko'rsating.

2.Sulfat kislotasi oksidlovchi-qaytaruvchilik reakciyasida qanday vazifani bajarishi mumkin? Tushuntiring, misollar keltiring.


3.Koneentrangan va suyutirilgan sulfat kislotasining metallar bilan reakciyasidagi mexanizm farqlari nimadan iborat? Tegishli reakciya tenglamalarini va elektronlar o'tish sxemasini yozing.

4.Natriy tiosulfatning grafik formulasini yozing, oltingugurt atomlarining oksidlanish darajalarini ko'rsating. Natriy tiosulfat oksidlanish-qaytarilish jarayonida qanday vazifani bajaradi? Tegishli reakciya tenglamalarini keltiring.

Galogenlar mavzusini o'qitishda eksperimentdan foydalanish



							He
			B	C	N	O	F
			Al	Si	P	S	Cl
							Ne
Ni	Cu	Zn	Ga	Ge	As	Se	Br
Pd	Ag	Cd	In	Sn	Sb	Te	I
Pt	Au	Hg	Tl	Pb	Bi	Po	At
Ds	Rg	Cn	Uut	Uuq	Uup	Uuh	Uus
							Rn
							Uuo



Xnor	Qaynash t
	Ftor -188°C
	xnor -35°C
Brom	Brom 59°C
	yod 184°C
	astat 337°C

Metodik usullar

Namoyish (ko'rgazmali,
obyektiv – tajriba, amaliy va
aqliy harakatni namoyish
etish, hokazolar)

Masalani o'rgatish

Topshiriq berish

Yo'l-yo'riq ko'rsatish

Metodik usullarning turlari

Cu va uning birikmalarini o'qitishning vositalarini ishlab chiqish
Mis





Qadimgi vaqtarda asl metallar: oltin va kumush hamda misdan to'lov vositalari bo'lgan pul birliklari tayyorlanib, turmushda ishlatalig'an.



Zn va uning birikmalarini o'qitishning vositalarini ishlab chiqish




Fe va uning birikmalarini o'qitishning vositalarini ishlab chiqish



Ko'rgazmali qurollar, texnik vositalar foydalanish


- Nazariy darslarda ta'lif beruvchilar asosan matnli va yordamchi vositalardan, misol uchun darsliidalar va tarqatma materiallardan va texnik vositalardan foydalanadilar. Amaliy mashg'ulotlarda ular ko'proq tasvirli va real vositalardan, ya'ni eskit, chizmalar, asbob-uskunalardan foydalanadilar.
- Ovoz va toyusbli (audio), shuningdek, tasviriy tasavvurlarni shakllantiradigan audiovizual vositalar jarayonlar va variyfalar to'g'risidagi keng qamrovli real tasavvurlarni vujudga keltiradi.
- Yordamchi vositalar buning aksi o'laroq tasvir va matnlarni yozib olish va saqlash imkonini beradi. Ular doska, flipchart, pinbord doskasi, kodoskop, videoproyektor kabilardir.
- Ish sohasiga tegishli real narsalar, ya'ni mahsulotlar, asboblar va boshqalar dars paytidagi didaktik funksiyaga ega bo'lsa, o'quv vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin.

Toza temir kumushsimon oq rangli havoda tezda xiralashuvchi, yetarlicha yumshoq va bolg'alanuvchan issiqlik va elektr tokini yaxshi o'tkazadi







Havoda qizdirilganda temir oksidlari aralashmasi temir kuyindisini hosil qiladi:



Temir qizdirilganda xlor, oltingugurt, uglerod, azot bilan reaksiyaga kirishadi:



Mustaqil ish. Bo`g`irsoqni uyan yetib kelishiga yordam bering!



Eksperimental masalalar yechish tajribalarini bajarish

Kimyoda eksperimental masala yechish deganda tajriba asosida noma'lum moddalarning o'Ichovini topish tushuniladi.

Masala - bu kundalik hayotimizda uchraydigan vaziyatlarning tabiiy tildagi ifodasidir. Masala asosan uch qismdan iborat bo'ladi.

1. Masalaning sharti - o'rganilayotgan vaziyatni xarakterlovchi ma'lum va no'malum miqdoriy qiyamatlar hamda ular orasidagi miqdoriy munosabatlar haqidagi ma'lumot demakdir.

2. Masalaning talabi - masala shartidagi miqdoriy munosabatlarga nimani topish kerakligini ifodalash demakdir.

3. Masalaning operatori - masala talabini bajarish uchun shartdagi miqdoriy munosabatlarga nisbatan bajariladigan amallar yig'indisi. Tenglama tuzish orqali masala yechish, masala talabida so'ralsan miqdorni imkoniyati boricha biror harf bilan belgilash, masala shartida qatnashayotgan boshqa miqdorlarni belgilangan harf orqali ifodalash, masala shartida ko'rsatil-gan miqdoriy munosabatlarni, amallarning mantiqan to'g'ri ketma-ketligi orqali ifodalaydigan tenglama tuzish va uni yechish orqali masalaning talabini bajarish demakdir. Masalalarni tenglama tuzish orqali yechishni quyidagi ketma-ketlik asosida olib borish maqsadga muvofiqdir.

1. Masala talabida so'ralsan miqdorni, ya'ni noma'lum miqdorni harf bilan belgilash.

2. Bu harf yordamida boshqa no'malumlarni ifodalash.

3. Masala shartini qanoatlantiruvchi tenglama tuzish.

4. Tenglamani yechish.

5. Tenglama yechimini masala sharti bo'yicha tekshirish.

Ko'rgazmali qurollar tayyorlash.

Didaktik vositalar ishlab chiqish: davriy jadvaldag'i o'rni va xossalari aks ettiruvchi plakatlar, videorolik, taqdimot, testlar, savollar, grafik organayzerlar, loyiha ishi, oyinli texnologiyalar- krossvord, qiziqarli ma'lumotlar, tarixiy ma'lumotlar, rasmlar, bukletlar, referatlar, kartochkalar, masalalar tuzish maqsadga muvofiqdir.

Eng ommaviy interfaol TT quyidagilar sanaladi

Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blits-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Munosabat", "Reja", "Suhbat" va b.

2. Strategiyalar: "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinamazinga", "Muzyorar", "Rotatsiya", "T-jadval", "YUmal oqlangan qor" va h.k.

3. Grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BBB", "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va b.

Interfaol ta'lim metodlari va ularni qo'llash tartibi. Ayni o'rinda bir guruh interfaol ta'lim metodlari va ularni ta'lim amaliyotida qo'llash tartibi to'g'risida so'z yuritiladi.


Kompyuter darsi dasturiga nazorat testlarini kiritishni o'rganish.

Kompyuterda foydalanish mumkin bo'lgan 3D elektron kitob yaratishni o'rganamiz. Oldingi maqola Android uchun kitob tayyorlash edi, bu maqola davomi bo'ladi. Yaratmoqchi bo'lgan kitobimizni boshqa dasturlarda ochmasdan to'g'ridan-to'g'ri foydalanishimiz mumkin. Qiziqarli tomoni bu kitobni sichqoncha yordamida varaqlab, oddiy kitobni varaqlaganday o'qish mumkin.

Kitob yaratishimiz uchun bizga iSpring dasturlar to'plami kerak bo'ladi. Bu dastur pullik bo'lib, <https://www.ispringsolutions.com> rasmiy saytidan yuklab olishingiz mumkin. iSpring dasturlar to'plami ta'lim sohasida ko'p foydalaniladigan eng yaxshi dasturlardan biri. Bir nechta dasturlar jamlanmasi bo'lib, elektron darsliklar, qiziqarli har xil testlar, video darslar va boshqa virtual ta'lim texnologiyalarini yaratishda foydalaniladi.

Dasturni o'rnatib bo'lgandan so'ng bosh menyudan iSpring Kinetics ni ishga tushiramiz va "Книга" yozuviga ustida bosamiz.

Kompyuter darslari uchun multiplikatsiya materiallarini tayyorlash va dars dasturiga kiritish.



Kompyuter darsi – tegishli o'quv fani bo'yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimedya, virtual o'quv kursi va shu kabilar) asosida o'tiladigan dars.

Bugungi kun uzlusiz ta'lrim tizimida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarni yanada takomillashtirish uchun kompyuter texnologiyasini ta'lim jarayonidagi o'mni, uning pedagogik va psixologik xususiyatlarini ilmiy-tadqiqot misolida yoritish, kompyuter vositalaridan foydalanishga bo'lgan e'tibor va ehtiyoj darajalarini yana bir bora ko'rib chiqishni talab etadi.

Buning uchun:

- ta'lim tizimida kompyuter texnologiyalari o'mini aniqlash;
- kompyuter yordamida o'quvchining tafakkuri va dunyoqarashining o'zgarishini,

xotirasining shakllanishida kompyuterning samaradorligi qanday rol o'ynashini aniqlash:

- «kompyuter — o'yinchoq» va «kompyuter — bilim olish vositasi» atamalari orasidagi chegaralarni aniqlash;
- o'quvchilarning o'quv jarayonida ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirish metodlarini aniqlash.

Umumiy o'rta ta'lif maktablari o'quv predmetlarini kompyuterlashtirishda quyidagi vazifalar belgilab olinadi:

1. O'quv rejali, konspektlar va kichik didaktik materiallarni tayyorlashda kompyuterdan foydalanishni yo'lga qo'yish.
2. Fan, mavzularning ko'rgazmalilik sifatini, o'rganilayotgan obyektning illyustrativ va animatsion imkoniyatlarini oshirish maqsadida mavjud elektron darslik va ta'lifimy dasturlardan foydalanishni yo'lga qo'yish.
3. Namoyish qilish vositalarini yaratishda Microsoft Power Point, Microsoft Publisher, Adobe Potoshop, Movie Maker kabi standart dasturlar va dasturiy resurslardan unumli foydalanish.
4. Ma'lumot va axborot almashinishda Internet tizimidan unumli foydalanish.

Umumiy o'rta ta'lif maktablarining ko'pgina predmetlari uchun elektron darslik va multimedia vositalari yaratilgan bo'lib, endilikda o'quv jarayonini kompyuterlashgan muhitda tashkil etishga bo'lgan e'tibor ancha kuchaytirildi. Multimedia vositalari kompyuter yordamida o'rganilayotgan mavzularni tez va oson o'zlashtirishga yordam beribgina qolmasdan, balki o'qituvchiga ko'plab imkoniyatlar yaratib berishi bilan ajralib turadi.

Kompyuter yordamida multimediali jihozlardan foydalanishda o'quvchi jarayonning ovozini, uni tabiiy harakatlарини, o'ziga xos xarakterli belgilарини o'rganib boradi. Moddaning tuzilishi va xossalарини o'rganishda ham kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Kimyo darslarida multimedia vositalaridan foydalanish va ularni tatbiq etish davomida o'quv jarayonida o'ziga xos yangi usul vujudga keladi. Ularni o'quv materiallарини ko'rgazmalilигини oshishi, o'quvchilarning bilim samarasini nazorat qilish imkoniyatining paydo bo'lishi, o'qituvchining o'z ish faoliyatini yangi uslub va usullar asosida tashkil etishga yondashuvlar bilan bevosita izohlash mumkin

O'rganiladigan mavzularning murakkablashib borishi, hayvon organizmining mukammalashishi bilan ular tanasida organlar, ularning vazifasi ham o'ziga xos tarzda o'zgarib borishi o'quvchini biroz «qiyinab» qo'yadi.

O'quvchilarga mavzu yuzasidan ma'lumotlarni kompyuter yordamida qabul qilishga bo'lgan qiziqishlarini va bevosita zoologiya dars samaradorligini oshirishda undan foydalanishni hisobga olgan holda, o'zlashtirish qiyin bo'lgan mavzularni kompyuter vositalari asosida tatbiq etish imkoniyatlari o'rganildi va amalga oshirildi.

Kimyo darsligidagi mavzularni belgilab olish, ular har tomonlama o'rganilib, zaruri materiallar tanlash asosida kompyuterlashgan dars ishlamalari dasturlashtiriladi.

Multimedia vositalarida eritmalar xossasini o'zida mujassam etgan ma'lumotlar jamlanmasi, test topshiriqlari, topishmoqlardan keng foydalanilgan. Unga ko'ra har

bir o'quv jarayonida mazkur materiallar o'quvchi bilim va ko'nikmalarini rivojlanirishga, uning dars mavzusidan tashqari ham qo'shimcha ma'lumotlar olishiga imkon yaratadi.

Tadqiqot ishlari davomida multimedia vositalaridan foydalanish davomida o'quv jarayoni va biologiya darslarining sifat samaradorligi oshganligini o'quvchilarning mavzular yuzasidan olgan bilimlarining sifat ko'r-satkichlarini yuqori darajaga ko'tarilganligi bilan izohlash mumkin.

7-LABORATORIYA MASHG'ULOTI. KISLOROD, HAVO, YONISH MAVZUNI O'QITISHGA OID TAJRIBALARNI O'RGGATISH

Reja:

1. Kislorod, havo, yonish mavzusi bo'yisha dastlabki tushunchalarni berish.
2. Kislorod, havo, yonish mavzusi bo'yisha tajribalar o'tkazishni o'rgatish
3. Xulosa yozish

Darsning maqsadi: laboratoriya mashg'uloti bo'yicha yangi ilmiy bilimlar berish Talabalarni tajribalar o'kazish malaka va ko'nikmasini oshirish. Innavatsion texnologiyalarni dars jarayoniga tadbiq qilish

Laboratoriya mashg'ulotining vazifasi: talabalarga mavzuning mohiyatini tushuntirib, tajribalar o'tkazishni o'rgatish.

O'quv faoliyatining natijasi: Talabalar tanlangan mavzu bo'yicha yetarlicha malaka hosil qiladilarva shu mavzu bo'yicha tajribalar bajarib ko'rsatishni o'rgnadilar.

Darsni talabalarga umumiyo o'rta ta'lim maktabidagi 7-sinfning taqvim mavzu rejasida berilgan kisloroning olinishi, kislorodning kimyoviy xossalari hamda yonish mavzularida ko'rsatilgan tajribalarni tushuntirib, bajarib ko'rsatishdan boshlaymiz.

Atmosfera havosi ko'plab gazlarning tabiiy aralashmasi hisoblanadi. Havoning tarkibi quyidagi

Dengiz sathida quruq havo tarkibi (% larda)

Gazlar	N ₂	O ₂	CO ₂	H ₂	Ar	Ne	He	Kr	Xe
Hajm bo'yicha	78,03	20,99	0,03	0,01	0,933	0,00161	0,00046	0,00011	0,00008
Massa bo'yicha	75,6	23,1	0,046	0,0007	1,253	0,00012	0,00007	0,0003	0,00004


Bundan tashqahi havoning tarkibida suv.chang va ba'zi tasodifiy qo'shimchalar ham mavjud.

Laboratoyiyada kislorodning olinishiga xos tajribalar:

a) Kaliy permanganatni qizdirib parchalash:



b) Bertolye tuzini katalizator (MnO_2) ishtirokida qizdirib parchalash:



v) Ishqoriy metall nitratlarini qizdirib parchalash: $2\text{NaNO}_3 = 2\text{NaNO}_2 + \text{O}_2$

g) Suvni elektroliz qilish (bu usul bilan toza kislorod olinadi): $2\text{H}_2\text{O} = 2\text{H}_2 + \text{O}_2$

d) Vodorod peroksidini MnO_2 katalizatori ishtirokida parchalash: $2\text{H}_2\text{O} = 2\text{H}_2 + \text{O}_2$

Kislorod Au, Ag, Pt va platina qatori metallardan tashqari deyarli barcha metallar bilan turli sharoitlarda reaksiyaga kirishib oksidlarni hosil qiladi. Masalan, Mg, Al, Fe, Ca, Na. Moddalarning kislorod bilan reaksiyaga kirishishi yonish deyiladi.

Nazorat uchun savollar.

1. Metallarning kislorodda yonishini misollar asosida tushuntirib bering.
2. Metalmaslarning kislorodda yonishini misollar asosida tushuntirib bering.
3. Sekin oksidlanish nima?
4. Kislorod muhim biogan element hisoblanadi. Buni siz qanday izohlaysiz?

Xulosa yozish

8-LABORATORIYA MASHG'ULOTI.

MAVZU: KIMYO MAVZULARIGA MONOLOGIK VA DIALOGIK METODLAR TADBIQI

Reja:

1. Kimyo mavzulariga monologik metodlarning tadbiqi.
2. Kimyo mavzularida dialogik metodlarning tadbiqi
3. Hisobot yozish.

Darsning maqsadi: laboratoriya mashg'uloti bo'yicha yangi ilmiy bilimlar berish. Innovatsion texnologiyalarni dars jarayoniga tadbiq qilish

Laboratoriya mashg'ulotining vazifasi: mavzu bo'yicha umumiy tushuncha berish. Talabalarga har bir darsda o'tiladigan mavzu bo'yicha monologik va dialogik metodlarni qo'llab dar o'tishni o'rgatish .

O'quv faoliyatining natijasi: Talabalar tanlangan mavzu bo'yicha yetarlicha malaka hosil qiladilar. Masalan, mavzuning eng muhim joylarini tushuntirishda monologik metod o'tgan mavzu bilan bog'liqlik tomonlarini tushuntirishda dialogik metodlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Darsning mazmuni: Talabalarga kimyoviy hodisalarning qoidasini ya’ni “Molekulasi o’zgarishi bilan boradigan, orqaga qaytmaydigan hodisalar kimyoviy hodisalar deyiladi”-deb qoidani monologik metod bilan tushuntirilsa, kimyoviy hodisalarga misollar keltirshni o’quvchilardan dialogik metod bilan aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Yangi mavzuning bayoni: Monologik metodning mohiyati bir kishi tomonidan mavzuning mohiyatini aytib tushuntirilishidir. O’qituvchi hamma darsida faqat monologik metodni qo’llab dars o’tsa, dars zerikarli bo’lib, o’quvchilar darsda e’tiborsiz o’tiradilar. Dialogik metod mavzuni mohiyatini savol-javob asosida o’quvchilarga tushuntirishdir. Agar darsni faqat dialogi metod orqali olib borilsa, sinfda shovqin bo’lib, dars maqsadiga yetmaydi. Shuning uchun har bir darsda o’qituvchi iloji boricha har ikkala metoddan ham o’z o’mida foydalansa darsning samadadorligi ortadi.

Yangi mavzuni mustahkamlash: Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida talabalar Klaster tuzadilar unda mavzularni o’tishda monologik va dialogik metodlarni tadbiq etishni ko’rsatadilar.

Nazorat uchun savollar:

1. Siz qanday dars metodlarini bilasiz?
2. 10-sinfda “Oqsillar” mavzusini o’tishda siz qaysi metodni ko’proq qo’llagan bo’lardingiz. Monologik metodnimi yoki dialogik metodnimi?

Xulosa yozish

AMALIY MASHG’ULOT MAVZULARI

Kimyoda amaliy mashg’ulotlar. O’quvchilarda kimyoviy ko’nikmalarning shakllanishi.

Amaliy mashg’ulotlarda ko’nikma va malakalarni shakllantirishga juda katta diqqat qaratiladi. Ular kimyo o’qitishni boshlanishidayoq amalga oshiriladi. Kimyoviy ko’nikma va malakalarni shakllantirish aniq tizim asosida olib boriladi. Dastavval qizdiruvchi asboblar bilan ishslash ko’nikmalarni hosil qilinadi, laboratoriya texnikasi o’rganib boriladi, ya’ni moddalarni qizdirish, aralashmalardagi moddalarni bir-biridan ajratish, texnika xavfsizlik qoidalarini o’rganish, so’ngra murakkab moddani parchalanib, oddiy moddalarni olish va ularning xossasini tekshirish. Keyingi bosqich murakkab moddalarni olish, masalan, mis(II) sulfatni eritmadan ajratib olish va aksincha quruq moddadan eritma tayyorlash.

O'quvchilarning keyingi ishlari miqdoriy tajribalarini o'tkazishga qaratiladi. Tarozidan foydalanish, o'lchov asboblaridan foydalanib tajribalar o'tkazish va eksperimental masalalar yechishdan iboratdir. Amaliy mashg'ulotlar ikki ko'rinishda bo'ladi: 1-instruksiya yoki tarqatma material asosida bajariladigan tajribalar.

2- eksperimental masalalar yechish.

Instruksiya bu – bajariladigan tajribaning yoki tajriba bajaradigan qurilmaning tavsloti bo'lib u amaliyat qo'llanmalarida beriladi. Unda tajribani o'tkazish xavfsizligi choralarito'g'risida axborot bo'ladi. Lekin instruksiya yordamida ishni bajarish kamlik qiladi.

Shuning uchun tajribani bajarishni juda aniq amalga oshirish amaliy ishga tayyoragarlik vaqtida ko'rsatiladi.

Reaksiyaning borish sharoiti oydinlashtirilishi kerak. Amaliy mashg'ulotni o'tkazishdan avval o'quvchilarni qurilmalarni tuzish, unda tajriba o'tkazish, ishning maqsad va vazifasi bilan tanishtiriladi. Uyda yozib kelingan tavslotlarga anqlik kiritiladi. Tajribaning maqsadi va uning natijasi tushuntiriladi.

Amaliy mashg'ulotda dars boshlanguniga qadar xavfsizlik texnikasi to'g'risida suhbat o'tkaziladi.

Demonstratsion stolda yig'ilgan holatdagi reaksiyon qurilmasi joylashtirilgan bo'ladi. Undan o'quvchilar amaliy ish tajribalarini bajarish uchun foydalilanildilar.

Amaliy ishning hisobati unga tutilgan daftarda aniq yozilishi kerak. Unda
Ishning mavzusi

Tajribaning nomi va bajarilishi quyidagi jadval bo'yicha to'ldiriladi.

Tajribaning maqsadi	Bajarish tartibi	Kuzatish asbobining rasmi	Xulosa va reaksiya tenglamasi

--	--	--

Bular tajribadan so'ng o'z vaqtida to'ldirilishi kerak. O'qituvchilarning amaliy ish to'g'risidagi hisobati asosida ularga baho qo'yiladi.

Eksperimental masalalar yechishga oid amaliy mashg'ulotlar ko'rib chiqilgan instruksiya yordamida tajribalar bajarilishga qaraganda boshqacharoq bo'ladi.

Eksperimental masalalar. Unda tajriba o'tkazish instruksiyasi bo'lmaydi, balki masalaning sharti kiritiladi. Masalaning yechish rejasini ishlab chiqish va uni amalga oshirishni o'quvchilar mustaqil bajarishi kerak. Eksperimental masalalar yechishga o'quvchilarni tayyorlash quyidagi bosqichlarda bo'ladi:

1-Dastavval butun sinf bo'yicha masala nazariy yechiladi, buning uchun masalaning shartini tahlil qilish zarurdir.

2- O'quvchilardan bir doskaga chiqib, masalaning nazariy yechimini ko'rsatadi.

3- Biron-bir o'quvchi doskaga chiqib tajriba bajaradi. Bundan so'ng hamma o'quvchilar o'z joylarida shunga o'xshash masalani eksperimental yechishga kirishadilar.

4- O'quvchilarning faolligi va mustaqil tajriba bajarishiga erishishi uchun eksperimental tajribalarni bir necha variantlarda bajarish muhim hisoblanadi.

Eksperimental masalalarni to'g'ri yoki noto'g'ri yechilganligi o'qituvchining nazorati asosida aniqlanadi.

Amaliy mashg'ulotlar mul'timedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akadem. guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, "Keys-stadi" texnologiyasi ishlatiladi, keyslar mazmuni o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar mul'timedia qurilmalari yordamida uzatiladi

IHSOBLASHIQA OID MASALARAR YECHISH METODIKASINI O'RGANISH.

Sodda va murakkab masalalar o'quvchilar bilimlarini mukammallashtirishga xizmat qiladi. Ko'pgina masalalar bir necha usul bilan yechiladi. Bunday masalalarni yechishda tartibga rioya qilish bir usul bilan masala yechishni yaxshi o'zlashtirib olgandan keyingina yangi usulga o'tishi lozim. Bir necha usuldan eng o'ng'ayini, maqsadga muvofig'ini tanlab olish kerak. Masala yechish ishi masala yechish metodini yaxshi tushunishga yordam beradi, o'quvchilarning tashabbuskorligini, masala yechish usullariga nisbatan topqirlik qobiliyatini rivojlantiradi.

Masala yechishga o'rnatishning muhimligi shundan iboratki, o'qituvchi o'zining asosiy e'tiborini matnli masalalar mazmunini matematika tiliga ko'chirishga qaratmog'i lozim. Masalalar yechishdagi hisoblash ishlari sonli masalalarni yechish malakalarini shakllantirish mashq qilishga nisbatan kamroq vaqtini talab qiladi. Masalan, biz o'quvchilarga masalaning yechimlari haqida to'liq tushuncha bergenimizdan so'ng, bu yechgan masalamizning o'quvchi tushunib yecha olishi uchun biz masalaning eng ratsional qismini aniqlab va shu usulda masala yechishga ko'proq o'quvchini jalb qilishimiz kerak. Masalalalar yechish avvalo, mukammal matematik tushunchalarni shakllantirish, ularning dasturda belgilab berilgan nazariy bilimlarni o'zlashtirishlarida favqulodda muhim ahamiyatga ega. Masalan, agar biz o'quvchilarga qo'shish haqida to'g'ri tushuncha shakllantirishni xohlasak, buning uchun bolalar yigindini topishga doir yetarli miqdorda sodda masalalarni deyarli har gal to'plamlarni birlashtirish amalini bajarib yechish lozim.

KIMYODA MAVZULARNI O'QITISHGA INNOVATSION– INTERAKTIV O'QITISH METODLARINI JORIY QILISH

Hozirgi davr ta'lif taraqqiyoti yangi yo'nalish-innovatsion faoliyatni maydonga olib chiqdi. «Innovatsion pedagogika» termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar XX asming 60-yillarda G'arbiy Yevropa va AQShda paydo bo'lgan. Dastlab innovatsion faoliyat F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I. Zagvyazinskiy, V.A. Kan-Kalik, N.V. Kuzmina, V.A. Slatenin, A.I. SHerbakov ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg'or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritilgan. X. Barnet, Dj. Basset, D. Gamilton, N. Gross, M. Mayez, A. Xeyvlok, D. Chen, R. Edem ishlarida innovatsion taraqqiyotlarni boshqarish, ta'lidagi o'zgarishlarni tashkil etish, innovatsiyaning «Hayoti va faoliyat» uchun zarur bo'lgan shart sharoitlar masalalari tahlil qilingan.

Yangilik kiritishning psixologik aspekti amerikalik innovativ olimlardan biri E. Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifalari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etgan. Axborot - yuksak rivojlangan texnologiyalar asri deb yuritilayotgan XXI asrga kelib, ta'limgarjarayoniga innovatsiyani keng joriy qilish masalasiga e'tibor yanada kuchaytirildi. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda innovatsiya boshqa sohalarga qaraganda birinchilardan bo'lib ta'limgartizimiga kirib keldi va innovatsiyani ta'limgartarayonida qanday o'z aksini topganligini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin. Pedagogik fanlar tizimiga innovatsiyaning kirib kelishini pedagogika fanlari tarkibiga quyidagi:

- a) Gendr pedagogikasi;
- b) Evristik pedagogika;
- v) Majburiy pedagogika;

g) Androgogik pedagogika kabi fanlarning kirib kelishi bilan belgilandi. O'qitish tizimiga innovatsiyaning kirib kelishini ta'limgartazmunda, o'qitish metodlarida, dars shakli, o'qitish turlari, o'qitish vositalarida ko'rishimiz mumkin. Ta'limgartazmunda innovatsiya an'anaviy, noan'anaviy va masofaviy o'qitish turlarining kirib kelishi bilan izohlanadi. O'qitish metodlariga innovatsiya aktiv, passiv va interaktiv metodlarining kirib kelishi misolida ko'ramiz. Aktiv metodni qo'llash talabalarni dars jarayonidagi faolligini oshirishga xizmat qilsa, passiv metod talabalarni bir tomonlama tushuncha berilishi bilan izohlanadi. Interaktiv metod esa birgalikda faol harakat qilishi (o'qituvchi bilan talaba, talaba bilan talaba) tushuniladi.

- Dars shakliga innovatsiyani kirib kelishini standart, nostonart hamda virtual dars shakllari misolida ko'rishimiz mumkin. O'qitish turlaridagi innovatsiyani muammoli ta'limgart, evristik ta'limgart, darajalangan ta'limgart, integratsiyalangan ta'limgart, interfaol ta'limgart, informal ta'limgart, rasmiy ta'limgart, norasmiy ta'limgart turlari bilan izohlanadi.

- O'qitish vositalariga innovatsiyani kirib kelishini dars jarayonida multimedia, elektron doskalar va boshqa vositalar bilan izohlaymiz. O'qitish metodlaridagi innovatsiyani quyidagi metodlarda ko'rishimiz mumkin.

1. Aktiv metod. Bu metod ni dars jarayonida faollashuviga, ma'lum bir holat va voqelikga nisbatan fikrlashga-muloxaza yuritishga undaydi.

2. Passiv metod. Bu metod dars jarayonida talabalarda o'rganilayotgan mavzu bo'yicha bir tomonlama tushuncha hosil bo'lisinga olib keladi. 3. Interaktiv metod. Bu metodni maqsadi dars jarayonida o'qituvchi va talabalarni birgalikdagi faol xatti-

harakatlariga asoslanadi. Dars shaklidagi innovatsiyani quyidagi shaklda ko'rishimiz mumkin.

- a) Standart dars – dars ichidagi struktura o'zgarmaydi.
- b) Nostandart dars – dars ichidagi struktura o'zgaradi.
- d) Virtual dars – yani masofadan o'qitish.

Pedagogik innovatsiyada "Yangi" tushunchasi markaziy o'rinni tutadi. Shuningdek, pedagogik fonda xususiy, shartli, mahalliy va sub'ektiv yangilikka qiziqish uyg'otadi. Xususiy yangilik V.A.Slasteninning aniqlashicha, joriy zamонавиylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko'zda tutadi. Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma'lum unsurlarning yig'indisi shartli yangilik hisoblanadi. Yangilik - bu vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar.

V.I. Zagvyazinskiy yangi tushunchasiga ta'rif berib, pedagogikadagi yangi bu faqatgina g'oya emas, balki hali foydalilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir, lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmuan yoki alohida olingan unsurlari bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoitda va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg'or boshlanmalarini o'zida aks ettiradi.

R.N. Yususbekova pedagogik yangilikka o'qitish va tarbiya berishda avval ma'lum bo'limgan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyatga eltuvchi pedagogik voqeqlikning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni sifatida qaraydi. Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iborat bo'lib, innovatsiya jarayonlari, ularning funktsiyalari, rivojlanish qonuniyatları, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish oliv o'quv yurti o'quv o'quv jarayonini zamонавиy pedagogika hamda psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

KIMYODA MAVZULARNI O'QITISHGA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI JORIY QILISH.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) biznes, iqtisodiyot, sayohat, nashriyot, ta'limning asosiy sohalarida tubdan o'zgarishlarga olib keldi. AKT globallashuvga ta'sir etadigan, butun dunyoni yagona yaxlit qiladigan kuch va imkoniyatlarga ega. AKTning o'quv jarayoniga integratsiyasi yangi imkoniyatlar yaratadi hamda o'qituvchilar oldida yangi vazifalar qo'yadi. Biz bo'r va sinf taxtasidan foydalinish usulini proektorlar, yanada dinamik texnologiyalar, axborotni

izlash va u bilan ishslash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga almashtirishimiz kerak.

Kimyo fan sifatida yuqori darajadagi abstrakt mazmunga ega. Kimyoda biz kimyoviy voqealarni “makro-darajada” kuzatamiz, “mikro-darajada” talqin qilamiz va tushuntiramiz, so‘ngra “ramziy darajada” (formula, tenglama, grafik va b.asosida) taqdim etamiz. Haqiqatan ham o‘quvchi uchun bilimlar va mazmunning uch darajasini muvosiflashtirish juda murakkab. Bugungi kunda veb va interakti o‘qitish, animatsiya, modellashtirish va b.dan foydalanish imkonini berayotgan AKT sohasida erishigan taraqqiyot kimyo fanini tushunishni engillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Biz internet resurslaridan onlayn rejimida ochiq axborotlardan foydalanishimiz zarur. O‘quvchilarga grafik tasvirlar ko‘rsatilishi ularning molekulalar tuzilishini uch o‘lchamli shaklda ko‘rishlariga, xuddi shunay laboratoriya eksperimentlarini modellashtirish o‘quvchilarimiza real maktab laboratoriyasida o‘tkazilishi muammo bo‘ladigan murakkab eksperimentlarni boshqarish imkonini beradi. Biz o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi kimyo fanining dunyoviy muammolari bilan bog‘liq bo‘lgan munozara yig‘ilishlardagi aloqalarga ko‘maklashish maqsadida AKT dan foydalanishimiz, shuningdek, o‘quvchilarning fikrlash qobiliyati va ushbu fanning yanada rivojlanishini ta’minlashimiz zarur.


Akt o‘quvchilarga axborotni vizual qabul qilish imkonini beradi

Kimyo fanida murakkab atom (molekulyar) jarayonlami asbtraksiya orqali tushunishga xarakat qilishimizga misollar ko‘p. Masalan, elektron bulut va elektronlar qo‘zg‘alishi, izomeriya strukturasi, molekulyar konfiguratsiya doirasidagi o‘zgarishlar, gibrid orbitallar va h.k., ro‘yxatini davomi ettirish mumkin.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, animatsiya va modellashtirish harakatning molekulyar shakllarining konseptual tushunchalarini sezilarli darajada yaxshilaydi.


Dasturi ta’mintoning molekulyar vizualizatsiyasi dinamik tasvir tushunchasini yaratadi, bu esa boshqa yo‘l bilan yaratish qiyin bo‘lgan jarayonlar konseptuallashining kuchli va muhim ko‘magini ta’minlaydi. Shunday qilib, vizual ko‘nikmalar va fikrlash sezilarli darajada animatsiyalar va dasturiy ta’minti modellashtirish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Animatsiya va simulyasiya.



Kompyuter animatsiyasi va modellashtirish kimyoviy tuzilmalar va jarayonlarni tushunish uchun universal asbob bo'ladi. Animatsiyalarda ketma-ket diagrammalar, ramziy tasvirlar, strukturalar hamda kimyoviy reaksiyalar paytida sodir bo'ladigan turli jarayonlar namoyish etiladi.

Simulitsiya kompleks vaziyatlarni qabul qilish uchun ajoyib vaziyat yaratadi hamda dasturiy ta'minot yordamida tasviri va reaksiyaning ma'lum parametrlarini o'zgartirish imkonini beradi.



Animatsiyaning bir necha misollarni / O'qitish simulitsiyasi:

Laboratoriyalarda virtual eksperimentlarni tashkil qilish kamroq vaqt talab qilib, yaxshi natijalarga erishishda yordam beradi.

Kimyoviy reaksiyalar jarayonlarini ishlaydi.

Atomlardan molekulalar quradi.

Titrlash bilan bog'liq eksperimentlarni simulyasiya qiladi.

Boshida ta'kidlaganimizdek, kimyo o'qituvchilarning asosiy maqsadi o'quvchilarning kimyoni ko'rindigan (makro), molekulyar/ atom (mikro) va ramziy darajalarda tushunishini osonlashtirishdan iborat. Shuning uchun animatsiyadan foydalanish o'quvchilarning ushbu fanni tushunishini yengillashtiradi, ko'pchilik kimyoviy jarayonlarni ko'rindigan qilib ifodalaydi.

Animatsiya yaratish, rasm chizish, saytlarni yaratish dasturiy ta'minoti: FLASH, Free Hand, Dreamweaver va Feyerverklardir. (Fireworks).

"Java" dasturlash tili interaktiv xususiyatlarga ega bo'lib, "Java-appletlar" yaratish uchun qo'llaniladi.

Virtual kimyoviy laboratoriya.

Dastur animatsiya /tenglama va boshqalar shaklida foydalanish mumkin bo‘lgan reaksiyalar bazasi va laboratoriya jihozlari hamda kimyoviy moddalar to‘plamiga ega. Virtual laboratoriya dasturi turli moddalar bilan eksperimentlarni vizual o‘tkazish imkonini beradi. Turli dasturlar – virtual laboratoriyaning dasturiy ta’minoti qo’shimcha o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Dastur bilan ishlashni osonlashtirish uchun “assistant” tushunchasi, hisob-kitoblar asosida tuzilgan o‘zgartirishlar majmui, eksperimentlarni qayd qilish uchun laboratoriya jurnali mavjud.

Kimyoviy AKT resurslari. Virtual laboratoriya bo‘yicha dasturiy ta’minot – bu o‘quvchilar tajriba o‘tkazishlari uchun kerak bo‘lgan kimyoviy moddalar va ularning miqdori, idish va boshqa jihozlarni tanlash imkonini beradigan dasturdir. Bunday dasturlarni yuqori darajadagi moslashuvchanlik va nazorat darajasi tavsiflaydi. Virtual laboratoriya yana bir qancha afzalliklarga ega, ular yordamida o‘qituvchi va o‘quvchilar qo‘yilgan maqsadlar, jihozlar, kimyoviy moddalar va reaksiyalar hamda sharoitlar mavjudligini hisobga olgan holda eng samarali eksperimentlarni tanlashlari mumkin. Bunday rejalashtirish mustaqil o‘rganish orqali potensial qobiliyatlarni rivojlantiradi. Aslida virtual eksperimetlar – bu amalda o‘tkaziladigan laboratoriya mashg‘ulotlariga qo’shimcha mashg‘ulotlardir.

O‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishi

Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) o‘qituvchilarining ta’lim berishida kasbiy rivojlanishi uchun ham katta imkoniyatlar yaratadi. Bular:

Ko‘p marotaba foydalanishga mo‘ljallangan o‘quv materiallарini yaratish (Vaqtni tejash).

Inetnet orqali o‘qituvchilarining o‘zaro almashinuvi.

O‘quvchilarining o‘quv materiallарiga xohlagan vaqtida murojaat qilishi. Mazmunni tushunarli qiluvchi multimediyali materiallarni tayyorlash.

Ishtirokchilarining davomatini va o‘sishini qayd qilish.

Zo‘riqishsiz o‘quv tizimini ta’minlash.

O‘qituvchilar uchun asosiy afzalliklari o‘quvchilar ismarali boshqarish, saqlash va olib borish hamda vaqtini tejashdan iborat. Vaqtni tejash mashg‘ulotlarga yaxshi tayyorlanish imkoniyatini beradi. O‘qituvchilar AKT resurslaridan foydalangan holda nafaqat o‘z bilimlarini yangilaydilar, balki nazariy bilimlarini ham orttirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

O‘qituvchilarining ijtimoiy jamoasi

Ta’lim sohasida jamoalarni o‘qitish keng tarqalgan. O‘qituvchilar jamoalarni o‘qitish jarayonini Web 2.0 vositasida quyidagi dasturlar orqali amalga oshiradilar:

Blogs.
You tube.
Wiki.
Facebook.
Myspace.

Ijtimoiy saytlar turli jihatlari bilan kasbiy rivojlantirishga yordam beradi. Quyida ularning ayrim afzalliklari keltirilgan:

AKT yordamida ma'lumotlar bazasiga hamma vaqt kirish imkoniyati bor. boshqa ishtirokchilar bilan tajriba almashish imkoniyati beriladi. ular loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun guruuhlar tashkil qilishi mumkin. Kitoblar, jurnallar va nashrlardan axborot izlashda vaqt va mablag'ning tejalishi. Internet orqali videofilmlar namoyishi vositasida o'qitish imkoniyatining paydo bo'lishi.

AKT dasturlarida foydalangan holda o'quvchilar bilimini baholash

AKT dasturlarida foydalangan holda o'quvchilarni baholash bu bilimlarni, o'qitilayotgan materialni va internet, internet hamda CD ROM kabi texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasini baholashdir.

U o'z ichiga bir qator faoliyatni mujassamlashtirgan.

O'qituvchi savollarni elektron pochta yoki xat, axborot shaklida jo'natishi mumkin. O'quvchi ushbu savollarga javob berishi yoki kichik hikoya yozishi va o'qituvchiga tekshirish uchun Internet orqali taqdim etishi hamda tez javob olishi mumkin. Onlayn tizimida test olish joriy qilingan bo'lishi mumkin. Unda o'quvchi avtomatik baholashning tizimi orqali baholanadi. O'quvchilarni baholash uchun test olishning turli variantlari ishlab chiqilishi mumkin. Interfaol vazifalar baholashning eng samarali variantlaridan bo'lishi mumkin. Savlonoma shaklidagi test o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini aniqlovchi usullardan biri bo'lishi mumkin.

KIMYO FANLARINI O'QITISHDA MUAMMOLI METODLARDAN FOYDALANISH.

"Muammoli vaziyat" strategiyasidan foydalanish metodikasi

Muammoli ta'limgan texnologiyalari talaba faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Muammoli ta'limgan texnologiyasining asosi - insonning fikrashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta'limgan talabalarning ijodiy tafsakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda jiddiy ahamiyatga ega.

Muammoli ta'limgan bosh maqsadi - talabalarning o'r ganilayotga if mavzuga doir muammolarni to'liq tashunib/yetj^gil erishish va ularni hal eta olishga

o'rgatishdan iborat. Muammoli ta'lימי amaliyotda qo'llashda asosiy masalalardan biri o'rGANILAYOTGAN mavzu bilan bog'liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat.

Turli o'quv fanlari bo'yicha o'qituvchilar darslar jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni yechish usullarini oldindan ko'zda tutishlari kerak. Muammoli vaziyat yaratish usullari:o'qituvchi talabalarga dars mavzusi bilan bog'liq ziddiyatlari holatni tushuntiradi va uni yechish yo'lini topishni taklif qiladi; bir masalaga doir turli nuqtai-nazarlarni bay on qiladi; hal etish uchun yetarli bo'limgan yoki ortiqcha ma'lumotlar bo'lgan yoki savolning qo'yilishi noto'g'ri bo'lgan masalalarni yechishni taklif etadi va boshqalar.

Muammoli vaziyatni hal etish darajalari:

- ✓ o'qituvchi muammoni qo'yadi va o'zi yechadi;
- ✓ o'qituvchi muammoni qo'yadi va uning yechimini talabalar bilan birlashtirishda topadi;
- ✓ talabalarning o'zlarini muammoni qo'yadilar va uning yechimini topadilar.

Muammoli vaziyatni yechishda qo'llaniladigan usullar:
muammoni turli nuqtai-nazardan o'rganish, tahlil qilish;
solishtirish, umumlashtirish;
faktlarni aniqlash va qiyoslash;
vaziyatga bog'liq xulosalar chiqarish;

talabalarning o'zlarini aniq savollar qo'yishi va boshqalar. Muammoli ta'limum texnologiyasi juda qadim zamonlardan shakllanib kelmoqda. Jumladan, qadimgi Gretsiyada muammoli savol-javoblar, qadimgi Hindiston va Xitoyda muammoli bahs-munozaralardan keng foydalanilgan. Muammoli ta'limi amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog Dj. Dyui 1894 yilda Chikagoda tashkil etgan tajriba maktabida qo'llagan. XX asrning-B@iyillarda bu yo'nalishda tadqiqotlar olib borildi. 70-80-yillarga kelib, amaliyotga keng joriy etildi. Muammoli ta'limumning asosiy g'oyasi bilimlarni talabalarga tayyor holda berish emas, ular tomonidan dars mavzusiga tegishli muammolar bo'yicha o'quv-tadqiqotlarini bajarish asosida o'zlashtirilishini ta'minlashdan iborat. O'zbekistonda muammoli ta'limi qo'llash bo'yicha bir necha asrlar davomida muktab va madrasalarda suqrotona savol-javob usulidan keng foydalanish asosida talabalarda ziyraklik, hozirjavoblik sifatlari hamda go'zal nutq tarkib toptirilgan. Suqrotona savol-javob usuli hozirgacha eng samarali ta'lum usullaridan biri sifatida qo'llaniladi. Bunda talaba chuqr mantiqiy fikrlashga, ziyraklikka, aniq vato'g'ri so'lashga, nutqning mantiqiyligi va ravonligiga hamda tanqidiy, ijodiy fikrlashga o'rgatilgan. Masalan, suqrotona suhbattlar deganda o'qituvchining talabani mustaqil va faol fikrlash jarayoniga olib kirishi hamda lining fikrlashidagi noto'g'ri jihatlarni ziyraklik bilan aniqlagan holda ularni tuzatish yo'liga olib chiqishdan iborat usullar nazarda

tutiladi. Bunday suhbat bosqichlarini quyidagicha soddalashtirib ifodalash mumkin; Savol-javoblar orqali talabaning bilim darajasi va fikrlash qobiliyatini umumiy tarzda aniqlash. O'rganilayotgan mavzuning mazmunini talaba motivlariga muvofiqlashtirish. Bu, asosan, talabaning qiziqish va qibiliyatlariga mos bo'lgan misollar tanlash orqali malga oshiriladi.

Talabani faol muloqotga olib kirish. Bunda asosan rag'batlantirish usullaridan foydalaniladi. O'qituvchi o'zini bilmaydigan odamdek, talabadek tutib, savollar berib boradi. Talabaning to'g'ri fikrlarini maqtash orqali uni yanada erkin va chuoqrroq fikrlashga, so'zlashga jalb qilish. Talabaning xato fikrlarini aniqlab boorish. Talabaning xato fikrlariga nisbatan to'g'ri fikrni o'qituvchi tomonidan yaqqol mantiqiylashtirish. Asoslangan shaklda bayon qilish yoki tushuntirish orqali talaba uchun muammoli vaziyat yaratiladi va talabani o'z xatolarini o'zi tuzatishiga yo'naliiriladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu usul yuqori natija berishi shubhasiz bo'lib, ammo buning jiddiy shartlari ham mavjud. Bular o'qituvchining keng bilimga va ijodiy fikrlash qobiliyatiga, yuqori muloqot madaniyatiga, pedagogik mahoratga ega bo'lishi kabilardan iborat.

Elektromagnit induksiya hodisasini o'qitishda "Muammoli vaziyat" strategiyasidan foydalanish metodikasi

"Elektromagnit induksiya hodisasi" mavzusi bo'yicha ma'ruba.

Daniyalik fizik Ersted 1820-yilda tokning magnit ta'sirini aniqlagandan keyin, ingлиз fizigi Faradey bu kashfiyot bilan tanishgan va shunday xulosaga keladi: madomiki, berk o'tkazgich bo'ylab oqayotgan tok magnitni harakatga keltirar ekan, magnitning harakatlanishi ham berk o'tkazgichda tok hosil qilish kerak va bu hodisaning to'g'riligini Faradey 1931 – yilda ko'p tajribalar asosida tasdiqlaydi. U magnit maydonda sim o'ramli g'altak va galvonometrdan iborat berk kontur ilgarilanma harakat qilganda yoki burilganda, shuningdek, qo'zg'almas kontur ma'lum vaqt davomida o'zgaruvchan magnit maydonda turganida konturlargatok hosil bo'lishi aniqlandi.

Magnit maydonning o'zgarishi tufayli berk konturda hosil bo'lgan tok induksion tok, hodisaning o'zi esa elektromagnit induksiya hodisasi deb ataladi. Induksion tokni hosil qiluvchi elektr yurituvchi kuch induksion elektr yurituvchi kuch (induksiya – EYUK) deb ataladi.

Endi biz Faradeyning tok hosil bo'lishining shartlarini aniqlashga doir tajribalarni ko'rib chiqamiz.

1. Agar magnit kontur ichiga kiritilsa yoki konturdan chiqarilsa, berk konturga tok induksionallanadi, magnit g'altakka yaqinlashtirilganda yoki magnit g'altakkta

yaqinlashtirilganda ham galvonometr strelkasi bir tomonga og'adi (g'altak ichidagi magnit oqimi orta boradi), magnitni g'altakdan uzoqlashtirsak yoki g'altakni magnitdan uzoqlashtirsak (magnit oqimi kamayib boradi) strelka boshqa tomonga og'adi, ya'ni magnit induksiya oqimining ortishi yoki kamayishi bilan induksion tok yo'nalishi oldingi holatdan o'zgaradi.

KIMYO O'QITISH NATIJALARINI NAZORAT QILISHDA TESTDAN FOYDALANISH.

Test (ingl. - sinov) birinchi marta 1864 yilda Buyuk Britaniyada J.Fisher tomonidan talabalarning bilim darajasini tekshirish uchun qo'llanilgan. Test sinovlarining nazariy asoslarini keyinchalik ingliz psixolog F.Gamelton ishlab chiqdi. Test sinovlari dastlab psixologiya fani doirasida rivojlandi. XX asr boshida esa test sinovlarini ishlab chiqishda psixologik va pedagogik yo'nalishlar bir-biridan mustaqil ajrala boshladi. Pedagogik test sinovlari birinchi marta amerikalik psixolog E. Torndayk tomonidan yaratilgan. Psixologiya va pedagogikada test sinovlarining rivojlanishi matematik uslublar ham qo'llashni taqozo qildi. Bunday uslublar o'z navbatida testlarni ishlab chiqishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida test sinovlariga talabalarning o'quv qobiliyatlarini baholash vositasi sifatida qarash ancha kuchaydi. Aynan shu davrdan boshlab test sinovlari ikki asosiy yo'nalish: aqliy (intellektual) rivojlanish darajasini aniqlash testlarini yaratish va qo'llash hamda talabalarning o'qish qobiliyatlarini va bilimlarini baholashga mo'ljalangan pedagogik testlarni yaratish va ulardan foydalanan sohalari rivojlna boshladi. Test tuzuvchilar turli odamlarda ta'sirga javob berish vaqtida xil emasligini aniqladilar, bu esa odamlarning aqliy qibiliyatlarini o'rganish zarurligi va turli darajadagi testlar yaratish usuli bo'yicha amaliy ishlar olib borish lozimligiga olib keladi.

Test sinovlarining asosiy maqsadi: ham o'tilgan darslarni o'zlashtirish darajasi to'g'risida, ham navbatda o'rganilishi lozim bo'lgan dars hajmi to'g'risida o'qituvchiga axborot berish; o'qituvchiga o'qitish uslubini tanlashda yordam berishdan iborat deb hisoblangan.

Talabalar bilimlarini baholashning turli usullarini tahlil etib, testlarni guruxlarga ajratishga ham urinib ko'rilgan. CH. Grin (1926) o'zining «Test novogo tipa» (Yangi turdag'i test) nomli monografiyasida ilgari yaratilgan va ishlatib ko'rilgan testlarning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilib quyidagi tavsiyalarni berdi:

test sinovlari uchun mo'ljallangan material hajmini aniq belgilash va uning tarkibidagi eng muhim qismlarini ajratib olish;

mazkur material uchun test sinovlarining eng maqbul shaklini tajriba yo'li bilan aniqlash;

talabalarning test sinovlari vaqtida javob berishlari o'ttacha tezligi to'g'risidagi amaliy ma'lumotlarni e'tiborga olgan holda, test sinovlarining davom etish vaqtini belgilash;

test sinovlardagi fikrlarni bayon qilinish tilining to'g'ri-ligini va mantiqqa muvofiqligini tekshirish;

topshiriqlarni murakkabligi ortib borish tartibida joylashtirish, to'g'ri va noto'g'ri javoblarning doim bir navbatda almashinishiga yo'l qo'ymaslik.

Ch. Rassel test sinovlarining natijalarini o'rganishni davom ettirib, test sinovlarining maqsadi to'g'risidagi savolga javob berishga erishdi. Rassselning fikricha, test sinovlarining maqsadi talabalarning bilimlarini baholash yoki ularning aqliy rivojlanishi darajasini aniqlash bilan cheklanmaydi va testlarni quyidagi xollarda: qaysi materialdan boshlab o'rganish zarurligini ta'minlashda; talabalarni guruhlarga taqsimlashda; o'qitish jarayonida sodir bo'ladigan qiyinchiliklarni oldindan aniqlashda; shuningdek, mamlakatning turli hududlaridagi o'quv yurtlarida muayyan yosh davridagi yoshdagи talabalarning yutuqlarini taqqoslashda qo'llash mumkin. Shuni ta'kidlash lozimki, Amerika maktab direktorlari Assotsiatsiyasining test sinovi o'tkazmasdan ta'lim berish mantiqsizlidir, faqat testni qo'llash natijasidagina nazoratdan ta'limga yo'naltirilgan qaytuvchan aloqa haqida fikr yuritish va so'ngra qanday yo'nalishda harakat qilishni bilish mumkin. Degan fikrlari ma'lumdir. Frantsiya parlamenti 1989 yilda ta'limni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari haqida qonun qabul qildi. Unda xususan, talabalar bilimini xolisona baholash usuli bo'yicha o'qituvchilar majburiy suratda tayyorgarlikdan o'tishlari ko'zda tutiladi: Busiz 1992 yildan boshlab Frantsiyada o'qituvchilik qilishga ruxsat etilmaydi. Shunisi qiziqliki, Frantsiya to'qson yillik test an'analariga ega bo'lgan davlatdir.

O'tgan asrning 70-yillari oxirida Pitterburgdagи Karnegi-Melon universitetining bir guruh sotsial-psixologlari AQSHda test o'tkazishning zamonaviy ahvolini o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqot olib bordilar. Aslida, tadqiqotchilarning maqsadi o'quv yurtlaridagi testlarni keng miqyosda qo'llash sabablarini aniqlash edi. Bu tadqiqot natijasida quyidagilar aniqlandi: test sinovi Amerika hayotida chuqur ildiz otgan, hech kim Amerika maktablarida turli xildagi standartlashtirilgan test bo'yicha sinovdan o'tmasdan, boshqacha yo'l bilan bilim olishni davom ettira olmaydi, ishga joylashish, keyinchalik esa yuqori lavozimiga

ko'tarilish yoki malaka oshirish test bilan chambarchas bog'lanib ketganligi alohida qayd qilindi. Tadqiqotda amerikaliklarni testlarga bu qadar moyilliklarining uchta sabablari keltirildi:

- a) inson omilidan imkon boricha samarali tarzda xizmat manfaatlari nuqtai nazaridan foydalanish;
- b) ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar iste'dodlarni taqdirlashga intilish;
- d) amerikaliklarni milliy ta'lim standartlarni joriy etish uchun intilishlari.

Inson erishgan yutuqlarni xolisona baholash uchun testlashtirishdan ommaviy suratda foydalanish, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda test sanoati va testlar bozorini vujudga keltirdi.

AQSHda to'rt yuzdan ortiq markaz o'zaro raqobat ostida turli-tuman testlami ishlab chiqmoqdalar. SHuningdek, testlarni tuzish va ularni qo'llash bo'yicha yaxshi mutaxassisliklar yuqori darajada qadr topganlar. 1992 yilda ular AQSHdagi eng nufuzli 20 ta faoliyat yo'nalishlari ro'yxatida 8-o'rinni egallaganlar. O'ta qadrlanadigan tizimlar bo'yicha tahlil, marketing, sog'liqni saqlash, ekologiya, oziq-ovqat maxsulotlarini taqsimlash va komp'yuter texnologiyasi ixtisosliklari esa, tegishli tarzda 15-20-o'rnlarga joylashtirilgan.

O'zbekistonda MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib, 1993 yildan testshunoslikdan foydalanishga keng yo'l ochib berildi. Pedagogik testlar keng miqqosda, dastlab o'rta ma'lumot yakunida, oliy o'quv yurtiga kiruvchilarni qabul qilishda qo'llanila boshlandi. Pedagogik testlarning zamonaviy nazariyasi pedagogika, psixologiya, mantiq, o'chovlar nazariyasi, matematik statistika, matematika, axborot nazariyasi; kibernetika va bir qator fanlarning tutash chegaralarida rivojlanmoqda. Shuningdek, testlar ilmiy asoslangan, eng ishonchli pedagogik o'chovlar quroli sifatida etirof etilmoqda. pedagogik testlar insoniyat tafakkuri erishgan muvaffaqiyatlardan biri bo'lib, ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. SHuning uchun ham kelajak avlod psixologik, pedagogik va kasbiy testlar me'yor bo'lib qolgan davrda yashab, faoliyat ko'rsatadilar.

Pedagogik testlar bilimlarga baho berishning istiqbolli usuli hisoblanadi. Uning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- ✓ test topshiriqlari o'quv fanining asosiy mazmunini qamrab oladi (imtihon bileyti o'zida nazorat qilinadigan o'quv materialining 4-5 foizini qamraydi xolos);
- ✓ hamma talabalar testning bir xil savollariga javob beradilar, bu ularning bilimlarini taqqoslashga imkon beradi;
- ✓ talabalar bilimiga haqqoniy baho berish mezoni oshadi;

- ✓ test nazoratida oldindan yaratilgan, hamma uchun bir xil bo'lgan shkala yordamida, talabalar bilimiga bir muncha aniq va tabaqalashgan baho qo'yishga imkon beradi (reyting);
- ✓ o'qituvchi talabalar bilimini nazorat qilishga kam vaqt sarflaydi;
- ✓ boshlang'ich darajasini va har qanday vaqt oralig'ida bilimlarni oshirish imkoniyatini o'lhashga sharoit yaratiladi;

Test nazorati komp'terlashtirishga (avtomatlashtirishga) qulay. Bu pedagogik testlashning asosiy afzalliklaridan biridir. O'quv jarayonining takrorlanuvchanligi ham aynan shunda o'z ifodasini topadi.

Umuman olganda, test usuli birmuncha texnologik hisoblanadi. U bilimlarni o'zlashtirish sifatini nazorat qilishda professor-o'qituvchilar mehnat unumtdorligini oshiradi va o'quv dasturini chuqur va har tomonlhma o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Pedagogik testlashning bu afzalliklari AQSHda munosib baholangan. Abiturient (talabgor)larni universitet va kollejlarga test sinovi bilan qabul qilinadi. Pedagogik testlarni keng qo'llash bo'yicha AQSH tajribasi Kanada, Yaponiya, Turkiya va boshqa ko'pgina mamlakatlarga yoyilgan. Sifatli test topshiriqlarini tuzishning qiyinligi, testni keng joriy etishni murakkablashtiradi. Bu ish yuqori pedagogik malaka va tajriba talab etadi. Shuning uchun ham, AQSHda testning yuqori sifatini ta'minlash uchun pedagogik testlashning maxsus xizmati (PTX) tashkil qilingan. Bu tashkilot test o'tkazish amaliyotini umumlashtirish va ommalashtirish, standartlashtirilgan testlar yaratish, test o'tkazishning yagona qoidalari va test ishlab chiqish usullarini takomillashtirish masalalari bilan shug'ullanadi. Pedagogik testlash xizmati (PTX) Prinston universitetida joylashgan, unda 2300 nafar kishi, shu jumladan, 250 nafar falsafa, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, statistik va psixologik uslublar, kasb tanlash bo'yicha fan doktorlari, shuningdek, turli fanlar bo'yicha fan doktorlari, 200 nafar magistr, har xil fanlar bo'yicha o'qituvchilar xizmat qiladi. Testlar EHMda ishlanadi va sinaladi. Mamlakatda pedagogik testlash xizmatiga bo'y sunadigan 5000 test shaxobchalari mavjud. Test o'tkazish uchun Prinston markazi 53 ishonchli shaxslarga (odatda test o'tkaziladigan o'quv yurtlari pedagoglariga) test materiallari va test o'tkazish bo'yicha yo'llanmalar yuboradi.

TESTLI NAZORATNI KOMPYUTERDA O'TKAZISH.

Agar testlarni turkumlashda ularning qo'llash maqsadi va vazifalariga asoslanadigan bo'lsak, psixologik testlardan boshqa barcha testlarni quyidagi uch

guruhgaga ajratish mumkin: 1- intellektual rivojlanish darajasini aniqlovchi testlar; 2- pedagogik testlar; 3-muayyan kasbga yaroqlilikni aniqlovchi testlar;

Fanning mazmunidan kelib chiqqan holda biz faqat pedagogik test haqida to'xtalamiz. Adabiyotlarda bunday test topshiriqlarining quyidagi shakkllari bayon etiladi:

- birdan-bir to'g'ri javobi bo'lgan yopiq topshiriqlar;
- bir necha to'g'ri javoblari nazarda tutilgan yopiq topshiriqlar;
- bitta so'z (yoki so'zlar) tushirib qoldirilgan gapdan tashkil topgan ochiq topshiriqlar;
- to'g'ri ketma-ketlikni aniqlash uchun topshiriqlar;
- o'zarbo'lgililikni (muvofiglikni) aniqlovchi topshiriqlar;
- ayrim fanlar bo'yicha bilimlarning chuqurligini aniqlash bo'yicha topshiriqlari;
- sonni to'ldirishga mo'ljalangan topshiriqlar, bunda sonlar seriyasini topish usulini aniqlash va uni muayyan tartibda belgilash talab qilinadi;
- qarama-qarshi munosabatlarni aniqlash testlari;
- masalalar echishga qaratilgan (matematik, fizik va b.) topshiriqlar;
- chizmalar va sxemalarni tushunishga qaratilgan topshiriqlar;
- shakllar nisbatini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar;
- olingan axborotni o'zlashtirish darajasini aniqlash topshiriqlari;
- sinonimlarni va antonimlarni farqlashga oid topshiriqlar;
- analogiya (aynan o'xshashlik)ga oid topshiriqlar;
- o'qilgan matnni tushunishga oid topshiriqlar;
- ko'rsatmalarni bajarishga oid topshiriqlar;
- bilimdonlikni aniqlashga doir topshiriqlar;
- tafakkurni aniqlovchi testlar;
- orfografik testlar;
- til masalalariga doir topshiriqlar va boshqalar.

Mutaxassislik (umumtexnik) fanlardan test topshiriqlari tuzishda yopiq (bir yoki bir necha to'g'ri javobli), ochiq, muvofiglikni va to'g'ri ketma-ketlikni aniqlashga oid test topshiriqlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda bir o'quv maqsadiga erishganlikni turli test topshiriqlari yordamida aniqlash (invariant) testlar tuzish ham maqsadga muvofigdir

TESTLI NAZORATNI KOMPYUTERDA O'TKAZISH.

Agar test topshirig'i matnida, uning tayanch so'zlar yoki gap tushirib qoldirilgan bo'lsa, bunday topshiriq ochiq (tugallanmagan) test deb ataladi. Bu

shakldagi testlarda talabalarning bitta, ikkita so'zdan iborat qisqa va aniq javob berishlari taxmin qilinadi. Bu haqda testga ilova qilingan yo'llanmada bayon etish kerak. Blankaning bo'sh joyida javob uchun zarur bo'lgan joy qoldiriladi. Masalan, «Test tushunchasi» _____ yilda _____ tomonidan birinchi marta ishlatalig'an.

Yopiq topshiriqlar. Bunday topshiriq savoldan va bir necha javoblardan iborat bo'ladi, bu javoblardan biri to'g'ri, qolganlari to'g'riga o'xshash, biroq noto'g'ri bo'ladi. Taklif qilinadigan javoblar soni ikkitadan beshtagacha va bundan ko'proq bo'lishi mumkin. Sinovdan o'tuvchining tanlagan javobiga ko'ra, test topshirig'i tegishli ikkita kod: 1 yoki 0 bilan kodlanib, so'ngra shu holda dasturga kiritiladi.

1. Bilimlarni test bilan nazorat qilish adolatliligi an'anaviy shakllar bilan taqqoslanganda:

- a) ortadi. b) pasayadi.
- 2. Bilimlarni har qanday vaqt oraligida oshishiga baho berish imkonini beradigan nazorat turi:
 - a)
 - b) testli.

«Ha» va «yo'q» degan ikkita javobli yopiq test topshiriqlari ustida alohida to'xtalib o'tish lozim. Ba'zi bir topshiriqlar ularning javoblari ikki xil ma'noni bildiradigan qilib bayon etilishi mumkin. Masalan: Siz testlar qo'llanishini xush ko'rasiszmi? - Ha (xush ko'raman). Yo'q (xush ko'rmayman). Bunday hollarda javoblar uchun «to'g'ri» va «noto'g'ri» so'zlarni ishlash maqsadga muvofiqdir. Masalan:

Yopiq test topshiriqlari bilimlarni komp'yuterdan foydalanib nazorat qilishga qulay.
a) To'g'ri. b) Noto'g'ri.

Ikkita javobi bo'lgan yopiq shakldagi topshiriqlar qo'llanishning asosiy vazifasi - shu fandan sinovdan o'tuvchining birinchi test topshiriqlaridayoq bilim darajasini tezda tekshirib ko'rishdan iborat. Avtomatlashtirilgan o'qitish tizimlarida (AO'T) bunday topshiriqlar boshlang'ich bosqichning o'zidayoq talabaning umumiyligi tayyorligini taxminiyligi baholash va o'qitishning keyingi yo'nalishini - murakkab yoki osonlashtirilgan dastur bo'yicha olib borish masalasini hal qilishga imkon beradi.

Test topshirig'ida javoblar qancha ko'p bo'lsa, to'g'ri javobni tasodifan topish ehtimoli shunchalik kam bo'ladi. Amaliyotda beshta javobi bo'lgan topshiriqlarga ega bo'lish etarli hisoblanadi (bu holda bitta topshiriqqa to'g'ri javob berish ehtimoli 0,2 ni tashkil etadi.) Javobi beshta bo'lgan test topshiriqlariga quyidagi misolni keltirish mumkin.

«To'rtinchi o'lchov» degan fizika-matematika atamasi qaysi tushunchaga taalluqli:
a) Oq'irlikka. b) Hajmga. v) Vaqtga. g) Tezlikka d) Tezlanishga.

To'g'ri javob: V.

Bu topshiriqni latent, ya`ni yashirin ma'noli topshiriqlar qatoriga kiritish mumkin. To'rtinchi o'lchov - ehtimollik nazariyasida qo'llaniladigan tushunchadir. SHuning uchun to'g'ri javob bergan sinovdan o'tuvchini bu nazariyaning "hammabop bayonidan xabardor" deb taxmin qilish mumkin. Yopiq topshiriqlarda to'g'ri javoblar bir nechta yoki, javoblarning hammasi ham to'g'ri bo'lishi mumkin. Masalan: Pedagogik innovatsiyani xarakterlovchi belgilarni ko'rsating.

- A. Pedagogik tizimni takomillashtirishga yo'naltirilgan barcha o'zgarishlar.
- B. O'quv-tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshirish uchun kiritilgan yangilik.
- V. Pedagogik tizimning ayrim qismlarini yuqori samara beruvchi boshqa qismlar bilan almashtirish.
- G. Pedagogik tizimning ichki imkoniyatlarini ishga solish va yuqoriq natijaga erishish.

D. Hamma javoblar to'g'ri.

To'g'ri javob: D.

O'zaro bog'langan qisqa yopiq topshiriqlar zanjirchasi bilimlarning har qanday murakkab o'quv materialini o'zlashtirish sifatini tekshirishga imkon beradi. Yopiq testlarni ishlab chiqishda noto'g'ri, biroq to'g'riga o'xshab ko'rigan javoblarni ta'riflash asosiy qiyinchilikni tashkil qildi. Agar ular muvaffaqiyatsiz tuzilgan bo'lsa, to'g'ri javob ular orasida ajralib turadi va hatto yaxshi bilmaydigan talaba ham uni osonlikcha topishi mumkin. Bu holda topshiriq o'zining tekshiruvchi funktsiyasini yo'qotadi. Topshiriq yaroqli bo'lishi uchun hamma javoblar talabani o'ziga jalb etadigan bo'lishi zarur. Shundagina test muvaffaqiyatlari tuzilgan deb hisoblanadi. Har bir noto'g'ri javobning o'ziga jalb etadigan tomoni, shu javobni tanlangan talablarning salmog'i bilan belgilanadi. Bu ulush nechog'li yuqori bo'lsa, mazkur javob yaxshi ta'riflangan bo'ladi. Agar talabalar yaqqol noto'g'ri javobni to'g'ri javob sifatida tanlasalar, bunday javobni almashtirish lozim.

SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH.

Mazkur talablar amaliy faoliyatda ro'yogha chiqarilgan bo'lishi uchun bu ishlarni tashkil etishning muayyan izchilligini tavsiya etamiz. U individual ishda ham, ommaviy ishlarda ham foydalanilishi mumkin.

1. *Tarbiyaviy vazifalarni o'rganish.* Mazkur bosqich o'quvchilarning va sinf jamoasining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga qaratiladi. Bundan maqsad bolalarga samarali tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish va sinfda qaror topgan vaziyat uchun eng dolzarb tarbiyaviy vazifalarni aniqlashdan iborat. Bosqichdan ko'zda tutilgan maqsad pedagogik reallikni obyektiv baholash, undagi ijobjiy jihatlar (boladagi, jamoadagi eng yaxshi tomonlar)ni hamda nimalarni tuzatish, shakllantirish va eng muhim vazifalarni aniqlashdan iborat. O'rganish ishlari pedagogik tadqiqotlarda ma'lum bo'lgan metodlar yordamida (ularning ichida hozirda kuzatish eng asosiyidir) amalga oshiriladi. Kuzatish yordamida pedagog har bir bola va umuman jamaoa to'g'risida axborot to'playdi. Suhbat axborot to'plovchi metoddir. Bunda suhbat faqat bola va sinf bilan emas, balki ota-onalar, sinfda ishlovchi boshqa o'qituvchilar bilan ham o'tkaziladi. Maktab psixolog bilan bo'ladigan suhbat alohida ahamiyatga ega, chunki u pedagogning tasavvurlarini kengaytiribgina qolmay, balki professional takliflar ham beradi. Individual ishda bolaning faoliyati mahsulotlari: rasmlar, mayda chuyda buyumlar, she'r, hikoya va hokazolar katta ahamiyatga ega. Jamoani o'rganishda sotsiometriya metodi axborot berish jihatidan ustun turadi. Uning yordamida pedagog sinfdagi mashhur va nomi chiqmagan bolalar, unda kichik guruhlarning bor-yo'qligi, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar xarakteri haqida ko'p narsa bilib oladi.

2. Bo'lajak sinfdan tashqari tarbiyaviy ishni modellashtirish shundan iboratki, pedagog o'z xayolida muayyan shakl obrazini yaratadi. Bunda sinfdan tashqari ishning maqsadi, umumiy vazifalari mo'ljal sifatida foydalanilishi kerak. Masalan, sinfda bolalarga aralashmaydigan, pedagog va bolalar bilan aloqaga kirishmaydigan, odamovi o'quvchi bor deylik.

Umumiy maqsad — kirishimlik, odamga el bo'lishlik sifatlarini tarbiyalash bo'lsin. Faraz qilaylik, shu bola shaxsini o'rganish bizga unda o'z-o'ziga baho berishning pastligi va ortiqcha xavotirlanish borligini ko'rsatdi. Konkret maqsad — o'z-o'ziga baho berishni oshirish, xavotirlanish holatini yo'qotish, ya'ni ijobjiy „Men“ konsepsiyasini shakllantirish. Sinfdan tashqari ishning umumiy maqsadi bilishga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish, asosiy vazifa — rivojlantirish, konkret maqsad bolalarning ong-bilim doirasini kengaytirish, bilish faolligini shakllantirish. Sinfdan tashqari ishning maqsadi, vazifalari hamda sinf va bolalarni o'rganish natijalariga muvofiq ravishda uning mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari tanlanadi.

3. Modelning amalda ro'yobga chiqarilishi o'yangan tarbiyaviy ishlarning real pedagogik jarayonda amalga oshirilishiga qaratilgan.

4. Qilingan ishlarning tahlili modelni real hayotda joriy etilishi bilan taqqoslash, muvaffaqiyatli chiqqan va muammoli daqiqalarni, ularning sababi va

oqibatlarini aniqlashga qaratilgan. Kelgusidagi tarbiyaviy ishlar uchun vazifalarni belgilash elementi juda muhimdir. Mazkur bosqich tarbiyaviy vazifalar, ularning mazmuni, shakllariga tuzatishlar kiritish va keying sinfdan tashqari ishlarni rejalashtirish uchun juda muhimdir.

3. Individual sinfdan tashqari ishlarning shakllari. Individual sinfdan tashqari tarbiyaviy ishning umumi maqsadi-shaxsnинг то'лақонли ривожланishi uchun shart-sharoitlar yaratish bolada ijobiy „men“ konsepsiyasini shakllantirish hamda uning shaxsidagi xilma-xil tomonlarni, individual imkoniyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Individual ishning mohiyati bolani umumlashtirish, unda o'z- o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojini shakllantirishdan iborat. Individual ishning samaradorligi oldiga qo'yilgan maqsadga muvofiq ish shaklini aniq tanlashgagina emas, balki bolani ma'lum bir faoliyat turiga jalb qilishga ham bog'liq. Haqiqatda individual ish bolaning adabini berib qo'yish, unga tanbeh berish, uni koyishdan iborat bo'lgan vaziyatlarni tez-tez uchratish mumkin. Bola bilan olib boriladigan individual ish pedagogdan kuzatuvchanlikni, nazokatni, ehtiyojkorlikni, sermulohazalikni talab etadi. Uning samaradorligida pedagog bilan bola o'rtasida aloqa o'matilishi asosiy shartlardandir. Quyidagi shartlarga rioya qilingandagina bularga erishish mumkin: Bolani—uning tuyg'ulari, kechinmalari, istaklarini to'la qabul qilish. Bolalar muammolari (arzimas bo'lsa ham) yo'q. Bolalarning his-tuyg'ulari kechinmalar kechishi kuchiga ko'ra, kattalarning tuyg'ularidan qolishmaydi. Bundan tashqari, yosh xususiyatlariiga —g'ayriixtiyorilik, shaxsiy tajribaning yetishmasligi, irodaning kuchsizligi, his-tuyg'ularning aqli-drokdan ustun kelishiga ko'ra bolaning kechinmalari alohida keskinlik kasb etadi va uning kelgusi taqdiringa katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchining o'quvchini tushunishi va qabul qilishini ko'rsatishi juda muhimdir. Bu o'qituvchi bolaning xatti-harakati va ishlarini ma'qullaydi degan gap emas. Qabul qilish hech mahal bolaning fikrlariga qo'shilishni bildirmaydi.

2. Tanlash erkinligi. O'qituvchi har qanday yo'llar bilan muayyan natijaga erishishga intilmasligi kerak. Örbiyada „Maqsad vositalarni oqlaydi“ degan shior mutlaqo o'rinsizdir. O'qituvchi hech qachon bolani majbur qilmasligi, biror-bir narsani bo'yniga olishga zo'rashi kerak emas. Har qanday tazyiq istisno qilinadi. O'qituvchi shuni yodda tutishi kerakki, bola shaxsiy qaror qabul qilish uchun to'la haqlidir, hatto bu pedagog nuqtayi nazaridan noto'g'ri bo'lsa ham. Pedagogning vazifasi — bolani o'qituvchi taklif qilgan qarorni qabul qilishga majburlash emas, balki to'g'ri tanlash uchun barcha sharoitlar yaratishdir. Birinchi navbatda, bola bilan aloqa o'matish haqida o'laydigan, uni tushunishni xohlaydigan, bolada mustaqil qaror qabul qilish huquqi bor deb o'laydigan pedagog, faqat vaqtinchalik natija va

tashqi xotirjamlik haqida tashvishlanadigan o'qituvchiga qaraganda muvaffaqiyat qozonish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega:

3. Bolaning ichki ahvolini tushunish o'qituvchidan bola yuboradigan noverbal axborotni o'qiy bilishni talab etadi. Bu o'rinda pedagogning bolada ko'rishni istaydigan, lekin ular bolaga emas, balki o'qituvchining o'ziga xos bo'lgan salbiy sifatlarni bolada bor deb tushunish xavfi yashiritingan bo'ladi. Insonning bunday xususiyati proyeksiya deb ataladi. Proyeksiyani yengib o'tish uchun pedagog o'zida empatiya-boshqa kishining ichki dunyosini tushunish, kongruentlik — o'zi bilan o'zi bo'la olish, xayrixohlik va samimiylik kabi sifatlarni rivojlantirishi kerak. Mazkur shartlarga rioya qilmaslik pedagog va bolaning muomalasida psixologik to'siqlar paydo bo'lishiga olib keladi.

KIMYO KECHALARINI PEDAGOGIK AMALIYOT VAQTIDA O'TKAZISH METODIKASINI ISHLAB CHIQISHI.

Kimyo kechasini o'tkazish. Buning uchun avvalo mavzu tanlanadi. Mavzu turlicha bo'lishi mumkin. Ayrimlari barchaga ma'lum bo'lgan moddalarni chucherroq o'rghanishga ("Suv — oddiy va mo'jizakor modda, "Osh tuzi,") qaratilsa, boshqalari kimyoviy jarayonlarni (masalan, "Olov sirlari") o'rghanishga qaratiladi. Boshqalari mamlakatimizning ichki xayotini o'rghanish muammolariga (masalan, "Kimyo va paxta xosili", "Vatanimizning tabiiy boyliklari" va x.k.) qaratiladi. Kimyogar-olimlarning xayot faoliyatiga bag'ishlangan kechalar (D. I. Mendeleev, A. M. Butlerov, M. V. Lomonosov, N. I. Zinin, A. P. Borodin, A. Ye. Favorskiy, N. D. Zelinskiy, O. S. Sodikov, S. Yu. Yunusov, X. U. Usmonov, M. N. Nabiev) juda qiziqarli o'tadi. Ayniqsa, maktabda topishmoqli va qiziqarli kimyo kechalari katta muvaffaqiyatga erishadi.

Agar maktabda kimyo to'garagi mavjud bo'lsa, kechani o'tkazish uning a'zolariga topshiriladi. To'garak bo'limasa, kechani o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita tuzilib, kechaning mavzusi va senariysi muxokama qilinadi va xar bir a'zoga tegishli ishlar topshiriladi. Bu ishlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

Kechaning mazmunini tanlash, dasturini muxokama qilish va senariyni ishlab chiqish. Bu bosqichda yetakchi rolni kimyo o'qituvchisi o'ynaydi. Ammo o'quvchilar xam o'zlarining xal qiluvchi xissalarini qo'shadilar. Kimyoviy mavzuda ko'rinishlar, she'rlar yozadilar. Jurnal va badiiy adabiyotlardan materiallar tanlaydilar. Kechaga kimyogar-olimlar, ishlab-chiqarish ilg'orlaridan vakillarni taklif etish. Bu o'quvchilarga alovida topshiriq xisoblanadi.

Kimyo kechasi tashkillash va o'tkazish har bir ishtirokchidan katta mehnat talab qiladi. bir vaqtning o'zida ommaviy tadbirni o'tkazish har bir ish tavsisi va yo'nalishiga ta'sir qiladi. Bu sinfdan tashqari ishning shakl va xillari o'rtasida o'zaro integratsiya bo'lismeni ko'rsatadi. Demak, sinfdan tashqari ishlarning barcha elementlari o'zaro bog'liq bo'lib, bir-biriga ta'sir ko'rsatadi.

"Men aminmanki, kimyo bilan qiziqib, uni o'zi uchun mutaxassislik sifatida tanlab olganlar orasida bundan afsuslanuvchi biror kimsa topilmasa kerak" -degan edi rus olimi N.D.Zelinskiy. haqiqatdan ham kimyo qiziqarli va mo'jizakor fandir.

Shu jihatdan kimyo kechalarini tashkillash va o'tkazishda mo'jizakor kimyoning qiziqarli tajribalardan o'rinni foydalanish o'quvchilarni kimyo faniga qiziqtirbgina qolmasdan, balki kimyoviy bilimlarni chuqur egallashlarida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Kimyo kechalarini o'tkazishda qiziqarli tajribalarni tanlash va namoyish etish muhim axamiyatga ega. Bunda avvalo kimyo kechasi mavzusiga oid tajribalar tanlanib, kimyo to'garagi a'zolari tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki, to'garak a'zolari bu tajribalarni kimyo to'garaklarida bajargan bo'lislari mumkin. Bu esa tajribalarni muvaffaqiyatlari chiqishiga yordam beradi. Avvalo tanlangan tajriba qiziqarli, shu bilan birga oson bajarladigan, kam vaqt sarflanadigan, qizdirish, yoki boshqa sharoitlar zarur bo'ladigan bo'lmasligi kerak. Chunki ko'pgina kimyo kechalari odatda katta xonalarda o'tkazilishi munosabati bilan ayrim tajribalarni bajarish imkoniyati bo'lmasligi mumkin.

KIMYO AMALIYOTIDA EKSKURSIYADAN FOYDALANISH.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning 3 shakli: guruh bo'lib ishslash, yalpi ishslash va yakkama-yakka bo'lib ishslash shakllaridan foydalanish. Guruh bo'lib ishslash shakli kimyo to'garagi, o'rta mакtabda o'tkaziladigan sinfdan tashqari mashg'ulotning asosiy shaklidir. Faqat bir sinf o'quvchilaridan iborat to'garak eng samarali ishlaydi. Yalpi mashg'ulot: kino ko'rsatish, kimyo kechasi, kimyoviy ekskursiyalar, ijodiy konferensiya, olimpiada va hokazo. Yakkama-yakka ayrim bolalar uchun olib boriladi.

O'quvchilar ekskursiyalarga juda qiziqadilar. Ma'lumki, o'quvchilarni mакtab matbuoti bilan tarbiyalash DTM larning muhim yo'nalishidir. U mакtab gazetalari mazmuni va o'quvchilarni gazeta chiqarish jarayonida muharrir, redkollegiya sifatida faol qatnashish ta'siri ostida amalga oshiriladi. O'quvchilar a mustaqil gazeta chiqarishlari uchun, ularni mavzu va grafik redaktorlari bilan ishslashga o'rgatish kerak. Kecha va konkurslar o'quvchilar uchun muhim ahamiyatga ega. Ular

o'quvchilarni ishslashga bo'lgan qiziqishlarini yanada shakllantiradi. Kecha dasturi turli bo'lishi, hamda fan bilan bog'liq bo'lishi kerak. O'quvchilarda har xil konkurslarga qiziqish uyg'otadi. Kimyo fani bo'yicha konkurs sifatida "Nima? Qayerda? Qachon?", "Mo'jizalar maydoni" o'yini musobaqasi" konkurslarini taklif etish mumkin.

Maktabda kimyoviy ishlab chiqarishning ilmiy asoslarini o'rganish o'quvchilarga politexnik tayyorgarlik berish vazifasini hal qilish uchun eng muhim vositalardan biridir. Kimyo ishlab chiqarishni o'rganish nazariyasi bilan amaliyotni bog'laydi, bilimlarni konkretlashtiradi, chuqurlashtiradi va puxtalaydi, yoshlarimizni maktabni tugatgandan keyin erkin ravishda kasb tanlab olishlariga va mustaqil davlatimizning aktiv ishtirokleri bo'llib, erishishlariga yordam beradi. Kimyo o'qituvchilari kimyo darslarida kimyoning amaliy turmushda qo'llanilishiga e'tiborni jalb qildilar, o'quvchilarni eng muhim kimyoviy ishlab chiqarish bilan tanishtiradilar, mahalliy sanoatga ekskursiya o'tkazadilar, texnologik sxemalar, jadvallar, modellar, diapositivlar, kinofilmalar va boshqa ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanadilar. O'quvchilarni kimyoviy ishlab- chiqarishlar bilan tanishtirish jarayonida o'qituvchi oldida bir qancha masalalar turadi: jumladan, kimyoviy ishlab chiqarishni tanlash, kimyoviy ishlab-chiqarish to'g'risidagi beriladigan bilimlar 86 me'yori, kimyoviy ishlab chiqarishlar bilan tanishtirishning metodik prinsiplari, ishlab chiqarishlarini o'rganish rejasi va boshqalar. Umumiy o'rta ta'l'im maktabi kimyo darslarida xalq xo'jaligi jihatdan muhum ahamiyatga ega bo'lgan, o'quvchilar yaxshi tushunadigan va eng tipik, kimyoviy nazariya hamda qonuniyatlarini amaliy hayotda qo'llanishini aks ettiruvchi kimyoviy ishlab chiqarishlarga o'rganilishi lozim.

Kimyo bo'yicha ekskursiyalar maktab bilan hayot o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi. Ular o'quvchilarning bilimlarini to'ldiradi va kengaytiradi; har qanday jarayonning yaxshiroq tushunishga yordam beradi; talabalarning bilim faoliyatini faollashtiradi; kasb-hunar dunyosiga o'tishga yordam beradi. Ekskursiya talabalarga fan va amaliyot hamdo'stligini ko'rsatish imkonini beradi; katta ta'limiylah ahamiyatga ega.

Ekskursiyaga tayyorgarlik ko'rayotganda o'qituvchi bir qator tashkiliy tadbirlarni amalga oshirishi kerak.

Birinchidan, muayyan vaqt ichida o'quvchilarga tashrif buyurish uchun ob'ekt rahbariyatining asosiy roziligini olish kerak. Shartnomaga muvosiq, o'qituvchi maktab ma'muriyati nomidan ekskursiya qilish uchun ariza berib, o'quvchilarning to'liq ro'yxatini va maktab o'qituvchilari safari uchun mas'ul bo'lganlarni ko'rsatib

beradi. To'g'ridan-to'g'ri ekskursiya, o'qituvchi maktab o'quvchilari bilan birga boradi muassasasining vakili bilan tanishishadi, reja va ekskursiya marshrutni belgilaydi.

Ekskursiya bosqichlari va o'quvchilar tayyorgarligini hisobga olgan holda, ekskursiya davomida yoritilishi kerak bo'lgan masalalarни belgilaydi.

Muassasada ularning xavfsizlik choralarini ta'minlash choralarini ishlab chiqadi.

Ekskursiya ob'ektini tanlashda quyidagi mezonlarga rioya qilish tavsiya etiladi: ekskursiya mazmuniga dasturga muvosifligi, ekskursiya mavjudligi o'quvchilarni tushunish, texnologiya va texnik jihozlarning to'g'ri darajasi, uning zamonaviy talablarga muvosifligi, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, ushbu ob'ektning milliy iqtisodiyotga ahamiyati.

Ekskursiya arafasida o'qituvchi o'quvchilarga ekskursiya maqsadini tushuntiradi; ob'ekt haqida qisqacha ma'lumot beradi va uning tashrifi davomida nima qilish kerakligi haqida ko'rsatmalar beradi;

ob'ektdagi kimiyoiy jarayonlarni yaxshiroq tushunish uchun zarur bo'lgan nazariy materiallarni takrorlaydi; ekskursiya davomida xulq-atvor va xavfsizlik qoidalari bo'yicha ko'rsatmalar beradi;

o'quvchilarning yig'ish joyiga boradigan vaqtini va yo'nalishini belgilaydi; ekskursiya natijalariga ko'ra bajarilishi va bajarilishi kerak bo'lgan topshiriqni e'lon qiladi;

agar kerak bo'lsa, talabalarни guruhdagi kattalarni tayinlash bilan alohida guruhlarga ajratadi.

Ekologik ta'limni davom ettirish. Sinf turi: dars-ekskursiya. Ekskursiya ishtirokchilari: 9 sinf o'quvchilari, korxona mudiri, kimo o'qituvchisi.

Ekskursiya rejasi:

1. O'qituvchi ekskursiya ob'ekti bilan tanishadi. Ekskursiya vaqtida haqida kelishib olinadi, to'xtash kerak bo'lgan asosiy masalalarни o'rGANADI; talabalar bilan tayyorgarlik ishlarini olib boradi.
2. Maktabda o'quvchilarni yig'ishda o'qituvchi rahbarlik qiladi, mavzu va ekskursiya maqsadlari haqida suhbat o'tkazadi.
3. Korxona mudiri o'quvchilarni ob'ekt bilan tanishtiradi.
4. Korxonada ishlash qoidalari haqida xodimning(ekskursovod) hikoyasi. Ekskursiya davomida asosiy e'tibor talabalar tomonidan shaxsiy topshiriqlarni bajarish orqali mustaqil ravishda bilim olishga qaratilishi kerak. Talabalar to'rt guruhga bo'lingan. Har bir guruh vazifani oladi: 1 guruh - qishloqda korxonalar tashkil etish va ularning istiqbollari haqida ma'lumot to'plash kengaytirish. 2 guruh –korxonada har bir turdag'i maxsulotlarni saqlash bilan tanishish. 3 guruh – korxona xodimlarining asosiy

kasblari to'g'risidagi ma'lumotlarni unumlashtirish. 4 guruhi-qaysi korxona hamkorlikda ishlashini aniqlash. 5 guruhi-amaliyotga qanday ta'siri bor, iqtisodiy manfaati qay darajada. Ekskursiyaning tavsifi. Ekskursiyaning boshida o'quvchilar to'plagan ma'lumotlarini so'zlab beradilar. Bu kasblar kimyo, biologiya, matematikani bilishni talab qiladi. Shundan so'ng, korxona xodini o'quvchilarining savollariga javob beradi ba'zi qurilmalarning ishlashini tushuntiradi. Ekskursiyadan so'ng o'quvchilar ekskursiya materialini umumlashtiradilar va suhbat o'tkazadilar. Qo'llanma o'quvchilarining umumlashtirilishini to'ldiradi. O'qituvchi materialni umumlashtiradi. Yozuvlar saqlanadi, shuning uchun bu material stendlar, tezislар, taqdimotlar, hisobotlami tayyorlash uchun ishlatilishi mumkin. Uy vazifasi-ekskursiya materiallarini chiqarish (o'quvchilarining tanlash huquqi).

Kimyoviy korxonalarga ekskursiyalar o'tkazish uchun uslubiy tavsiyalar.

1. Kimyoviy korxonalarga ekskursiyalarning dolzarbligi. Kimyoviy korxonaga ekskursiya kimyo sanoatining ba'zi umumiylarni o'rghanish imkoniyatini o'z ichiga oladi. Ekskursiyalarni talabalarning bilim faolligini oshirish usullaridan biri sifatida qo'llash o'quvchilar bilan ishlashni ijodiy farqlashga, ularga ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishga imkon beradi, bu esa shaxsiy yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar uchun juda muhimdir. Shuningdek, o'quvchilarining korxonalarda ishchi kasblari bilan tanishishlariga imkon beruvchi ekskursiyalarning kasb-hunar yo'nalishini ham ta'kidlash kerak; ekskursiyalar ushbu korxona kasblari bilan bog'liq bo'lsa, o'quvchilarining kelajakdagi kasbiga qiziqishini oshiradi. Kimyo korxonalariga ekskursiyalar kimyo mavzusiga qiziqishni oshiradi, chunki ular kimyoviy nazariy bilimlar va ularning ishlab chiqarishda amaliy qo'llanilishi o'rtasidagi aloqalarni aniq ko'rsatib turibdi. Ekskursiyalar talabalarni ilg'or texnologiyalar, texnika va ishlab chiqarishni tashkil etish bilan tanishtirish imkonini beradi, bu esa kelajakda mutaxassisning shakllanishiga katta hissa qo'shami. Ekskursiyadan so'ng, talabalarga ushbu tavsiyada taklif qilingan ekskursiya uchun savollar yordamida ekskursiya haqida hisobot yozish uchun topshiriq berish tavsiya etiladi. Mahalliy korxonaning ishi bilan bog'liq mustaqil tadqiqotlar deyarli tashrif buyurishga olib keladi va kelajakda tajriba yoki hatto ish topishga imkon beradi.

2. Kimyoviy jarayonlardan foydalananidan tarmoqlar. Yirik tonna kimyo sanoati. Sulfat kislota, ammiak ishlab chiqarish, natriy gidroksidi, plastik, metal, neft mahsulotlari ishlab chiqarish va boshqalar. Nozik kimyoviy texnologiya mahsulotlari pestitsidlar va bo'yqlardir. Ular maxsus maqsadlar uchun nisbatan oz miqdorda ishlab chiqariladi. Ushbu guruhning ko'plab kimyoviy moddalari murakkab moddalarni ishlab chiqarishga ketadigan yarim mahsulotlardir. Farmatsevtika. Qurilish materiallari ishlab chiqarish: sement, g'isht, boshqa qurilish materiallarini

ishlab chiqarish. Oziq-ovqat sanoati: sut mahsulotlari ishlab chiqarish, kosmetika, gigiena vositalari ishlab chiqarish. Shisha sanoati, Metall eritish: anodli galvanik qoplamlarini qo'llash. Polimer sanoati. Ochiq va yopiq (ma'dan) minerallarni ishlab chiqish. Kichik xlor ishlab chiqarish. Atrof-muhit monitoringi, maxsus maqsadlar uchun tahlil qilish. suv tozalash chiqindilarini qayta ishlash sud laboratoriyalari oqava suvlarni tozalash.

3. Ekskursiyalarda so'raladigan taxminiy savollar.

A. Korxonada qanday mahsulotlar ishlab chiqariladi? Qanday qilib ular vaqtiga bilan yoki doimiy ravishda ishlab chiqariladi – Ushbu mahsulot nima uchun ishlatiladi? B. xodimlar ushbu korxonada qanday kasblar ishlaydi? ular orasida ilmiy xodimlar va muhandislarning ulushi qanday? Ushbu ilmiy xodimlar va muhandislar qanday malakaga ega? Ushbu korxonada har bir olim va muhandisning roli qanday? Ushbu korxonada ishchilarning malakasini oshirish mumkinmi? C. zavodning joylashuvi. Nima uchun zavod bu erda joylashgan? chiqindilarni yo'q qilish imkoniyati mavjudligi, energiya manbalarining mavjudligi? Ushbu ishlab chiqarishda qanday xom ashyo ishlatiladi? ular qaerdan keladi? Manba materiallarining muqobil manbalari bormi? Asl materiallarni qanday tanlash mumkin? Qanday qilib ular korxonaga ko'chiriladi? Yuk tashishning muqobil usullari qanday? Materiallar qayta ishlanganmi? Agar shunday bo'lsa, korxonaning ko'lami qanday?. Laboratoriya sharoitida ishlash oson bo'lgan kimyoviy moddalar ishlab chiqarishga jalb qilinganmi, ammo ularning katta bajmari bilan ishlashda qiyinchiliklar mavjudmi? O'quv laboratoriyasida zavod sharoitida sodir bo'lgan reaktsiyalarini takrorlash mumkinmi? Qattiq moddalar reaktorlarga qanday xizmat qiladi? Maydalash va eritish operatsiyalarining narxi qanday va ular bilan bog'liq xavf qanday? Agar nasoslar pulpaga aylantirilsa, keyingi bosqichda ishlatiladigan suv (yoki boshqa suyuqlik) bilan nima qilish kerak? Katta miqdordagi qattiq moddalarni qanday tortish kerak? Suyuqliklarning hajmini (yoki massasini) qanday o'lhash mumkin? J. jarayonning tezligi va mahsulot chiqishi. Davriy jarayon reaktorda reaktorlarning birlgilidagi yashash vaqtini talab qiladi. Reaktsiya darajasi qanday nazorat qilinadi va reaktsiya mahsulotlari keyingi bosqichga yo'naltirilganda qanday qaror qabul qilinadi? Agar reaktsiya uzlusiz jarayon sifatida amalga oshirilsa, reaktorda reaktorda kerakli vaqt davomida qanday turish mumkin? Mahsulot chiqishi nima? Agar sizning ixtiyoriningizda haqiqiy chiqish haqida ma'lumot bo'lsa, quyidagilarni bilib oling: ayb nima uchun u juda baland emas? qanday qilib uni oshirish mumkin? korxonada qanday o'zgarishlar mahsulot ishlab chiqarishda o'zgarishlarga olib keladi? mashinalarda ishlaydigan harorat va bosim qanday? Katalizatorning harorati, bosimi va tanlovi qanday ta'sir qiladi? ishlab chiqarish? Jarayonning tanlangan shartlari

tezlik va chiqish o'rtaсидаги kelishmovchilikmi? Z. isitish va sovutish agar isitish kerak bo'lsa, unda qanday energiya manbai ishlataladi? Nima uchun bu manba eng mos keladi? Muqobil energiya manbalari mavjudmi? Agar sovutish kerak bo'lsa, u qanday amalga oshiriladi? Issiqlik energiyasi qayta ishlataladimi? Agar shunday bo'lsa, qanday qilib? K. boshqa mahsulotlar. Ushbu jarayonda asosiy mahsulotlar bilan bir qatorda qanday mahsulotlar ishlab chiqariladi? Ular istalmagan? Nima uchun? Ularning ta'lmini qanday kamaytirish mumkin? Ularni asosiy mahsulotdan qanday ajratish mumkin? Qanday qilib ular utilizatsiya qilinadi (yoki ishlataladi)? Maqsad mahsulot qanchalik toza? Uning pokligini qanday nazorat qilish kerak? Asosiy aralashmalar nima? L. Strukturaviy materiallar reaktorlar va quvurlar qanday tarkibiy materiallardan tayyorlangan? Materiallarni tanlash kimyoiy moddalar tabiatni va jarayonlarning shartlari bilan qanday bog'liq? Ko'rib chiqing: etkazib beradigan joyga kirish, saqlash talabları, ishlatilgan kimyoiy moddalarni saqlash va qayta ishlash bilan bog'liq xavflar jarayonning bir bosqichidan boshqa jarayonga o'tish, sovutish, suviga kirish, chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish joylariga kirish, yakuniy mahsulotni olib tashlash uchun transport yo'llariga kirish, Korxonada qanday o'chov birlklari qabul qilinadi? Ularni siz foydalanadigan birlklar bilan Solishtiring.

Xavfsizlik ushbu korxonada ishlab chiqarilgan yoki ishlataligan kimyoiy moddalar bilan bog'liq qanday xavflar mavjud? Korxonaga ekskursiya paytida maxsus ehtirot choralarini ko'tish kerakmi? Korxonada ish xavfsizligi qanday nazorat qilinadi? Voqeа sodir bo'lgan taqdirda nima bo'lishi mumkin? Atrof-muhitni muhofaza qilish muammolari. jarayonning qaysi bosqichlari atrof-muhitga zarar etkazishi mumkin? Atrof-muhitning asosiy muammolari bu jarayon bilan bog'liqmi? Korxonada iflosantiruvchi moddalarni nazorat qilish usullari qanday? Ulami utilizatsiya qilishdan oldin qanday chiqindilarni qayta ishlash kerak? Chiqindilardagi ifloslanish darajasi qanday nazorat qilinadi?

3. Ekskursiya haqida hisobot. Ekskursiyadan so'ng, yozma hisobot yoki ekskursiya haqida og'zaki xabar tayyorlash tavsiya etiladi. Yuqorida keltirilgan savollar sizga hisobot tayyorlashga yordam beradi. Biroq, barcha savollar sizning maxsus ekskursiyangizga mos kelmaydi. 4.O'z-o'zini tadqiq qilish uchun asos sifatida korxonaga ekskursiya natijasidan foydalanish ckskursiya hisobotining natijalari talabalarning mustaqil izlanishlari uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Misol uchun, asosiy reaktsiyaning muvozanat tezligini yoki holatini o'rganish uchun; ishlab chiqarishni optimallashtirish uchun jarayonlarni (masalan, kontsentratsiyalar, katalizatorlar turlari, harorat, turli solventlardan foydalanish) o'rganish; mahsulotni tozalashning muqobil usulini izlash; laboratoriya miqyosida davriy va uzluksiz

jarayonlarni taqqoslash; uzlusiz jarayonda repressiya reaktori bilan aralashtirish reaktorini taqqoslash; chiqindilarni boshqarish yoki oqova suvlarni tahlil qilish bilan bog'liq muammolarni ko'rib chiqing.

1. Korxonada qanday mahsulotlar ishlab chiqariladi? Qanday qilib ular vaqtiga bilan yoki doimiy ravishda ishlab chiqariladi –
2. Nima uchun zavod bu erda joylashgan? Zavodning joylashuvi quyidagi holatlarga ta'sir qildimi: xom ashyo mavjudligi 3 malakali ishchi kuchining mavjudligi. Ushbu ishlab chiqarishda qanday xom ashyo ishlataladi? Ular qaerdan keladi? Bozor mavjudligi. Xom ashyo va tayyor mahsulotlar qanday transport bilan ta'minlanadi?
4. Katta miqdordagi qattiq moddalarни qanday tortish kerak? Suyuqliklarning hajmini (yoki massasini) qanday o'lchan mumkin?
5. Mahsulot chiqishi nima? Non, non mahsulotlari , pirojnoe va boshqalar qancha kun pishiriladi?
6. Xamir qanday haroratda yogurulur? Agar siz haroratni oshirsangiz-xamir tezroq mos keladimi? Isitish manbalari qanday ishlataladi?
7. Ushbu jarayonda asosiy mahsulotlar bilan bir qatorda qanday mahsulotlar ishlab chiqariladi? 8. Mahsulot sifatini qanday nazorat qilish kerak?
9. Korxonalar moddalarning tizimli bo'limgan nomlarini ishlatadimi? Qaysi biri? Korxonalar uchun qanday o'lichov birliklari qabul qilinadi?
10. Korxonalar sog'liqni saqlash xavfi bilan bog'liq bo'lgan kimyoviy moddalardan foydalanadimi? Bu moddalar nima?
11. Korxonada ifloslantiruvchi moddalarini nazorat qilish usullari (agar mavjud bo'lsa)?
12. Korxonada ishlataligigan asosiy qurilmalar qanday tarkibiy materiallardan tayyorlanadi?
13. Qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun zavodda qanday Lazzatlar, bo'yoqlar ishlataladi?

Kimyo korxonalariga ekskursiyalar o'tkazish uchun uslubiy tavsiyalar

Eng yangi kompyuter texnologiyalari, kompyuter simulyatsiyasi, Internet resurslarining multimedia xususiyatlaridan foydalanib, virtual ekskursiyalar, kimyo loyihibarini yaratish. Virtual haqiqatning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar:

- * haqiqiy vaqt simulyatsiyasi;
- * yuqori darajadagi realizm bilan atrof-muhitni taqlid qilish;
- * atrof-muhitga ta'sir qilish va bir vaqtning o'zida hisobot berish qobiliyati.
- * internetda joylashtirilgan ekskursiya ob'ektlari bo'lishi mumkin: mikrokompyuter ob'ektlarining modellari, haqiqiy narsalar, tovushlar, jonli video, animatsiya tasvirlari va tasvirlari. Virtual ekskursiyalar mavzusi turli kimyo kurslarida kimyoviy ishlab

chiqarish mavzularidir: 1. Ammiak ishlab chiqarish, 2. Sulfat kislota ishlab chiqarish. 3. Temir va po'lat ishlab chiqarish, 4. Shisha, g'isht va keramika ishlab chiqarish. 5. Ko'mir sanoati. 6. Ammiak va nitrat kislota ishlab chiqarish. 7. Uglevodorodlarning tabbiy manbalari. 8. Metalluriya korxonalari. 9. Kimyo va jamiyat. Virtual ekskursiya tayyorlash markazida har qanday loyihani ishlab chiqishda bo'lgani kabi, muvaffaqiyatli natijaga erishish uchun muayyan harakatlar algoritmi ham mavjud. Virtual ekskursiyani yaratishda eng muhim "qadamlar" ni keltiramiz

* ekskursiyaning maqsadi va vazifalarini aniqlash;

* mavzuni tanlash;

* adabiyotlarni tanlash va bibliografiyani tuzish;

* ekskursiya ob'ektlarini ehtiyojkorlik bilan tanlash va o'rganish;

* loyihani taqdim etish uchun zarur bo'lgan fotosuratlar yoki boshqa rasmlarni ko'rish,

* videorolik asosida ekskursiya marshrutini tuzish;

* ekskursiya matnini tayyorlash;

* virtual ekskursiya texnikasining ta'rifi;

* ekskursiya namoyishi.

Har qanday virtual ekskursiya ustida ishslash uning maqsadini aniq belgilash bilan boshlanadi. Bu kelgusida uyushgan holda ishslashga yordam beradi.

Mavzuni tanlash, birinchi navbatda, o'quvchilarning afzallikkлari yoki muayyan vaziyatga qarab belgilanadi.

Virtual ekskursiya loyihasi aniq belgilangan mavzuga ega bo'lishi kerak. Ob'ektlarni ko'rsatish-bu ekskursiyada ustun mavqega ega bo'lgan qism. Ob'ektlarni to'g'ri tanlash, ularning soni, namoyish ketma-ketligi taqdim etilgan materialning sifatiga ta'sir qiladi.

Ekskursiyani tayyorlash loyiha bosqichlariga mos bosqichlar bilan amalga oshiriladi:

1) ekskursiya maqsadini aniqlash;

2) ekskursiya ob'ektni tanlash;

3) virtual ekskursiyani tayyorlash: slaydlarni ishlab chiqish, video materiallarni yaratish va kerak bo'lganda o'rganilayotgan ob'ekt haqida Internet resurslarini qidirish;

4) mavzu doirasida hal qilinishi kerak bo'lgan ekskursiya vazifalarini aniqlash;

5) hisobot shaklini yoki ekskursiya natijalarini aniqlash; Virtual ekskursiyani ishlab chiqishda quyidagi printsiplarga rioya qilish kerak: ekskursiyalarning mazmunini kimyoviy fanning zamonaviy darajasiga mos kelishini nazarda tutadigan ilmiy; o'quv materiallarining mantiqiy va pedagogik ketma-ketligini ta'minlashni nazarda tutadigan mavjudlik; ravshanlik; ushbu tamoyilga muvofiq, ta'lim vositalari tegishli

assotsiatsiyalarni shakllantirish uchun yetarlicha aniq bo'lishi kerak; nazariya amaliyat bilan aloqasi; amalga oshirishda ushbu ekskursiya printsipi o'quvchilarni faol hayotga jalb qiladi, ular bilan ishlash, ta'lif berish, bilimga bo'lgan qiziqish, vijdonan, mas'uliyatlari va hurmatli munosabatni rag'batlantiradi.

Ishlab chiqarish ob'ektlariga virtual ekskursiyalarni ishlab chiqishda ob'ektni o'rganishning quyidagi ketma-ketligiga rioya qilish kerak.

1. Ushbu ishlab chiqarishning qisqacha tavsisi (tarix, mintaqasi iqtisodiyotidagi ahamiyati, rivojlanish istiqbollarri).
2. Asosiy ishlab chiqarish mahsulotlari (tayyor mahsulot omboriga tashrif buyurish).
3. Xomashyo, uning qazib olish, qayta ishlash, etkazib berish, saqlash, va hokazo
4. Asosiy kimyoviy reaksiyalar tayyor mahsulot ishlab chiqarish oldin xom ashyo tayyorlash va qayta ishlash asosiy hisoblanadi.
5. Ishlab chiqarishning asosiy bosqichlari va texnologik bosqichlari; ishlab chiqarish jarayonlari amalga oshiriladigan alohida qurilmalar va qurilmalar.
6. Ushbu ishlab chiqarishda qo'llaniladigan ilmiy printsiplar (reaktsiyalarni amalga oshirishning maqbul shartlarini aniqlash, xom ashyonini kompleks ishlatish, sirkulyatsiya texnologiyasi, reaksiyaga qarshi moddalar, issiqlik almashinuvni, katalizatorlar va boshqalar).
7. Ushbu ishlab chiqarishdagi kimyoviy kasblar, ularni olish imkoniyatlari, eng yaxshi kasb.
8. Ish joylarida va korxona atrofida ekologik vaziyat.

Virtual ekskursiyaning yakuniy mahsuloti Power Point bilan video kino yoki taqdimot. Kelajakda darsdan tashqari ishlarda virtual ekskursiyalardan foydalanish mumkin. Ushbu ekskursiyalar dasturdan tashqari bo'lishi mumkin va talabalarni kimyo sanoati, kimyo faniga katta hissa qo'shgan olimlar bilan tanishtirishi mumkin.



«Texno park» muntazam ilmiy shoular olib boradi, ijodiy master – klasslar, rivojlantiruvchi o'yin va kimyo yo'nalishdagi topshiriqlar. O'uvchilarga "Kvatro shou"da ishtiroy etish taklif etiladi.

$\text{CuCO}_3 * \text{Cu}(\text{OH})_2$ (qizdirilganda) $= 2\text{CuO} + \text{H}_2\text{O} + \text{CO}_2$ (Hidsiz, rangsiz gaz, ohakli suvni loyqalantiradi). Bu parchalanish reaktsiyasi, reaktsiya borganligini aniqlash: rangning o'zgarishi (malaxit yashil rangli, Mis (II) oksidi – qora) va gaz ajralishi. $\text{CO}_2 + \text{Ca}(\text{OH})_2 = \text{H}_2\text{O} + \text{CaCO}_3$ (oq cho'kma, loyqalanishi).

$\text{Na}_2\text{CO}_3 + \text{fenolftalein} = \text{malina rangli}$ (kuchli asos va kuchsiz kislotadan tashkil topgan tuz, suvli eritmasi gidrolizi ishqoriy muhitni beradi.)

$\text{Na}_2\text{CO}_3 + \text{CH}_3\text{COOH} = \text{CH}_3\text{COONa} + \text{H}_2\text{O} + \text{CO}_2$ (rangsiz, hidsiz gaz) bu ion almashinish reaktsiyasi, nisbatan kuchli kislotadan hosil bo'lgan tuz, kuchsiz kislotqa qoldig'idan tashkil topgan tuzni siqib chiqaradi, reaktsiya gaz chiqishi va kam dissotsilanadigan modda suv hosil bo'lishi bilan boradi.

Maktab o'quvchilarini OTM kimyo fani oqitilayotgan o'uv laboratoriylariga tashrifini, O'z FA ITI ga tashrifini tashkillashtirish ularning kimyo faniga qiziqishlarini uyg'otadi, yangiliklarga nisbatan fikr-mulohaza yuritish, soha olimlarining ishlarini real kuzatish imkoniyati kasb tanlashga yo'naltiradi, Vatanparvarlik hissini shakllantiradi.

Topshiriq va savollar:

1. "Qanday?" grafik organayzerini to'ldiring!



2. Ekskursiya rejasini tuzing.
3. Maktab o'quvchilarini ekskursiyaga olib chiqishda nimalarga e'tibor berish lozim?

KIMYO O'QITISHNING TARBIYAVIY VAZIFASI

O'quvchilarning ta'lif bosqichlarida jamiyatning rivojlanishi uchun xizmat qiladigan kimyoviy bilimlarni egallashi kimyo ta'limi amalga oshirish bilan yuzaga chiqadi. Kimyo ta'limi shakllantiruvchi va me'yorga keltiruvchi vositalariga umumiy, o'rta maxsus kasb-hunar ta'lifi bo'yicha ixtisoslik beruvchi mutaxasislik. Davlat ta'lif standarti va o'quv rejasi, fan dasturi va darsliklar kiradi.

Davlat ta'lif standarti o'quvchilarning egallashi mumkin bo'lgan kimyoviy bilimlar, ko'nikma va malakalarining chegaralarini, kasbiy omilkorlikni hamda jamiyatning rivojiva kimyoviy bilimlarni egallahsga yordam beradigan fanlarni

belgilab beradi va ular tanlagan mutaxassislikni DTS tarkibiga kiruvchi o'quv rejasida aks ettiradi. Fan dasturi tanlangan kimyogarlik ixtisosini egallash uchun zarur bo'lgan kimyoviy bilimlarning asoslari va chegarasini ko'rsatadi.

Kimyo ta'lmini amalga oshirishda kimyo darsligi asosiy o'qitish vositasи hisoblanadi. Shuning uchun kimyo darsligini jamiyat oldidagi mas'uliyatni his etgan holda mukammal yozish eng muhim vazifa hisoblanadi.

Quyida kimyo darsligining vazifasi, shakillanishi va uning mazmuniga bo'lgan didaktik talablar, o'quv materiallari hajmi va murakkabligining me'yori hamda kimyo ta'limi didaktik birliklarni o'zida mujassamlashtirgan, kimyoviy bilimlarning poydevori bo'lgan maktab kimyo kursi va ta'lim bosqichlaridagi kimyo fanlarining mazmunini yaratish masalalariga to'xtalamiz.

Kimyo o'quv fani boshqa fanlari singari mustaqillik g'oyalariga sodiq bo'lgan o'quvchilar shaxsiyatini shakillantiradi, kimyo ta'limi asoslari bilan qurollanadi. O'qitishning ta'lim va tarbiya beruvchi hamda rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshiradi.

Kimyo o'quv fanining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarning kimyo fani asoslari va usullarini ongli ravishda o'zlashtirishlarini ta'minlaydi;
2. O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakillantiradi;
3. O'qitiladigan mavzularga oid respublikadagi kimyoviy tabiiy zaxiralar va ulardan mahsulotlar ishlab chiqarishni bayon etish orqali o'quvchilarni vatanga sadoqat, fanga bo'lgan qiziqishlari va tabiatga chtiyoqkorona munosabatda bo'lishlarini tarbiyalaydi;
4. O'quvchilarning kimyoviy bilimlarni egallashdagi faoligi va tafakkurini rivojlantiradi;
5. Kimyoviy ishlab chiqarishlarning xalq xo'jaligidagi salmog'ini va ishlab chiqarish texnologiyalarini bayon etish orqali o'quvchilarda mehnat ta'limini shakillantiradi va kimyo kasbiga yo'naltirish masalarini amalga oshiradi.

ANORGANIK KIMYO UCHUN DARS ISHLANMASINI YARATISH.

Ma'lumki, darslik kimyo o'quv fanining asosini tashkil etadi. U vazirlik tomonidan tasdiqlangan dastur asosida yoziladi. Darslikda bayon etilgan mavzular o'quv rejasiga mos kelishi zarur.

Darslikda bayon etilgan mavzular asosida kimyo fani o'qitiladi. Kimyo fanini o'qitishga quyidagi talablar qo'yiladi:

-ilmiy bilimlar sistemasi;

-ko'nikma va malakalar sistemasi;

-kimyo sohasida insoniyat to'monidan to'plangan ijodiy faoliyattajribasi;

-moddiy olam va atrof-muhitga munosabati.

Bularning hammasi bir-biriga o'zaro bog'lamgan. Masalan, kimyoviy reaksiyaning o'tish qonuniyatini bilmasdan turib, uni amalgal oshirish mumkin emas. Tajribasiz o'rganilayotgan obyekt to'g'risida to'liq bilimlar olib bo'lmaydi. Shuningdek, darslik bilan ishlamasdan turib bilimlarni mukammal egallash qiyin. Inson ijodiy faoliyat tajribasiga ega bo'lmasa, unda original fikirlar kelib chiqmaydi. Bunday holatda o'qituvchi nusxa ko'chirish xususiyatga ega bo'lib qoladi. Shu sababli ham murakkab masalalarni hal qilisholmay va o'z bilimlarini yangi sharoitga bog'lay olmaydi. Ijodiy faoliyatsiz bilimlarini hayot bilan bog'lay olmaydi.

Dastavval maktab kimyo kursidagi kimyoviy bilimlar sistemasini ko'rib chiqamiz. Ilmiy bilimlar sistemasi maktab kimyo ta'limining murakkab muammosi hisoblanadi. Fan ma'lumotlaridan shunday bilimlarni tanlab olish kerakki, u kelajakda o'zgarmas, hayot bilan bog'liq. Tarbiyalovchi mazmunga ega bo'lsin. Maktab kimyo kursining mazmuniga bo'lgan birinchi talab uning ilmiyligidir. Ilmiylik prinsipi- bu asoslangan nazarya va jarayonlarning qonuniyatları, moddalarning aniqlangan xossalari o'quv mazmunida mantiqiy bog'lanishda yoritilishini aks ettiradi.

O'quv materialining o'quvchilar bilim darajasiga mosligi. Bu prinsipning mazmuni shundan iboratki, masalan, atom tuzilishi nazariyasini bilmasdan turib, orbitalarning gibridlanishini tushinarli bayon qilish qiyin. Elektrolitik dissotsiatsiyalish va oksidlanish-qaytarilish jarayonlari bilimlarisiz elektrolitlar, elektroliz mohiyatini tushuntirish mumkin emas. Shuning uchun moslik prinsipi izchillik qonuniyatiga bevosita bog'liq bo'ladi. Kimyo kursining izchilligiga o'quv materiallarining mantiqiy ketma-ketligini saqlash bilan erishiladi. Masalan, moddalarning xossalari ularning tarkibi va tuzilishi bilan bog'liq bilimlarga tayangan holda o'rganiladi. Kimyoviy element tushunchasi dastlab atomlar turi deb qaralsa, atom tuzilishi nazariysi o'rganilgandan keyin yadro zaryadlari bir xil bo'lgan atomlar turi, deb ta'riflanadi. Atomning o'zi ham dastlab kimyoviy jihatdan bo'linmas zarracha deb qaralsa, keyin murakkab zarracha deb yuritiladi.

Materialni sistemali joylashtirishda 2 xil mantiqiy fikr yuritiladi. O'quv materiallarini induktiv (1) va deduktiv (2) joylashtirish.

Induktiv bayon qilish asosan. Kimyo o'qitishning dastlabki bosqichlarida olib boriladi. Unda faktik bazaga ega bo'linmaydi. Shuning uchun ijodiy umumlashtirish ham mumkin emas. Materialni deduktiv bayon qilishda nazariy bazaga ega bo'linadi va uning asosida material o'rganiladi. Masalan, deduktiv bayon qilishni ko'rib chiqaylik. Galogenlar va boshqa guruh elementlarini o'qitishdan avval davriy qonun

va moddalar tuzilishi o'rganilgani uchun ular asosida guruh elementlarining xossalari dagi o'zgarishlar tushuntirib beriladi. Sistemalilik prinsipining amalga oshirilishi predmetlararo bog'lanishga zamin yaratiladi.

O'quv materialini turmush va ishlab chiqarish bilan bog'lash: mehnat ta'limini amalga oshirish uchun o'quvchilar eng muhim kimyoviy moddalarning turli sohalarda ishlatalishi bayon etiladi.

Mazmunning bir butunlik prinsipi. O'quv predmeti fan rivojilanishining asosiy va tarbiyaviy yo'nalishlarini aks ettirmog'i lozim. Zamonaviy kimyoviy tadqiqotlar davriylik, moddalarning tuzilishi, kimyoviy kinetika, kimyoviy termodinamika sohalarida olib boriladi.

Umum tomonidan tan olingen ilmiy-tadqiqotlar natijalarini bayon etish prinsipiiga asosan o'quv fani mazmunida munozarali materiallar berilmasligi kerak.

Ilmiy salmog'ining yuqori bo'lish prinsipi. O'quv predmetida umum tomonida tan olingen bilimlar berilishi kerak, masalan, energiyaning saqlanish qonuni va bir turdan ikkinchi turga o'tish qonuni va bir turdan ikkinchi turga o'tish qonuni. davriylik qonuni hamma tomonidan tan olingen.

O'quvchilarning yosh xususiyatlari bilimlarning mos kelish prinsipi. Masalan, 7-sinfda atom yadroси tuzilishining berilishi noto'g'ri.

8-sinfda gidroksidlar xossalari, elementning oksidlanish darajasi va markaziy atomning radiusiga bog'liqligi qonuniyatlarining berilishi o'zini oqlamadi, o'quvchilar bu masala darslikdan oilb tashlanadi.

Maktablar sharoitiga moslik prinsipi. Maktablarda keying 5-6 yil davomida qimmatbaho asboblari va reaktivlar olish imkoniyati bo'lmasa, ular yordamida bajariladigan tajribalar dasturda berilmasligi kerak.

Kimyoviy birliklarning jahon andozalari talablariga moslik prinsipi. Ilgari qo'llanilgan gramm-atom, gramm- molekula, gramm-ion, gramm-ekvivalent tushunchalari dunyo standartlaridan olib tashlangan va ular o'rniغا mol tushunchasi kiritilgan. Kimyo darsligini yozishda xalqaro birliklardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

ANORGANIK REAKTSIYA TURLARI MAVZUSINI O'QITISH METODIKASI

Anorganik reaksiya turlarini o'itishda bir necha mavzularga dars ishlamalarini ko'rib chiqamiz:

Kimyoviy reaksiyalar bir necha turga bo'linadi: birikish, ajralish, o'rin olish va almashinish.

Birikish reaksiyaları. Kimyoviy reaksiya natijasida ikkita yoki bir nechta moddalardan bitta yangi modda hosil bo'ladigan reaksiyalar birikish reaksiyaları deyiladi.




Oltингугурт билан темирнинг бирикish реаксијаси. Тажриба учун, масалан, 2 г олtingugurt va 3.5 g temir olish mumkin. Tayyorlangan aralashmada oltингугурт билан темирнинг alohida zarrachalari, bu moddalarning rangi ko'zga tashlanib turadi.

Stakandagi suvgaga aralashmadan bir chimdni tashlansa, oltингугурт suv yuzasiga qalqib chiqadi (u suvdaga ho'llanmaydi), temir esa cho'kadi (suvda xo'llanadi).


Aralashmani magnit yordamida tarkibiy qismlarga ajratish ham mumkin. Buning учун соат оynasi yoki shisha plastiqa ustiga aralashmadan sepib, ustiga qogoz yopiladi va magnit yaqinlashtiriladi, u temirni uziga tortib oladi, oltингугурт esa соат оynasida koladi. SHundan keyin aralashma probirkaga solinadi, probirkaga shtativ qisqichi bir oz qiya qilib o'rnatiladi va qizdiriladi. Aralashmaning bir joyida reaksiya boshlanguncha (aralashma qattiq cho'g'languncha) qizdirish kifoya, shundan keyin reaksiya o'z o'zi-dan davom etaveradi (ekzotermik prosess). hosil bo'lgan temir (II)- sulfidni ajratib olish учун probirkani sindirishga to'gri keladi.

Olingan mahsulotda endi oltингугурт va temirning (II)-sulfidni hovonchada ezib, suvgaga tashlaganda ham yoki unga magnit ta'sir ettirilganda ham tarkibiy qismlarga ajralmaydi. Shunday qilib, ikki moddadan bitta yangi modda, dastlabki moddalardan mutlaqo farq qiladigan va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan modda hosil bo'ldi.

Ajralish reaksiyaları. Reaksiya natijasida bitta moddadan bir nechta yangi moddalar hosil bo'lsa, bunday reaksiyalar ajralish reaksiyaları deyiladi.



O'rın olish reaksiyaları. Oddiy va murakkab moddalar o'zaro ta'sirlashib, natijada oddiy modda atomlari murakkab modda elementlaridan birining o'rmini olsa, bunday reaksiyalar o'rın olish reaksiyaları deyiladi.



Tajriba учун mis kuperosi emas, balki mis (II)-xlorid olish kerak, chunki mis (II)-xlorid olinganda kuzatiladigan hodisaning mohiyatini tushuntirish oson bo'ladi (o'quvchilar hali kislotalar va kislota qoldiqlari haqida tushunchaga ega emaslar).

Mis (II)-xloriddan misni temir ta'sirida siqib chiqarish tajribasi quyidagicha o'tkaziladi. Probirkaga yoki stakanga mis (II)-xloridning suyultirilgan eritmasi (havo rang eritma) quyiladi va sirti moydan tozalangan bir necha mayda mix yoki kanselyariya skrepkasi tashlanadi. Eritma havo rangdan och yashil rangga (Fe^{2+} -ionlari) kiradi. Temirdan mo'lroq olish kerak, aks holda biz faqt misning ajralib

chiqayotganini ko'tamiz, ortib kolgan mis (II)-xlorid, (havo rang) esa hosil bo'layotgan temir (II)-xloridning rangini bosib ketishi va ko'rsatmay qo'yishi mumkin. Hosil bo'lган misni ko'rish uchun mis ustidagi eritma boshqa idishga quyiladi.

Tajribani bunday o'tkazilishi o'rин olish reaksiyasi oddiy modda bilan murakkab moddaning o'zaro ta'siri natijasida boshqa murakkab modda va oddiy modda xosil bo'lishidan iboratdir.



Almashinish reaksiyalari.

Kimyoviy reaksiya natijasida ikki xil modda o'z tarkibiy qismlari bilan almashib yangi ikki xil modda hosil bo'lishiga almashinish reaksiyalari deyiladi.

Jarayonning tabiatи bo'yicha

PARCHALANISH REAKTSIYASI




O'RIN OLİSH REAKTSIYASI



BIRIKISH REAKTSIYASI



ALMASHINISH REAKTSIYASI



Issiqlik chiqishi yoki yutilish alomatiga ko'ra kimyoviy reaksiyalar — **ekzotermik** va **endotermik** reaksiyalarga bo'linadi. Issiqlik chiqishi bilan boradigan reaksiyalar ekzotermik reaksiyalar deyiladi.

Masalan, vodorod bilan xlordan vodorod xlorid hosil bo'lish reaksiysi:



Atrof-muhitdan issiqlik yutilishi bilan boradigan reaksiyalar endotermik reaksiyalar deyiladi. Masalan: $\text{N}_2 + \text{O}_2 = 2\text{NO} + 180,8 \text{ kJ}$

Bulardan tashqari qaytar va qaytmas reaksiyalar, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalar bor.

Nazorat savollari

1. Kimyoviy reaksiyalarning qanday turlarini bilasiz?
2. Birkish reaksiyalari deb nimaga aytildi?
3. Ajralish reaksiyalari deb nimaga aytildi?
4. Termokimyoviy reaksiyalar qanday turlarga bo'linadi?
5. Qaytar va qaytmas reaksiyalarga misollar keltiring.
6. Kimyoviy bog'lanishlarni vujudga kelishini tushuntiring?
7. Ionli bog'lanish qanday hosil bo'ladi?
8. Kovalent bog'lanish va uning turlari haqida gapiring.

9. Valentlik va oksidlanish darajasi nima?

Dars ishlama: №1.

Mavzu: Kimyoviy reaksiya turlariga oid tajribalar.

Reja:

1. Laboratoriya ishi -2 ni o'tkazishni tashkillashtirish va o'tkazish.

2. Tegishli xulosalarni olish.

Tayanch iboralar: probirkalar uchun shtativ, spirt lampasi, laksus qog'oz.

Ko'rsatilaigan namoyishli tajribalar: Cho'kma, gaz hosil bo'lishi va neytrallanish reaksiyalarini tajribada ko'rsatish.

Savol:

1. Laboratoriya va amaliy ish farqi nimada?

2. Laboratoriyanı bajarishda nimalarga axamiyat berish kerak?

3. Texnika xavfsizligi qoidalarini bilasizmi?

4. Baxtsiz hodisalar ro'y berganda qanday 1-yordam ko'rsatiladi?

2-ilova

Nº	Reaktivlar va jihozlar	Ishning borishi
1	Na, Ca metali, Distillangan suv, probirkalar	Birikish reaksiyasi 2 ta probirka olib, 4-6 tomchidan: 1-distillangan suv+Na metall, 2-ga Ca+ distillangan suv soling, eritmaga laksus qog'ozini tushiring, rangini taqqoslang. Reaksiya tenglamasini va xulosangizni yozing.
2	ZnSO ₄ , Cr(NO ₃) ₃ , NaOH Al ₂ (SO ₄) ₃ , HCl eritmasi, probirkalar.	almashinish reaksiyasi 3 ta probirka olib, 1- ZnSO ₄ , 2- Cr(NO ₃) ₃ , 3-Al ₂ (SO ₄) ₃ eritmasidan 2 ml dan quying. Har bir probirkaga cho'kma hosil bo'lguncha tomchilatib NaOH eritmasidan quying. Hosil bo'lgan cho'kmalarni har birini 2 ta probirkaga teng bo'ling. Biriga HCl, 2-ga NaOH eritmasidan cho'kma eriguncha quying. Nimani kuzatasiz. Reaksiya tenglamasini va xulosani yozing.
3	CaCO ₃ bo'lagi probirkasi, asbest to'r.	Ajralish reaksiyasi CaCO ₃ tuzini spirt lampada qizdiramiz . Nimani kuzatasiz. Reaksiya tenglamasini va xulosani yozing.

4	Zn metali HCl, H ₂ SO ₄ critmasi, probirkalar.	O'rın olish reaksiyasi Zn metali bo'lakchasini probirkadagi suytirilgan 5ml sulfat kislotaga solamiz. Nimani kuzatasiz. Reaksiya tenglamasini va xulosani yozing.
---	---	--

3-ilova

Nº	Reaksiya tenglamasi	Xulosa
1		
2		
3		

Topshirildi (sana) _____ Oqituvchining imzosi: _____

Dars ishlanma: №2.

Mavzu: Oksidlanish-qaytarilish reaksiya turlari.

Reja:

1. Molekulalararo oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari.
2. Ichki molekulyar oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari.
3. Disproportsiyalanish oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari.

Tayanch iboralar: Organik va anorganik moddalarning oksidlanish darjası, oksidlovchilar va qaytaruvchilar, molekulalararo, molekulalar ichidagi, disproportsiya va sinproportsiya reaksiyalari

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: Atamalar zanjiri, mavzuga doir misollar, Savol-javob

- **Topshiriq.** Atamalar raqamini ularning ta'rifini bilan juftlang.



1	Molekula	A	<i>ayni bir element atomlarining muayyan sondagi boshqa element atomlarini biriktish qibiliyati.</i>
2	Valentlik	B	<i>Atomlarning o'zaro birikishi</i>
3	Oksid	D	<i>Molekulalar yig'indisi</i>
4	Qaytaruvchi	E	<i>Tarqalmoq ma'nosini anglatadi.</i>
5	Dispers	F	<i>Elektron beruvchi</i>
6	Gidrolizlanish	H	<i>Electron oluvchi</i>
7	Modda	G	<i>Elementlarning kistorod bilan hosil qilgan birikmalar.</i>
8	Oksidlovchi	J	<i>Moddalarning suv tasirida parchalanishi</i>

Topshiriqning javobi: 1-B,2-A,3-G,4-F,5-E,6-j,7-D,8-H.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida oksidlanish va qaytarilish jarayonlari birga sodir bo'ladi. Shu jarayonlardan foydalanilib oksidlanish-qaytarilish jarayonlarini tenglamalarini tuzish mumkin. Bunda asosan ikki xil usuldan foydalaniladi.

A) Elektron-balans usuli. Bu usul qaytaruvchi bergan elektronlar soni oksidlovchi qabul qilgan elektronlar soniga tengdir, degan qoidaga asoslanadi. Peaksiya tenglamasini tuzishda (tenglashtirishda) quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak:


1. Peaksiya tenglamasidagi elementlarni oksidlanish darajalari yozib chiqiladi.




2. Oksidlanish darajalari o'zgargan atomlarning elektron tenglamalarini tuzamiz. Tenglamalardagi olingan va berilgan elektronlar soni almashtirilib olinadi va umumiy ko'paytma teng bo'ladi.



3. Almashtirib olingan sonlar reaksiya tenglamasida koefisient sifatida qo'yiladi. Pux Zn^{+2} oldiga 3 N^{+2} oldiga 2 raqamlari qo'yiladi. Kolgan molekulalar oldiga shulardan kelib chiqib koefisientlar tanlanadi.



Yana bitta murakkabroq reaksiya misolida ko'rib chiqamiz.



Oksidlanish darajalari o'zgargan atomlarning elektron tenglamalarini tuzamiz.


$\text{Fe}^{+2} - 1\text{e}^- = \text{Fe}^{+3}$	11	4
$2\text{S}^{-1} - 10\text{e}^- = \text{S}^{-4}$		
$\text{O}_2^0 + 4\text{e}^- = 2\text{O}^{-2}$	4	11

Almashtirib olingan sonlar reaksiya tenglamasida koefisient sifatida qo'yiladi.



B) Ion-elektronli usul (Yarim reaksiya usuli). Bu usulda oksidlanish qaytarilish reaksiyalarini eritmada ionlar o'rtaida boradi deb qaraladi.

1. Peaksiya tenglamasini to'la ionli tenglamasini yozib olamiz.




2. Tarkibi va oksidlanish darajasi o'zgargan zarrachalarni (atom, molekula yoki ion) aniqlab olib, elektron tenglamalarini tuzamiz.



3. Olingan va berilgan elektronlar sonini koefisient sifatida almashtiramiz va elektron tenglamadagi barcha ionlarni koefisientlarga ko'paytiramiz.

5	2	$\text{MnO}_4^- + 8\text{H}^+ + 5\text{e}^- = \text{Mn}^{+2} + 4\text{H}_2\text{O}$
2	5	$\text{NO}_2^- + \text{H}_2\text{O} - 2\text{e}^- = \text{NO}_3^- + 2\text{H}^+$



4. Hosil bo'lgan elektron tenglamalar o'ng va chap tomonlari bir biriga solishtirilib qo'shiladi va ionlar oldida qolgan koefisientlar asosiy reaksiyaga qo'yib tenglashtiriladi.



Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining sinflanishi (klassifikasiyasi)

1. Molekulalararo oksidlanish-qaytarilish reaksiyaları. Oksidlovchi va qaytaruvchi boshqa boshqa molekulalarda bo'ladigan reaksiyalar.



2. Ichki molekulyar oksidlanish-qaytarilish reaksiyaları. Oksidlovchi va qaytaruvchi bitta molekulada bo'ladigan reaksiyalar.



3. Disproporsiyalanish oksidlanish-qaytarilish reaksiyaları. Oksidlovchi va qaytaruvchi bitta element atomi bo'lgan reaksiyalar, bunda bir xil oksidlanish darajasidan har xil oksidlanish darajasiga o'tadi.



4. Dinproporsiyalanish oksidlanish-qaytarilish reaksiyaları. Oksidlovchi va qaytaruvchi bitta element atomi bo'lgan reaksiyalar, bunda har xil oksidlanish darajasidan bir xil oksidlanish darajasiga o'tadi




Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini tenglamalarini tuzish.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining tenglamalarini, asosan, ikki usulda tuziladi:


1. Elektron balans usuli. 2. Yarim reaksiya usuli.

Elektron balans usuli qaytaruvchi yo'qotgan umumiy elektronlar sonini oksidlovchi qabul qilgan elektronlar soni bilan baravarlashga asoslangandir. Bunda quyidagilarga amal qilish kerak:


1. Eng avval reaksiya sxemasi, ya'ni reaksiya ucun olingan va reaksiya natijasida hosil bo'lgan moddalarning formulalari yoziladi. Masalan:





2. Reaksiyadan oldin va reaksiyadan keyin oksidlanish darajasi o'zgargan elementlarning oksidlanish darajalari hisoblab topiladi va ular har qaysi elementning belgisi tepasiga yozib qo'yiladi:



3. Oksidlanish va qaytarilish jarayonlarini ikki qatorga yozib oksidloychining olgan va qaytaruchining bergen elektronlari soni ularning yoniga yoziladi:



4. Misning bergen va azotning olgan elektronlarini balans qilish uchun sxema quyidagicha ko'chirib yoziladi:



5. Bu topilgan koefitsiyentlar o'zaro qisqarsa, qisqartiriladi va oksidlovchi hamda qaytaruvchining oldiga, ya'ni oksidlovchining olgan elektronlari soni qaytaruvchiga koefitsiyent sifatida, qaytaruycning bergan elektronlari bo'lsa oksidlovchiga koefitsiyent sifatida qo'yiladi:



6. Reaksiyada ishtirok etayotgall boshqa birikmalarning koefitsiyentlarini topishda tenglamalarning o'ng va chap tomonlari bir-biri bilan taqqoslab chiqiladi:



Nazorat savollari.

- 1.Qaytaruvchi va oksidlovchilar qanday moddalar bo'lishi mumkin?
- 2.Elementlarni davriy sistemasidagi o'miga qarab, oksidlovchi va qaytaruvchilarni qanday ajratish mumkin?
- 3.Murakkab moddalarni oksidlovchi va qaytaruvchilarga qanday bo'linadi?
- 4.Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari deb nimaga aytildi?
- 5.Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining qanday turlari bor?
- 6.Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini qanday usullarda tenglashtiriladi?
- 7.Oksidlovchi va qaytaruvchi nima?
- 8.Oksidlanish - qaytarilish reaksiyalariga muhit qanday ta'sir ko'rsatadi
- 9.Eng muhim oksidlovchilar va eng muhim qaytaruvchilarga misollar keltiring.

ORGANIK KIMYO UCHUN DARS ISHLANMASINI YARATISH.

Respublikamizda ta'lim sohasida o'tkazilayotgan islohatlarning asosiy maqsadi chuqr bilimga ega bo'lgan barkamol yosh avlodni tarbiyalashdan iborat. Har bir fan tabiatdagi o'zgarishlar, muammoli masalalarni kuzatish, yechim axtarish natijasida kelib chiqqanligi hammaga ayon. Hozirgi kunga kelib, har bir fan o'z rivojlanish davrining eng yuqori pog'onasiga ko'tarilmoqda va hayotimizda o'z o'mini topmoqda.

Maktablarda spirtlar mavzusini o'qitishda metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Dars o'tishda interfaol metodlardan va mantiqiy usullardan (solishtirish, analogiya, umumlashtirish) foydalanish natijasida o'quvchilarda kimyoviy bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish shakllanadi.

Spirlarning gomologik qatori o'rjanilayotganda bir necha spirtlar ketma-ket yoziladi, tuzilishi va tarkibi solishtiriladi. Hamma spirlarda gidroksil gruppasi borligini e'tiborga olib qo'yiladi. Nima uchun ularni to'yingan bir atomli spirtlar

deyiladi va ularga uglevodlarning qisman oksidlanishi natijasida vujudga kelgan deb qaraladi. O'quvchilar uglerod soni oshib borayotgan spirtlar qatoriga e'tibor beradi. Bu qatorda yonma- yon turgan ikkita spirt tarkibi jihatidan bir-biridan $-CH_2$ gruppaga farq qilishiga e'tibor beradi. Ular uchun umumiyligi formula $C_nH_{2n+1}OH$ yoki $R - OH$ ekanligini anglash qiyin emas. Spirtlarning birinchi vakili metil spirti metandagi bitta vodorodga bitta gidroksil almashinishi natijasida vujudga kelganligini bilib oladi. Spirtlardagi ikkinchi, uchinchi vodorodlar ham gidroksilga almashinishi mumkinligi ma'lum bo'lib qoladi. Spirtlar molekulasi dagi gidroksillar soniga qarab bir atomli, ikki atomli va hakozo ko'p atomli bo'lishiga ishonch hosil qiladi va spirtlar sinfiga ta'rif beriladi.

Bundan keyin spirtlarning fizik xossalari o'rganishga o'tiladi. Bunda birinchi navbatda shunga e'tibor berish kerakki, o'rganilayotgan spirtlar qatorida unga mos keluvchi to'yingan va to'yinmagan uglevodlar singari gazsimon moddalar yoq, garchi ular bir-biridan molekulyar massalari jihatidan uncha katta farq qilmasalar ham. Buning sabablarini tushuntirish keyinroq kerak bo'ladi.


Mavzuning har bir qismida molekulalarda atomlarning o'zaro ta'siri g'oyasi yotadi. Etil spirtini o'rganishdayoq kislород atomining o'nga yondosh turgan vodorodga ta'siri ko'rib chiqiladi.

O'quvchilarning spirtlarni o'rganishda ba'zi qiyinchiliklarga duch kelishini ham aytib o'tsa bo'ladi. Masalan, o'quvchilar etil spirtining struktura formulasini aniqlashda undan bitta vodorod atomi aktiv bo'lib kimyoviy reaksiyalarda u ajralib chiqadi. Lekin ular bitta spirt molekulasini shuncha hajmidagi vodorod ajralib chiqishini yaxshi tasavvur qila olmaydi. Shuning uchun bu jarayoni tushintirishda tajriba va hisob kitoblar mantiqan yaxshi bog'lanishi zarur.

O'quvchilar etil spirit modeli bilan tanishayotganda ular ko'pincha nima uchun kislородning uglerod va vodorod atomlari bilan kovalent bog'lanishi bitta chiziqda yotmayotganligi, ular bir-biriga ma'lum burchak ostida joylashganligini yaxshi tushunmaydi.



Ularmi tushuntirishni metanning tetraedir tuzilishi bilan bog'lab tushuntirish kerak bo'ladi.



Spirtlar mavzusini maktabda o'tkazish mumkin bo'lgan eksperimentlarga boy. O'qituvchi tomonida o'tkaziladigan tajribalar bilan (spirlarda vodorot ajratib olish, brometan olish, spirtlar degidratansiyasi, glitserin va fenolga natriyning ta'siri) bir qatorda o'quvchilarning o'zlarini ham tajriba o'tkazish imkoniyatlariiga ega. Ulami bajarish o'quvchilarning mustaqil harakat qilish darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ba'zi o'qituvchilar o'z vaqtini ayash maqsadida o'quvchilarga C₂H₆O tarkibga javob beruvchi ikkita struktura formulasini berib spirtlarning tuzilishini tushuntirmoqchi bo'ladi. Bu noto'g'ri metodik yondoshuv hisoblanadi, chunki, predmetlarni o'rganish asosida sabab – natija bog'lanishlar prinsipini yechish masala yotadi. Buning uchun modda tuzilishini aniqlashda o'qituvchi o'quvchining faol izlanishini ta'minlash kerak. Ana shundan keyingina o'quvchilar tomonidan extimoli ko'p, va mantiqqa mos bo'lgan strukturalar topilgach gidroksil gruppasidagi kislorod bilan bog'langan vodorod, uglerod bilan bog'langan vodorodlar orasidagi farq va uning sabablari aniqlanadi. Uning to'g'rilingini isbotlash uchun spirit bilan natriy orasidagi o'zaro ta'sir tajribasi namoyish qilinadi, va natriy ta'sirida qaysi vodorod ajralib chiqadigan kislorod bilan bog'langanini yoki uglerod bilan yoki bo'lmasa u ham bu hammi? O'quvchi bunga darrov javob bera olmaydi. Yana ham aniqroq savol qo'yish mumkin: har bir spirit molekulasiidan bittami, beshtami yoki oltitami vodorod chiqadimi degan savol qo'yilsa unga quyidagicha javob berish mumkin: Vodorod atomini to'g'ridan-to'g'ri sanab bo'lmaydi, lekin uni hioblashda modda miqdori birligidan moldan foydalanish mumkin. Buning uchun reaksiyaga kirishayotgan spirtning va ajralib chiqayotgan vodorodning mollar soni hisoblash mumkin bo'lgan tajriba o'tkazish zarur.

Qo'yilgan tajriba asosida C₂H₆O tarkibli moddaning tuzilishi quyidagicha ekanligi aniqlanadi: CH₃ – CH₂ – O – H

Organik kimyo kursini o'rganish jarayonida solishtirish xarakteri ham murakkablashib boradi. Avval bitta gomologik qatordagi moddalar bir-biri bilan solishtiriladi, keyin esa turli sinf birikmalarining vakillari solishtiriladi. Har bir

mavzu organik kimyo kursi jarayonida umumlashtirib turish zarur. O'zaro ta'sir tushunchasini o'rganishda tajriba shuni ko'rsatadiki, bunda muammoli vaziyatlar hosil qilish imkoniyati tug'iladi, chunki ko'rib chiqiladigan muammolar moddalar xossasini tushuntirish, moddalarning reaksiyaga kirish qobiliyatini avvaldan aytib berish imkoniyatlarini beradi. Demak, o'quvchilarga mavzularni tushuntirishda komponentlik asosida yondashish maqsadga muvosif hisoblanadi.

“Uglevodorodlarning tabiiy manbalari modulini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish”

Kimyoda “Uglevodorodlarning tabiiy manbalari” mavzusi bo'yicha talabalarning kimyoviy bilim, ko'nikma va malakalarini bugungi davr talabi doirasida shakllantirish va rivojlantirishda, o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalarining o'rni katta. Kimyo ta'lmini rivojlantirishda o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari o'mi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qitishning yangi metodlari orqali mavzular mazmunini talabalarga yetkazib bo'lmaydi, shunday ekan. Respublikamizda yosh avlodga ta'lim tarbiya berilishi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bir davrda, talabalarda kimyo ta'lmini rivojlantirishda uglevodorodlarning tabiiy manbalari mavzusini o'qitish yangi ta'lim texnologiyalardan foydalanish masalalari dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

«Uglevodorodlarning tabiiy manbalari» moduliga oid talabalar bilimlarni aniqlash maqsadida yaratilgan «Keys-stadi»

«Keys-stadi» metodini amalga oshirish uchun organik kimyo kursining, “Uglevodorodlarning tabiiy manbalari” yuzasidan bilimlarni aniqlash maqsadida o'qituvchi tomonidan g'oyalalar tuzib beriladi. Ma'ruza va laboratoriya mashg'ulotida dars rejasi bo'yicha tuzilgan har bir g'oya o'quvchilarga o'qib eshittiriladi. Bu g'oyalarni ikki guruh bo'yicha hal qilishda guruhdagi o'quvchilar muhokama qiladilar va bir o'quvchi olgan bilimlari asosida javob beradi. Javoblarni guruhdagi bir o'quvchi yozib boradi. «Keys-stadi» oxirida ikkala guruh g'oyalarni talabalarga eshittiriladi. Taqdim qilingan g'oya bo'yicha o'quvchilarning bergen javoblarini keltiramiz.

KEYS №1

Keysning vaziyati: Organik moddalar insoniyatga juda qadimdan ma'lum bo'lgan. Ular qadim zamondan beri o'simliklardan shakar va moy olishni, yog'larni qaynatib sovun olishni bilganlar. Hindiston va Misrda organik kimyo fani fan sifatida shakllanmagan bo'lsada, odamlar organik bo'yoqlardan foydalanib, bo'yash san'atini rivojlanтирган edilar.

Sof holdagi organik moddalar dastlab 900 yillarda arab alkimyogarlari tomonidan olingan. Umuman moddalar to'g'risidagi tushunchalar dastlab

Aristotelning filosofik qarashlarida ma'lum bo'lган. Uning fikricha hamma moddalar 4 ta «element» dan iborat bo'lib – ular yer, suv, havo va olov.

Kimyoviy bilimlar XVI asrdan boshlab rivojlana boshlangan. O'sha paytda nazariy asosda bo'limasada moddalar to'g'risida juda ko'p tajribalar to'plangan.

XI asrda «Flogiston» nazariyasi davrida asta-sekin organik va anorganik moddalarning sinflarga bo'linish davri boshlandi. 1807 yilda shved olimi Ya.Bertselius tirik organizmdan olingan moddalarni organik moddalar deb atashni taklif qildi.

XVIII asr o'rtalarigacha organik moddalar sistemali ravishda o'rganilmagan bu davrgacha atiga to'rtta organik modda – sirkə, chumoli, benzoy va qahrabo kislotalarigina ma'lum bo'lган, K.Sheelee 1770 yillarda ular bilan shug'ullangan birinchi kimyogar hisoblanadi. Sheele tabiiy mahsulotlardan vino, sut, limon, olma va boshqa kislotalar hamda glitserin ajratib oldi.

Bertselius organik va noorganik moddalarning bir-biridan keskin farq qilishini bilgan holda, noorganik moddalar faqat laboratoriyalarda turli kimyoviy jarayonlar natijasida olinadi, organik moddalar yesa faqat organizmlarda hayotiy jarayonlar natijasida sirlı “hayotiy kuch” tasirida olinadi, deb vitalistik nazariyaga asos soldi. Bu nazariya organik kimyo sohasidagi tadqiqotlarning rivojini biroz orqaga surgan bo'lsada, bahzi kimyogarlar organik moddalar ham noorganik moddalarday kolbalarda sintez qilinishi mumkin, deb isbot qilishga o'rinishdi.

Keys topshirig'i

1. Organik kimyoni fan sifatida rivojlanishida qanday kashfiyotlarning amaliy ahamiyati katta bo'ldi?

2. Organik birikmalarning o'ziga xos xususiyatlari nimalarni keltirish mumkin?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Абдусаматов А. Органик кимё. Ташкент, 2005.
2. Умаров В. Органик кимyo. Toshkent: Iqtisod – moliya. 2007.
3. Собиров З. Органик кимё. Ташкент. 1999.

Keys yechimi 1.

1. Nemis kimyogari F.Vyolerning 1824- yili o'simlik a'zosida uchraydigan oksalat kislotani ditsiandan sintez qilishi;
2. 1828-yili inson va hayvon a'zosida hosil bo'ladigan mochevinani ammoniy tsianatdan laboratoriya sharoitida sintez qilishi;
3. 1842-yilda rus olimi N.N.Zininning benzoldan anilinni sintez qilishi;
4. Nemis kimyogari A.V.Kolbe va ingliz olimi Franklendlarning sirkə kislotani

sintez qilishi;

5. 1854- yili fransuz kimyogari M. Bertloning yog'ni olishi;
6. 1861-yili rus olimi A.M.Butlerovning chumoli aldegididan shakarsimon moddani olishi natijasida organik moddalar faqat inson va hayvon a'zosidagina uchramasligi isbotlanib, ularni sintez yo'li bilan olishga keng yo'l ochildi. Bu hodisalar organik kimyoning mustaqil fan sifatida shakllanishiga sabab bo'lgan.

Keys yechimi 2.

Organik birikmalarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Organik birikmalar tarkibida uglerodning borligi va uning boshqa elementlar bilan hamda boshqa uglerod atomlari bilan kovalent bog'lar orqali birikishi natijasida uzun uglerod zanjirini hosil qila olishi;

2. Organik birikmalarning tarkibida uglerod va vodorod borligi uchun, ular yonganda karbonat angidrid va suv hosil bo'ladi;



3. Suyuqlanish va parchalanish harorati anorganik birikmalarga nisbatan ancha past;

4. Organik moddalar anorganik moddalarga nisbatan beqaror, harorat ta'sirida oson o'zgaradi;

5. Organik birikmalar ko'pchilik anorganik birikmalardan farq qilib dissotsialanmaydi va noelektrolitlar hisoblanadi;

6. Organik reaksiyalar anorganik moddalar orasidagi reaksiyalarga nisbatan sekin boradi. Chunki organik birikma kovalent bog'lar orqali bog'langan;


7. Organik birikmalarda izomeriya hodisasi uchraydi.

ORGANIK REAKTSIYA TENGLAMALARING MEXANIZMINI O'QITISH METODIKASI.

Organik reaksiya tenglamalarning mexanizmi mavzusi qiyinn o'zlashtiriladigan mavzulardan biri hisoblanadi. Shuning uchun bu mavzuni o'qitishda o'qituvchidan katta ma'suliyat talab qilinadi.

Ushbu mavzuni o'qitishda AKT dan unumli foydalanish yaxshi natija beradi.

Taqdimotlar yaratish, mavjud animatsiyalardan foydalanishva uni izihlash o'quvchilar tomonidan yaxshi qabul qilinadi.




Nukleofil reaksiya

S_N2


Bisimolekulyar reaksiya




Monomolekulyar reaksiya



ETERIFIKATSIYA REAKTSIYA MEXANIZMI



ORGANIK KIMYODA REAKTSIYA MEXANIZMLARI



Topshiriglar:

1. Organik kimyo fanidan mavzular kesimida tarqatma materiallar tayyorlang.
2. Organik reaktsiya tenglamalarning mexanizm mavzusida taqdimotlar tayyorlang.
3. Organik reaktsiya tenglamalarning mexanizmi mavzusida bideodars tayyorlash.

ORGANIK MODDALARNING FAZOVIY TUZILISHINI O'QITISH METODIKASI.

O'zbek olimi professor A.G.Maxsumov Butlerovning Organik birikmalarga doir tuzilish nazariyasini hozirgi zamон fan yutuqlari asosida rivojlantirib, 1986 yil 20-25 avgust kunlari Rossiya federatsiyasining M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetida bo'lib o'tgan butun dunyo kimyogarlarining VI- xalqaro konferentsiyasida organik birikmalar tuzilish nazariyasini nafaqat molekula tarkibiga kiruvchi atomlarning joylashish tartibi asosida, balki, atom tarkibiga kiruvchi mikrozarrachalarning joylashish tartibi asosida izohlab, organic birikmalar noorganik va boshqa kimyoviy birikmalarga ham tadbiq etish mumkinligi haqida ma'reza qildi. A.G.Maxsumov o'z ma'rzasida kimyoviy birikmalar tuzilishi-temperatura, bosim, erituvchi va boshqa tashqi ta'sirlarda ham o'zgarishi mumkinligini izohlab berdi. Suv molekulasi xona haroratida bir nechta molekula o'rtasida hosil bo'ladigan

assotsiatsiya evaziga molekulalararo vodorod bog'larni hosil qiladi. Bir so'z bilan aytganda, xona sharoitida suv polimer tarzda mavjudligi uchun suyuqlik shaklida bo'ladi. Suv 100°C gacha qizdirilganda vodorod bog'lar uzila boshlaydi va suv bug'lanadi. Bu holda suv trimer, tetramer holatda mavjud bo'ladi. Temperatura yuqori ko'tarilgach, dimer va monomer holatda ko'zga ko'rinishas molekulalarga ajraladi.

Ana shularga asoslanib, A.G'. Maxsumov kimyoviy birikmalar tuzilish nazariyasini quyidagicha ta'riflashni taklif etdi: "*Murakkab zarrachaning tabiat – uning Turkibi hamda kimyoviy, elektron va fazoviy tuzilishiga bog'liqidir*".

A.G'. Maxsumovning ushbu fikrlarini fizik kimyoning IQ,UB, Mass, Rentgen, YaMR spektroskopiya metodlarida, hamda kvant kimyo metodlarida birikmalar tuzilishi, izomeriyasi, tautomeriyasi va reaksiyon qobiliyatini baholash ustida olib borilgan tadqiqotlar va hisob natijalari, hamda Gaussian 98W zamonaliv kvant dasturining Hartree-Fok noempirik metodida elementorganik birikmalar A.G'. Maxsumovning fikricha, murakkab muddaning kimyoviy tuzilishi haroratga, erituvchiga, bosimga, muhitga va boshqa turli omillarga ham bog'likligini izohlab bergenligi uchun A.M. Butlerovning "Organik birikmalar tuzilish nazarisi"ni A.G.Maxsumov tomonidan kimyoviy birikmalar tuzilish nazriyasiga aylantirib, tuzilish nazariyasini yuqori posonaga ko'targanligi uchun va barcha kimyoviy birikmalarga tatbiq etsh imkonini yaratgani uchun ushbu nazariyani

"A.M. Butlerov-A.G'. Maxsumovning kimyoviy birikmalar haqidagi tuzilish nazariyasi" deb nomlashni taklif etamiz". -O'zbekiston xalq tabobati akademiyasi akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan ixtirochi, kimyo fanlari doktori, professor I.R. Asgarov.

"Ilgari noyob, adabiyotlarda hali tasvirlar turli xil ko'p sonli (bir necha yuz) birikmalarning muvaffaqiyatli sintezi bilan yakunlangan A.G'. Maxsumoving ilmiy ishida muallif ishonchli tarzda o'zini sintezini oldindan ko'ra bilishi va eksperimental harakterga ega bo'lgan turli xil masalalarni xal etish qobiliyatini namoyon qilgan, spektroskopiya, xromatografiya va boshqa metodlarning keng qo'llanishi har qanday tahsinga sozovor" – Moskva Davlat Universiteti, akademik O.A.Reutov



Organik moddalarning fazoviy tuzilishini mavzusini o'qitishda Ta'limiy maqsadi: organik moddalarning fazoviy tuzilishi haqida umumiylar ma'lumot berish, shar sterjinli, Dreydin, Styuard-Brigleb modellari, izomeriya xillari haqida tushuncha berish.

Rivojlantiruvchi maqsadi: vazifalarni bajarishda tushuntirish qobiliyatini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash, xulosalar chiqarish.

Tarbiyaviy maqsadi: talabalarning e'tiborini tabiatning asosiy qonunlari va molekulalarning tuzilishining xususiyatlari dunyodagi mavjud tartib va go'zallikka ta'siri.

Pedagogik texnologiyalarni qo'llash usullari: Aqliy hujum, guruhlarda ishlash.

1. Kirish (og'zaki so'rov, mavzuni olib borish, maqsadlarni belgilash, taqdimotlar).




STYUARD BRIGLEBNING YARIMFAZOVIY MODELI

Topshiriqlar.

“Izomerlar” mavzusidagi Klasterni davom ettiring.



Ko'zgu izomeriyasi: optik izomeriya ham fazoviy izomeryaning bir turi bo'lib, bu izomeriya assimetrik uglerod atomi tutgan organik birikmalarda kuzatiladi. Assimetrik uglerod deganda 4 ta valent bog'i turlichayotgan atom yoki atomlar guruhiga bilan bog'langan atomlarga aytiladi.



Fazoviy kimyoda fazoviy tafovutlarni tasvirlash uchun ikkita eng muhim tushunchalar – konfiguratsiya va konformatsiyalardan foydalaniladi. Organik birikmalarning fazoviy tuzilishini fazoviy kimyo o'rganadi. Fazoviy kimyoni uch o'lchovli fazodagi birikmalarning kimyosi deb atash mumkin. Birikmalarning fazoviy tuzilishi faqatgina moddalarning fizik va kimyoviy xossalari bilan bog'liq bo'lmay, balki ularning biologik aktivligi bilan ham o'zaro bog'liqdir. To'yingan birikmalarning molekulalari fazoda doimo o'z formalarini o'zgartirib turadi. Bu o'zgarish issiqlik energiyasi va boshqa ta'sirlar hisobiga ro'y beradi, α -bog'ning erkin aylanishi hisobiga ma'lum vaqtidan so'ng molekula barqaror holatga o'tadi, xuddi shunday holatning hosil bo'lishi yoki atomlarning molekula ichida fazoda bir yoki bir necha σ -bog'lar atrofida aylanishidan hosil bo'ladigan molekulalarning turli holatlariga *konformatsiya* deb ataladi.

Binobaran, konformatsion izomerlar (konformerlar) – *bu fazoviy izomerlar* bo'lib, ular orasidagi farq molekulaning ayrim qismlarini oddiy bog' atrofida aylanishi natijasida kelib chiqadi.

Etantiomerlar fizik va kimyoviy xossalari jihatidan bir xil bo'ladi, ya'ni qaynash, suyuqlanish haroratlari, eruvchanligi, reaksiyon qobiliyatি bir xil bo'ladi. Ular quyidagilar bilan bir-biridan farq qiladi:

1. Etantiomer formalarda, ya'ni jism va uning oynadagi aksi kabi formalarda kristallanadi.
2. Ularning eritmalaridan qutblangan nur o'tkazilganda nur tekisligini ma'lum burchakka, unga yoki chapga buradi, ya'ni optik aktivlikka ega bo'ladi. Shu sababli ularni optik izomerlar ham deyiladi.

Tarkibidagi asimmetrik uglerod atomlari soni bilan optik izomerlar soni orasida quyidagi bog'liqlik bor:


$$N = 2^n$$

N – optik izomerlar soni, n – asimmetrik atomlar soni. Molekulada bitta assimetrik atom bo'lsa, izomerlar soni:

$$N = 2^1 = 2 \text{ bo'ladi.}$$

Diastereomerlar - bu molekulalari o'zaro jism va uning oynadagi aksi kabi bo'lmagan stereoizomerlardir. Demak, diastereoizomerlar bu – bir-biriga oynadagi aksi ustma-ust tushmaydigan stereoizomerlar ekan. Diastereoizomerlar fizik-kimyoviy xossalari bilan bir-biridan farq qiladi.

Yuqorida aytilganlarga yana bir misol keltiramiz, vino kislotasi misolida: organik birikmalar



$$\text{I. } t_{\text{suyuq}} = 140^\circ\text{C} \quad \text{II. } t_{\text{suyuq}} = 140^\circ\text{C}-10 \quad \text{III. } t_{\text{suyuq}} = 170^\circ\text{C} \quad [\alpha] = +12$$

$$\text{IV. } t_{\text{suyuq}} = 170^\circ\text{C} \quad [\alpha]$$

I va II – antipod

I va III, I va IV,


III va IV – antipod

II va III, II va IV


Diastereomerlar ikkita asimetrik uglerod atomiga ega bo'lgan o
2ⁿ formula bo'yicha to'rtta stereoizomerga ega bo'ladi. Treonin (aminokislota) – ikkita xiral markazga yoki asimetrik uglerod atomiga ega. Demak, u 2ⁿ formulaga ko'tra 2² = 4 ta konfigurasion stereoizomerlarga ega:

Allo- grekcha so'zdan olingen bo'lib boshqa degan ma'noni bildiradi.

I va II hamda III va IV antipodlar yoki enantiomerlar juftligi.




2-amino-3-gidroksi buton kislota (treonin)



Bu formulalar solishtirilib ko‘rilganda I va III hamda I va IV, II va III hamda II va IV, ya’ni bularning oynadagi aksi bir-biriga ustma-ust tushmaydi. Bularda bitta asimmetrik ugleroddag‘i atom ikkinchi izomerdagiga to‘g‘ri keladi, lekin ikkinchi asimmetrik ugleroddag‘i atomlar qarama-qarshi joylashgan. Masalan, I formuladagi amino guruh o‘ng tomonda gidroksil guruh chap tomonda, III formulada esa amino guruh chap tomonda gidroksil guruh ham chap tomonda. Ikkinci uglerod atomidagi atomlar bir-biriga ustma-ust tushadi, lekin uchinchi uglerod atomida atomlar bir-biriga ustma-ust tushmaydi. Bunday stereoisomerlar juftligi diastereoisomerlar deb ataladi.

Diastereomerlar tuzilishi va tarkibi bir xil bo‘lsa-da, fizik-kimyoiy xossalari qisman farq qiladi.. Tarkibida ikkita asimmetrik atomga ega bo‘lgan vino kislotasida to‘rtta optik izomer bo‘lishi kerak edi:



А - Ⓛ - vinokislota L - (-)- vinokislota Mezovino kislota

Mezovino kislotasida asimmetrik uglerod atomlari bir xil o‘rin oluvchilarga ega. Bunday molekulada simmetriya tekisligi paydo bo‘lib xirallik yo‘qoladi, ya’ni bir qismi o‘ngga bursa, ikkinchi qismi shu burchakka chapga buradi va molekula


optik aktivligini yo'qotadi. Bu izomer optik izomerlarga nisbatan diastereomer deyiladi.

Optik izomeriya. Optik izomeriya ham stereozomeriyaning (fazoviy izomeriyaning) bir turi hisoblanadi. Izomerlar qutblangan nur tekisligini bir xil burchakka faqat biri o'ngga, ikkinchisi chapga buradi. O'ngga buruvchi isomer ishorasi, chapga buruvchi izomer esa-ishorasi bilan belgilanadi. Shuning uchun ular optik antipodlar ham deyiladi.

Optik izomeriya tirik organizmlarda uchraydigan asosiy metabolitlarni tashkil qiluvchi α - aminokislotalarda, uglevodlarda ham bo'ladi.

Yuqorida bizlar keltirigan formulalar Fisherning proektsion formulalari deyiladi. Formuladagi asimmetrik uglerod atomlarini ko'rsatish shart emas.

Masalan. vino kislota izomeri:




Bunda quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Mexanik usul. Ularning yoki tuzlarining kristallari ikki xil - jim va uning oynadagi aksi kabi bo'ladi. Bunda foydalanib mexanik usulda ajratiladi.
2. Biologik usul. Mikroorganizmlar ma'lum bir izomermi iste'mol qiladi. Bu usulda izomerlardan biri yo'qoladi.
3. Kimyoviy usul. Bunda ratsemat birorta optik aktiv modda bilan reaksiyaga kiritilib, diastereomerga aylantiriladi. Ular esa fizik xossalari bilan farq qiladi. Boshqa yo'llar ham mavjud.

Qutblangan nur tekisligini o'ng tomonga buruvchi izomerlar "D" harfi bilan belgilanadi va (+) ishorasi qo'yiladi.


Qutblangan nur tekisligini chap tomonga buruvchi izomerlar "L" harfi bilan belgilanadi va (-) I ishorasi qo'yiladi.

Buni gliserin aldegidi misolida ko'ramiz:



Ko'zgu izomerlar o'zaro teng, ammo biri o'ngga va ikkinchisi chapga burganligidan, ular ko'pincha optik faol izomerlar antipodlar deyiladi.

Teng miqdordagi o'ng va chapga buruvchi antipodlardan tashkil topgan optik faolmas birikmalar rasemik birikmalar yoki rasematlar deb ataladi va (\pm) DL deb belgilanadi. Konfigurasion stereoizomerlar deb – bir-biridan atomlar yoki atomlar guruhining fazodagi joylashishi bilan farq qiladigan izomerlarga aytildi. (konformasiyani hisobga olmagan holda). Konformasion stereoizomerlar σ -bog'lari atrosida aylana olishi natijasida biri ikkinchisiga o'ta oladi. Konfigurasion stereoizomerlar esa σ -bog'lari atrosida aylana olmaydi va ular biridan ikkinchisiga o'tishi uchun albatta kimyoiy bog'lar uzilishi kerak. Bu xossasi bilan ular bir-biridan farq qiladi. Agar stereoizomerlarda molekulaning birinchi yarim qismi ikkinchi yarim qismi bilan bir xil bo'lsa va bu molekula teng yarmiga, ya'ni 180° ga burilganda, birinchi yarim qismi ikkinchi qismi ustiga tushsa bunday stereoizomerlar mezoformalar bo'ladi, ya'ni yuqoridagi I va II izomerlar mezovino kislotosi bo'ladi. U optik faoliykga ega emas, bunga sabab ular ustma-ust tushgan



Savol va topshiriqlar.

1. Moddaning tuzilish formulasi asosida uning xossalarni aniqlash mumkinmi?
2. Optik izomerlarga misollar keltiring.
3. Organik moddalarlarning fazoviy tuzilishi mavzusida taqdimot tayyorlang.

MUNDARIJA

1.	Kirish	5
2.	Kimyo o'qitishda o'quvchilarning tajribalar bajarashini amalga oshirish. Laboratoriya tajribalari	8
3.	Kimyo laboratoriyasida xavfsizlik texnikasi	11
4.	O'quv reja va dasturlar tahlili	14
5.	Dastlabki kimyoviy tushunchalar va qonunlar mavzusi bo'yicha tajribalar o'tkazish metodikasi	19
6.	Tanlangan mavzulardan maqsad va vazifalarni belgilash	22
7.	Tarbiya metodlari bo'yicha esse yozish	26
8.	Kimyo o'qitishda o'quvchilarni bilimini rivojlantirish masalalari	26
9.	Maummoli vaziyatni tahlil qilish va optimal qaror chiqarish	28
10.	Kimyo mavzulariga monologik va dialogik metodlar tatbiqi	31
11.	Kislород, havo, yonish mavzuni o'qitishga oid tajribalarni o'rgatish	32
12.	Kimyo mavzulariga monologik va dialogik metodlar tatbiqi	33
13.	Kimyoda amaliy mashg'ulotlar. O'quvchilarda kimyoviy ko'nikmalarining shakllanishi.	35
14.	Hisoblashga oid masalalar yechish metodikasini o'rganish	37
15.	Kimyoda mavzularni o'qitishga innovatsion- interaktiv o'qitish metodlarini joriy qilish	37
16.	Kimyoda mavzularni o'qitishga AKT joriy qilish	40
17.	Kimyo fanlarini o'qitishda muammoli metodlardan foydalanish	43
18.	Kimyo o'qitish natijalarini nazorat qilishda testdan foydalanish	46
19.	Testli nazoratni kompyuterda o'tkazish	50
20.	Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o'tkazish	53
21.	Kimyo kechalarini pedagogik amaliyot vaqtida o'tkazish	55

	metodikasini ishlab chiqish	
22.	Kimyo amaliyotida ekskursiyadan foydalanish	56
23.	Darsda o'tiladigan mavzuning tarbiyaviy tomonini yoritish masalalari	66
24.	Anorganik kimyo uchun dars ishlanmasini yaratish	67
25.	Anorganik reaktsiya turlari mavzusini o'qitish metodikasi	69
26.	Organik kimyo uchun dars ishlanmasini yaratish	77
27.	Organik reaktsiya tenglamalarning mexanizmini o'qitish metodikasi	82
28.	Organik moddalarning fazoviy tuzilishini o'qitish metodikasi	84

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Mirkomilov Sh.M., Omonov X., Raxmatullayev N.G. Kimyo o'qitish metodikasi darslik T.: "Moliya iqtisod". 2013.
2. М.Нишонов, Ш.Мамажонов, В.Хужаев “Кимё үкитиш методикаси” ўқув кўлганма. Т-2002.
3. Lutfullayev U Anorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlari O'quv qo'llanma T.: 2006.168-bet.
4. Sh.R.Saydahmetova, A.G'.Maxsumov “Organik kimyo” o'quv qo'llanma. “Ilm - Ziyo-Zakovat”-Toshkent 2020 й. ISBN 978-9943-6034-1-7
5. Bozorov N.I., Ibodulloeva M.I.,Usmonova D.T., Sh.R.Saydahmetova “Kimyo asoslari” o'quv qo'llanma. “Ilm -Ziyo-Zakovat”-Toshkent 2020 й. ISBN 978-9943-6033-1-8.
6. Чернобельская Г.М. “Методика обучения химии в средней школе” М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2000. — 336 с.
7. Н.М.Shohidoyatov, H.O'.Xo'janiyozov, H.S.Tojimuhamedov “Organik kimyo” “Fan va texnologiya”nashryoti, 2014, 666-674betlar.
8. A.Aloviddinov, K.To'ychiyev, S.Qurbanov “Organik kimyodan amaliy mashg'ulotlar”O'zbekiston-1997. 197-219 betlar,
9. Shoymardonov R.A. Organik kimyo. Savol, masala va mashqlar/Toshkent. - O'qituvshi- 2008.
10. Травень В.Ф. Органическая химия в 2-х т. М.: ИКЦ «Академкнига» 2004 г. Т.1. 727 с., Т.2. 582 с.
11. Ахмедов Қ.Н., Абдушукоров А.К., Тожимухамедов Х.С., Йўлдошев А.М. Органик кимё умумий курсидан маъruzalар матни. Т.: «Университет». 2000й. 122 б.
12. Saydaxmetova Sh.R. Kimyo o'qitish metodikasi- o'quv qo'llanma. “Ilm -Ziyo-Zakovat”- Toshkent-2021 yil

M.Sh. Norberdiyeva, F.Sh. Xayitov Sh.M. Ganiyeva

KIMYO O'QITISH METODIKASI

5110300-Kimyo o'qitish metodikasi yo'nalishlari uchun
o'quv qo'llanma

“Ilm-ziyo-zakovat” nashriyoti

Nashriyot litsenziyasi № AI 274. 15.07.2015 da berilgan
Bichimi 60x84 ^{1/16}

Times New Roman garniturasi

Adadi 100. Buyurtma № 87

Bosma tabogi 9,75

Orginal maket “BOOK MEDIA PLUS” XKda tayyorlandi
Manzil: Toshkent, Chilonzor tumani, Chupon ota,6-uy

«ADAD PLUS» bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent, Bunyodkor shoh kuchasi,24uy,

